Raqib donasini yo'qotish uchun unga hujum qilish kerak. Hujum bir tamonlama va o'zaro bo'lishi mumkin. Masalan, piyoda bilan otga yoki ruhga hujum qilinsa, bu – bir tamonlama hujum bo'ladi, chunki ot yoki ruh o'z navbatida o'ziga hujum qilgan piyodani ura olmaydi. Agar piyoda bilan piyodaga yoki filga, farzinga yoki shohga hujum qilinsa, hujum qilgan piyoda ham o'z navbatida hujumda qoladi va bunday hollar ko'pincha donalar almashuviga sabab bo'ladi. Hujum qilish, himoyalaniish va donalarni almashtirish paytida donalarning bir biriga nisbatan kuchini hisobga olish zarur (45-vaziyat).

45-vaziyat



Aytaylik, 45-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar 1. ... Jla8-d7 yordamida d4 dagi piyodaga hujum qilsin. Oqlar 2.Jla1-d1 yo'li bilan piyodasini qo'riqlasin. Shundan keyin d4 dagi piyoda bir zarba ostida qolgan va bir marta qo'riqlangan bo'ladi. Demak, piyodaga hujumni kamaytirish kerak. 2. ... Ke7-f5 (birdaniga 2. ... Jl:d4? bo'lsa, 3.Jl:d4e dan keyin qoralar bir piyodga ruhni almashtirgan bo'lib chiqadi. Ruh piyodaga nisbatan juda kuchli-ku, axir!) Endi piyoda ikkita qora siphoning hujumi ostida qoldi. Agar oqlar piyodasini yana bir marotaba himoyalamasa, 3. ... Jl:d4 4.Jl:d4 (ruhni ruhga almashtirsa bo'laveradi) 4. ... K:d4 dan keyin bir piyodasiz qoladi. Oqlar 3.Kh2-f3 yo'li bilan o'z piyodasini ikkinchi marta himoyalasa

bo'ladi-yu, lekin 3. ... Ca6-e2 4.Jd1-d2 Ce2:f3+ (filni otga almashtirsa bo'laveradi, chunki ularning kuchi teng) 5.Kpg2:f3 Jd8:d4 dan keyin, baribir bir piyodasiz qoladi.

1.... Jla8-d8 keyin oqlar 2.Cf4-e3 yo'li bilan piyodasini himoyalasa, 2. ... Ke7-f5 3.Ce3-f2 (yoki 3.Kpf2) 3. ... Kf5:d4 (lekin 3. ... Jl:d4 yaramaydi, chunki bu holda ruxni bir fil va bir piyodaga almashtirilgan bo'ladi. Vaholanki, rux bilan fil va ikki piyodaga arziydi) va qoralar bir piyoda ortib qoladi. Demak, piyodani himoya qilish uchun 3.Ce3 ham yetarli emas ekan. d4 dagi piyodani himoya qilishning eng yahshi chorasi 2.c2-c3 dir. Piyoda himoyasida turgan piyodaga faqat sipohlar bilan hujum qilish deyarli foydasiz. Masalan, endi qoralar oti bilan d4 dagi piyodani ursa, uni ikki piyodaga almashtirgan bo'lib chiqadi. Demak, almashtirish qoralar uchun noqulay.

Aytaylik, o'yin shunday boshlansin: 1.e2-e4 e7-e5 2.Kg1-f3 d7-d6. Qoralar e5 dagi o'z piyodasini d6 piyoda bilan qo'riqlaydi. Endi e5 piyodasiga faqat sipohlar bilangina (masalan, 3.b2-b3 va 4. Cc1-b2 yo'li

bilan) hujum qilishning foydasi yo'q. Shuning uchun oqlar 3.d2-d4 yordamida piyodaga o'z piyodasi bilan hujum qiladi.

Endi bir marta qo'riqlanadigan e5 dagi piyoda ikki marta hujum ostiga olindi. Shu sababli qoralar 3. ... Kb8-c6 o'ynab, o'z piyodasini ikkinchi marta qo'riqlaydi. Oqlar 4.Cf1-b5 o'ynab, qora otni ochmas qildi. (Agar buning o'rniga 4.d5:e4 bo'lsa, 4. ... Kc6:e5 5.Kfe:e5 d6:e5 6. Qd1:d8++ Kpe8:d8 dan keyin farzinlar bittadan ot va bittadan piyoda almashib krtib, hech qaysi tamon zarar ko'rmas edi). Endi c6 dagi ot yura olmaydi, chunki uni yurilsa, qora shoh filning zarbasi ostida qoladi. Demak, u e5 dagi piyodani himoya qilishda qatnasha olmaydi. Shuning uchun qoralar 4. ... f7-f6 o'ynab, o'z piyodasini yana bir marta qo'riqlashi yoki 4. ... e5:d4 bilan ikki marta hujum ostida qolgan o'z piyodasini almashtirishi kerak. 4. ... e5:d4 bo'lsa, 5.Kf3:d4 dan keyin qoralarning c6 dagi oti ikki marta hujum ostida qoladi. Ot bir marta (b7 dagi piyoda bilan) qo'riqlangan, xolos. Qoralar 5. ... Cc8-d o'ynab,

otini ikkinchi marta qo'riqlaydi. Endi 6.Kd4:c6 Cd7:c6 7.Cb5:c6 b7:c6 bo'lsa bittadan ot va bittadan fil almashadi – hech qaysi tomon zarar ko'rmaydi. Yana bir misolni ko'rib chiqaylik. O'yin shunday boshlangan: 1.e2-e4 e7-e5 2.Kg1-f3 Kb8-c6. Qoralar e5 dagi piyodasini oti bilan qo'riqladi. 3.Cf1-c4 Cf8-c5. Tomonlar o'z navbatida hujum ostiga olgan f7 va f2 piyodalari shohlar bilan yetarli ravishda himoyalangan. 4.d2-d3 Kg8-f6 5.Kf3-g5. Oqlar f7 piyodasiga ikki donasi bilan hujum qilmoqda, piyoda bir marta qo'riqlangan, xolos. Qoralar piyodasini yana bir marta qo'riqlashi lozim. Shu maqsadda 5. ... Φ d8-e7 o'ynash xato, chunki 6.Cc4:f7+ Φ e7:f7 7.Kg5:f5 dan keyin oqlar bir ot va bir fil evaziga farzin va bir piyodaga ega bo'ladilar. Vaholanki, farzinning o'zi ikkala sipohdan ham ancha kuchli hisoblanadi.demak, qoralar katta talofat ko'radi. f7 dagi piyodani himoyalash uchun qoralar 5. ... Jlh8-f8 o'ynashi mumkin. Agar bu holda oqlar avvalgicha, ya'ni 6.Cc4:f7+ o'ynasa, 6. ... Jlf8:f7 7.Kg5:f7 Kpe8:f7 dan

keyin bir fil va bir ot evaziga birr rux va bir piyodaga ega bo'ladi. Vaholanki, ot va fil ruh va bir piyodadan kuchlilik qiladi. Demak, oqlar talofat ko'radi. Biroq oqlar bunday qilishga majbur emas. Shunday ekan, qoralarni kichik rakirovkadan mahrum etuvchi yurish – 5. ... Jlh8-f8 yahshi emas. Qoralar uchun to'g'ri yurish – 5. ... 0-0 dir. Qoralar rakirovka qilib, shohini xavfsizroq xonaga olib o'tdi va shuning bilan birga, f7 dagi piyodasini ikkinchi marta himoyaladi. Oqlar 5.Kf3-g5 o'ynaganda, raqibining xato javobiga ishongan edi. Endi uni h7-h6 yordamida haydash mumkin. Demak, oqlar vaqtni bekor ketkazgan.

Biz shaxmat partiyasida hujum qilish, himoya qilish donalarni almashtirish katta o'rinni egallashini ko'rib chiqdik. Bularni o'rganish juda muhim. Endi ko'pgina zarbalarni o'z ichiga oluvchi bir misol (o'yinning boshlang'ich qismi)ni ko'rib chiqamiz.

Oqlar Qoralar

1.d2-d4 d7-d5

2.c2-c4 ...

Oqlar bir piyodasini qurbon qilmoqda. Lekin “farzin gambiti” deb ataluvchi o’yin boshiga olib keluvchi 2. ... d4 dan keyin oqlar 3. ♠a4+ Kc6 4. Kf3 yo’li bilan qurbon qilgan piyodasini qaytarib oladi va c piyodasining o’rniga markaziy d piyodasiga ega bo’ladi.

2. ... e7-e6

Qoralar d5 dagi piyodasini piyoda bilan himoyaladi. Agar buning o’rniga qoralar 2. ... Kf6 o’ynaganda, oqlar 3. cd K:d5 4. e4 dan keyin kuchli piyodalar markaziga ega bo’lardi. Yoki 3. ... ♠:d5 bo’lsa 4. Kc3 va oqlar yana bir sipohini o’yinga chiqarish uchun vaqt yutardi.

3. Kb1-c3 ...

Oqlarning d5 piyodasi ikki marta (e6 dagi piyoda va farzin bilan) qo’riqlangan.

3. g7-g6

Agar endi 4. cd ed va 5. K:d5? bo’lsa, 5. ... ♠d5 va oqlar otini bir piyodaga bergan bo’lib chiqadi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: ikki zarba ikki himoya bilan muvozanatga keladi.

4. g2-g3 Cf8-g7

5. Cf1-g2 ...

Oqlar d5 piyodasiga uch sipoh hujum qilmoqda – unga c4 piyodasi hamda c3 dagi ot va g2 dagi fil hujum qilmoqda. Shu paytda piyoda ikki marta qo’riqlangan, xolos. Qoralar c4 dagi piyodani olishi yoki o’z piyodasini uchinchi marta qo’riqlashi kerak.

5. c7-c6

6. e2-e4 Kg8-e7

Oqlar piyodaga to’rt sipoh hujum qilgan bo’lsa, qoralar ham o’z piyodasini to’rt sipoh bilan qo’riqladi.


7. Cc1-e3 0-0

8. ♠d1-b3 ...

Oqlar piyodasiga besh sipoh hujum qilmoqda. Qoralar o’z piyodasini beshinchi marta qo’riqlay olmaydi. Shuning uchun ular d5 dagi piyodasi bilan e4 yoki c4 dagi oq piyodani urishga majbur. Natijada oqlar o’z piyodalari bilan markazni egallaydi, binobarin biroz pozitsiyaviy ustunlikka erishadi (46-vaziyat).

46-vaziyatdagi pozitsiyada d5 dagi piyoda to’rtta oq donaning hujumi ostida bo’lib, faqat uch marta qo’riqlangan. Biroq uni olish oqlar uchun noqulay.

46-vaziyat



Oqlar piyodani olgandan keyin uchinchi zarbani farzini bilan berishga to'g'ri keladi va shu payt u qora ruxning zarbasi ostida qoladi. Almashtirish natijasida oqlar rux va bir piyoda evaziga farzinidan ajraydi. Demak, oqlar katta talofat ko'radi. To'g'ri yurish – 1.Φd3-b5 dir. Bu yurish bilan oqlar 2.K:d5 K:d5 3.Л:d5

Л:d5 4.Л:d5 Л:d5 5.Φ:d5 xavfini tug'dirmoqda. Bu holda farzin piyodani himoyalab turgan uch sipoh yo'qotilganidan keyingina oxirgi zarbani beradi. Shuning uchun qoralar 1. ... Φd6 o'ynab, o'z piyodasini to'rtinchi marta himoyalashi va 2.K:d5 K:d5 3.Л:d5 Φ:d5 4.Л:d5 Л:d5 5.Φ:b7 dan keyin farzin hamda bir piyoda evaziga ikki ruxga ega bo'lishi mumkin. O'yin oxiriga yaqinlashayotgani tufayli ikki rux farzidan kuchliroq. Shu sababli almashtirishlar taxminan tenglikka olib keldi.

QISQA O'YINLAR

№ 1

1. e2-e4 e7-e5
2. Cf1-c4 Cf8-c5
3. Φd1-f3 ...

Bu o'yinlar endigina o'rganayotganlar uchun xarakterlidir. O'yin boshida farzinni yurishdan foyda kamligini, ba'zan esa donalarning tezroq o'yinga kiritilishiga zarar yetkazishini keyinroq ko'ramiz.

3.... d7-d6??

Qoralar o'zining mot bo'lishini ko'rmayapti. Motdan qutilish uchun 3. ...

Kg8-f6 yurish kerak edi.

4. Φf3:f7x

Buni “bolalarcha” mot deyiladi.

№ 2

- 1.f2-f4 e7-e5
- 2.g2-g3? e5:f4
- 3.g3:f4?? Φd8-h4x

Oqlar, xato o'ynab, e1-h4 yo'lini ochib berdilar. Quyidagi o'yin undan ham qisqaroq:

1.f2-f3? e7-e5

2.g2-g4?? Φd8-h4x

№ 3

1.e2-e4 e7-e5

2.Cf1-c4 Cf8-c5

3.Φd1-f3 Kg8-h6?

Bu safar qoralar, mot xavfi borligini fahmlab, undan qutilish uchun f7 xonasini ot bilan qo'riqlaydi. Ammo oqlar bu himoyani darrov bartaraf qila oladilar.

Birinchi o'yinda aytilganidek, 3. ... Kg8-f6 yurish yahshi himoya bo'ladi.

4.d2-d4! Cc5:d4

5.Cc1:h6 g7:h6

6.Φf3:f7x

№ 4

1.e2-e4 c7-c5

2.Kg1-f3 Kb8-c6

3.d2-d4 c5:d4

4.Kf3:d4 e7-e5

5.Kd4-f5 Kg8-e7??

Qora shohning butun yo'lini berkitib, f8 dagi filning yo'lini to'sib qo'yadigan qo'pol xato yurishdir. Oqlarning ot bilan d6 dan kisht

bermasligi uchun 5. ... d7-d6 yoki 5. ... d7-d5 yurish kerak edi.

6.Kf5-d6x

Bunga "yopiq" mot deyiladi.

№ 5

1.e2-e4 g7-g6

Qoralar f8 dagi filni g7 ga yurish uchun joy bo'shatadi.

Ammo ular keyinchalik izchillik bilan o'ynamay, filni g7 xonasiga yurishni esidan chiqarib qo'yadi.

2.Kb1-c3 Kg8-f6

3.Kc3-d5 Kf6:e4

Qoralar "piyodaxo'rlik" bilan ovora.

4.Φd1-e2 Ke4-d6??

5.Kd5-f6x

Yana yopiq mot, bu gal qoralarning e7 piyodasi ochmas qilingan. Qoralar 4. ... Ke4-d6 o'rniga 4. ... c7-c5 surib, oq otni haydashi yoki o'zining f6 dagi d5 dagi otni olib urishtirishi yahshiroq edi.

№ 6

1.e2-e4 e7-e5

2.f2-f4 e5:f4

3.Kg1-f3 d7-d5

4.Kb1-c3 d5:e4

5.Kc3:e4 Cc8-g4

6.Φd1-e2 Cg4:f3??

Buning o'rniga qoralar, masalan,
6. ... $\Phi d8-e7$ yurib, shohni qo'riqlashi
kerak edi.

7. $Ke4-f6x$

Ikkiyoqlama kisht berilganligi
tufayli qoralar mot bo'ldi.

№ 7

1. $e2-e4$ $e7-e5$

2. $Kg1-f3$ $d7-d6$

3. $Cf1-c4$ $Cc8-g4$

4. $Kb1-c3$ $g7-g6?$

Yahshisi, 4. ... $Kb8-c6$ dir; bu
pozitsiyada $e5$ xonasini ot bilan
qo'riqlash kerak edi.

5. ... $d6:e5$ 6. $\Phi d1:g4$ dan keyin
qoralar atigi bir piyoda yutqazgan
bo'lar edi, xolos.

6. $Cc4:f7+$ $Kpe8-e7$

7. $Kc3-d5x$

№ 8

1. $e2-e4$ $c7-c6$

2. $d2-d4$ $d7-d5$

3. $Cf1-d3$ $Kg8-f6?$

Qoralar uchun 3. . . . $d5 : e4$ 4. $Cd3$
: $e4$ $Kg8-f6$ o'ynab, fursatni boy
bermasdan donalarni ishga solish
yaxshiroq edi, (ayni bir vaqtda $e4$
dagi filga ham hujum qilinar edi).

4. $e4-e5$ $Kf6-d7$

5. $e5-e6!$ $f7:c6?$

Qoralar diagonal ochishda
oqlarga yordamlashib chakki qildi.

5. ... $Kd7-f6$ yurish yaxshiroq edi.

6. $\Phi d1-h5+$ $g7-h6$

7. $Cd3:g6+$ $h7 : g6$

8. $\Phi h5: g6x$

Oqlar avvalo 7. $\Phi h5:g6 +$ keyin
8. $Cd3:g6x$ qilsa ham bo'lardi.

№ 9

1. $e2-e4$ $e7-e5$

2. $d2-d4$ $Kg8-f6$

Nazariya bu yurishni ma'qul
ko'rmaydi. Undan ko'ra 2. ... $e5:d4$
urish yaxshiroq; chunki, 3. $\Phi d1:d4$
 $Kb8-c6$ dan keyin qoralar donalarini
ishga soladi, oqlar esa chekinish
uchun temp yutqazadi.

3. $d4 : e5$ $Kf6:e4$

4. $Kg1-13$ $Cf8-c5$

5. $\Phi d1-d5$ $Ke4: f2$

6. $Cf1-c4$ $0-0$

7. $Kf3-g5$ $Kf3:h1$

8. $Kg5:f7$ $c7-c6?$

9. $Kf7-h6++$ $Kpg8-h8$

10. $\Phi d5-g8+!$ $Jlf8:g8$

11. $Kh6-f7x$

№10

1. $e2-e4$ $e7-e6$

2. $d2-d4$ $d7-d5$

3. Kb1-c3 Cf8-d4

4. Cfl-d3 Cd4:c3+

Bu urishtirish qoralarga hech qanday foyda bermaydi. Bu yerda 4. ... c7-c5 surib markazga hujum qilish yaxshi edi.

5.b2:c3 h7-h6?

Keraksiz yurish. Undan ko'ra 5. ... Kg8-e7 yurib rokirovkaga tayyorlanish yaxshi edi. Oqlar qoralarning bu xatosidan foydalanib, donalarini o'yinga soladi va shu bilan birga qoralarning rokirovka qilishiga yo'l bermaydi.

6.Ccl-a3! Kb8-d7

7. Φ dl-e2 d5 : e4

e4:d5 xavfi bor edi.

8.Cd3 : e4 Kg8-f6

9.Ce4-d3 b7-b6?

Qoralar xavf-xatarni ko'rmay, c7-c5 surmoqchi bo'ladi.

10. Φ e2:e6+! f7:e8

11. Cd3-g6 x

Endi ma'lum bo'ldiki, qoralarning 5-yurishi (h7—h6) tempni yo'qotish bilan birga, g6 xonasini bo'shashtirib xam qo'ygan.

№ 11

1. e2—e4 c7-c6

2. d2-d4 d7-d5

3. Kb1-c3 d5:e4

4. Kc3:e4 Kg8-f6

5. Φ dl- h5 e7—e5

6. d4 : e5 Φ d8—a5 +

7. Ccl-d2 Φ a5:e5

8. 0-0-0!

Oqlar e4 dagi otini ataylab tashlab ketadi. Albatta, uni farzin bilan ursa, Jldl-el yuriladi, ammo qoralar singari uni ot bilan urish ham yaxshi emas. Bu yerda eng yaxshisi "e" yo'lini bekitish va rokirovkaga tayyorlanish uchun 8. ... Cf8—e7 yurish kerak edi.

8. ... Kf6:e4?

9. Φ d3-d8+!! Kpe8:d8

Qoralarning shoxi ikkiyoklama kisht beriladigan joyga olib kelindi.

10. Cd2-g5++ Kpd8-c7

Agar 10. ... Kpd8—e8 yursa, I.Jldl-d8 x qilinadi.

11. Cg5-d8 x

№ 12

1. e2-e4 d7-d5

2. e4 : d5 Φ d8 : d5

3. Kb1-c3 Φ d5-d8

Odatda 3. ... $\Phi d5-a5$ o'ynaladi, endi esa qoralar donalarini o'yinga chiqarishdan orqada qoladi.

4. $Kg1-f3$ $Cc8-g4$

5. $Cf1-c4$ $e7-e6$

Agarda shunday surilmasa, oqlar xavf tug'dirib: 6. $Cc4:f7+$ $Kpe8:f7$ 7. $Kf3-g5$ + va keyin $\Phi dl:g4$ uradi.

6. $h2-h3$ $Cg4 : f3$

7. $\Phi d1:f3$ $c7-c6$

8. $d2-d3$ $\Phi d8-f6$

Qoralar farzinlarni urishtirishni taklif qiladi, lekin buning oqlarga foydasi yo'q, chunki ularning ko'proq donalari o'yinga chiqqan.

9. $\Phi f3-g3$ $Kg8-h6$

Otning bu erda turshi yaxshi emas. Qoralarining farzini $d8$ ga qaytib yurishi tuzukroq, edi, lekin vaqtni bu xilda bekorga sarflash yaxshi natija bermaydi.

10. $Ccl-g5$ $\Phi f6-g6$

11. $Kc3-b5$ $c6:b5?$

Qoralar, oqlar 12. $Cc4:b5+$ beradi. Bunga 1. ... $Kb8-c6$ yurib javob beraman, deb xato o'ylaydi. Hozir 11. ... $Kb8-a6$ yurish zarur edi.

12. $\Phi g3:b8+!$ $Jla8-b8$

13. $Cc4:b5x$.

№ 13

1. $e2-e4$ $e7-e5$

2. $Kb1-c3$ $Kg8-f6$

3. $Cfl-c4$ $Kf6:e4$

Oqlar 4. $Kc3:e4$ ursa, qoralar, 4. ... $d7-d5$ surib donalarni ishga solmoqchi.

4. $\Phi dl-h5$ $Ke4-d6$

5. $Cc4-b3$ $Cf8-e7$

Undan ko'ra 5. ... $Kb8-c6$ yurib piyadani qo'riqlash yaxshiroq edi. Oqlar $e5$ dagi piyadani hoziroq urishi mumkin edi, lekin ular o'yinga ko'proq dona chiqarishni ma'qulroq ko'radi.

6. $d2-d3$ $0-0$

7. $Kg1-f3$ $Kb8-c6$

8. $Kf3-g5$ $h7-h6$

Qoralarining ahvoli hozirdanoq yomonlashdi, $h7-h6$ surgan bilan bu otni haydab bo'lmaydi, lekin 8. ... $Ce7:g5$ urishdan ham foyda yo'q, chunki oqlar 9. $Ccl:g5$ $\Phi d8-e8$ 10. $Kc3-d5$ o'ynaydi.

9. $h2-h4!!$...

Endi qoralar 9. ... $h6:g5$ ursa, 10. $h4:g5$ urgandan keyin "h" yo'li ochilib, masala hal bo'ladi.

9. ... $Kd6-e8?$

9. ... Kc6-d4 yahshiroq edi, chunki endi oqlar, 10. Kg5:f7! urib, o'yinni darrov yutadi. O'yinning davomi ham juda qiziq:

10. Kc3-d5 Ke8-f6

11. Φh5-g6!! f7:g6

Oqlar 12. Kd5:f6+ va keyin 13. Φg6-h7x qilish xavfini solayotgan edi. 11. ... Kpg8-h8 12. Kg5:f7+ Jla8:f7 urish yaxshiroq edi.

12. Kd5:e7++ Kpg8-h8

13. Ke7:g6x

№ 14

1.e2-e4 e7-e5

2. Kg1-f3 Kb8-c6

3. d2-d4 e5:d4

4. Kf3:d4 Kc6:d4?

Bu urishtirish natijasida oqlarning farzini yaxshi pozitsiyani egallaydi; qoralar 4.... Cc5 yoki 4.... Kf6 o'ynashi yaxshiroq edi.

5. Φd1:d4 Kg8-e7

Qoralar d7-d5 surishga tayyorlanmoqda, lekin oqlar bunga yo'l qo'ymaydi.

6.Cf1-c4 c7-c6

7. Kb1-c3 d7-d6

Qoralar d7-d5 surolmaydi, chunki piyada yutqazib qo'yadi.

8. Ccl-g5 Φd8-b6?

Ochmasdan qutulib, d6 piyadasini qo'riqlash uchun 8. ... Φd8-c7 yurish yaxshi edi.

9. Φd4: d6 Φb6:b2

10.Jla1-d1! Φb2-c3+

11. Cg5-d2!! Φc3:c4

11. ... Ke7-f5 yurish ham foyda bermaydi, chunki oqlar 12. Cc4:f7+ Kpe8:f7 13. Φd6-c7+ va keyin 14.Cd2:c3 uradi.

12. Φd6-d8+! Kpe8:d8

13. Cd2-a5+ Kpd8-e8

14. Jdl-d8x

№ 15

1.e2—e4 e7—e5

2.Kgl-f3 Φd8-f6?

Farzinni o'yinga juda erta chiqarish yaramaydi, chunki u raqibning ancha kuchsizroq donalarining hujumi ostida qolib ketadi va chekinishga majbur bo'ladi. Natijada vaqt bekorga ketadi (ya'ni odatda aytilishicha temp yo'qotadi).

3.Cf1-c4 ...

3. Kb1-c3 yursa ham yaxshi edi. Oqlar vaqti kelganda Kc3-d5 yurib qora farzinga hujum qilishi ham foydalidir.

3. ... Φf6-g6

Yana xato. Qoralar piyada yutishga berilib ketib (e4 va g2 dagi piyadalardan birini urmoqchi), oʻz donalarini oʻyinga chiqarishni unutib qoʻymoqda.

4. 0-0 Φ g6:e4?

Bunga oqlar quyidagi kombinatsiya bilan javob qaytaradi:

5. Cc4 :f7+ ! Kpe8-e7

Agarda 5. ... Kp:f7 ursa, oqlar 6. Kf3- g5+ beradi va farzin yutadi. Bordi-yu 5. ... Kpe8—d8 yursa, oqlar 6. Jlf1- el oʻynaydi va piyada yutadi, pozitsiyasi ham yaxshi boʻladi, chunki qoralar rokirovkadan mahrum boʻladi.

6. Jlf1-e1 Φ e4-f4

7. Jle1 : e5 + ...

Oʻyinining qiziq payti. Oqlar qora shoxning yomo ahvoldaligini va qora donalarning oʻyinga mutlaqo kiritilmay oʻz joylarida turganini hisobga olib, bir sipoh qurbon qiladi.

7. ... Kpe7:f7

8. d2-d4 Φ f4-f6

Farzin yana „sargardon“ boʻlib yuraveradi.

9. Kf3-g5+ Kpf7-g6

10. Φ dl-d3+ Kpg6-h5

11. g2-g4+

Keyingi yurishda mot boʻladi.

№ 16

1.e2-e4 e7-e5

2.f2-f4 Φ d8-h4+

Keraksiz kishlardan bir misol. Bu kisht qoralarga hech-qanday foyda bermaydi va bekorga temp yoʻqotadi, xolos.

3. g2-g3 Φ h4-h6

Endi farzin cl dagi filning diagonaliga borib turdi; oʻyin ochilgandan keyin farzin chekinish uchun, yana vaqt sarf qiladi. Shuning uchun oʻz xatosini boʻyniga olib, yana d8 xonasiga qaytish yaxshiroq edi.

4. Kb1-c3 e5:f4

5. d2-d4 Φ h6-f6

6. Kc3-d5 Φ f6-c6

Qoralar c7 piyadasini qoʻriqladi.

7. Cf1-b5 ...

Qoralar bu filni urolmaydi, chunki Kd5:c7+ beriladi.

7. ... Φ c6-d6

8.Cc1:f4

Qoralarning farzini hadeb u yoqdan bu yoqqa yurgan bir vaqtda, oqlar oʻz donalarini ket-ma-ket oʻyinga chiqarayotir.

8. ... Φ d6-g6

Qoralar e4 piyadasini urish bilan ikkiyoqlama hujum qilib, ruh yutish

payida, lekin bu mo'ljal noto'g'ri bo'lib chiqdi.

9. Kd5:c7+ Kpe8-d8

10. Kc7:a8 Φg6:e4+

11. Φdl-e2 Φe4: h1

12. Cf4-c7X

Bu o'yinda qoralar hammasi bo'lib 11 yurish qildi, shundan 8 tasini farzini yurgan! Shuning uchun qoralarning o'yinni bunchalik tez yutqazib qo'yishi ham ajablanarli emas.

№ 17

1. e2-e4 e7-e5

2. Kgl-f3 ...

Oqlar o'z donasini o'yinga chiqazish bilan birga, qoralarning piyadasiga ham hujum qilmoqda.

1. Cf8-d6?

Bunda fil d7 piyadasining yo'lini to'sdi va shu bilan birga butun farzin tomonning ishga tushuviga to'sqinlik qilayapti.

3. Cfl-c4 Kg8-f6

4. d2-d4 e5 : d4?

Qoralar yana xato qildi. Endi oqlarning piyadasi bir yo'la ikki donaga hujum qilmoqda.

5. e4-e5 Φd8-e7

Qoralar, piyadani ochmas kilib, qutulib olmoqchi.

6. Φd1-e2 taslim.

Vilka bo'lgani uchun oqlar bir sipox yutadi.

№ 18

1. e2-e4 e7-e5

2. Kgl-f3 f7—f6?

Bu piyadaning surilishi donalarni o'yinga chiqarish uchun hech qanday foyda bermagani bilan birga g8 dagi ot yuradigan eng qulay joyni dam band qiladi. Bundan tashqari, bu piyadaning surilishi natijasida oq donalar uchun a2—g8 va e8—h5 diagonallari ochilib qoladi.

3. Kf3:e5 ...

Qoralarning rokirovka qilishiga xalaqit berish uchun 3.Cf1-c4 yurish ham yaxshi.

3. ... f6:e5

Qoralar bu qurbonni qabul qilib darrov yutqazadi. Navbatdagi o'yindagiga o'xshash 3. ... Φd8-e7 yurish yaxshiroq edi.

4. Φdl-h5+ Kpe8-e7

Agar 4. ... g7-g6 sursa, Φh5:e5+ va h8 dagi ruh ketadi.

5. Φh5:e5+ Kpe7-f7

6. Cfl-c4+ Kpf7-g6

Bunda 6. ... 67—d5 surish birmuncha yaxshiroq edi, lekin shunda ham 7. Cc4:d5+ Kpf7-g6 8. h2—h4 dan keyin qoralar bari bir o'yinni yutqazadi. Hozir oqlar 9. h4-h5+ Kpg6-h6 10. d2-d4+ bermoqchi, lekin ular 9. Cb5:b7 o'ynashi ham mumkin: 9. ... Cc8:b7 10. Fe5-f5+ va keyin d2-d4+ berib davom etdiradi.

7. Fe5-f5 + Kpg6-h6

8.d2-d4 + g7-g5

9.h2-h4! Cf8-e7

10.h4:g5++ Kph6-g7

11.Ff5-f7 x

№ 19

1. e2-e4 e7-e5

2. Kgl-f3 f7-f6?

3. Kf3:e5 Fd8-e7

4. Ke5-f3

Bu yerda 4. Fd1-h5+ berilsa xato bo'lar edi, chunki qoralar 4. ... gl-g6 o'ynab, Ke5:g6 dan keyin Fe7:e4+ beradi va Fe4:g6 uradi.

4... ... d7-d5

5. d2-d3 d5:e4

6.d3:e4 Fe7:d4+

7.Cf1-e2 Cc8-f5?

Debyutda piyada ketidan quvlab yurgandan ko'ra donalarni ishga

solish (masalan, Kb8-c6, Cc8-d7, 0-0-0) muhimroqdir.

8. 0-0! Fe4:c2

9. Fd1-e1 Fc2-e4?

Qoralar Ce2-b5++ va Fe1- e8X dan saqlanadi-yu, lekin oqlarning boshqacha o'ynashini sezmaydi.

10. Ce2-d3!! Taslim.

Chunki 10. ... Fe4:e1 11. Jlf1:e1+ dan keyin oqlar f5 dagi filni urib oladi.

№ 20.

1.e2-e4 e7-e5

2.Kgl-f3 Kb8-c6

Albatta, e5 piyadasini qo'riqlashning eng to'g'ri usuli shudir. Oqlar singari, qoralar ham donasini o'yinga chiqaradi.

3.Cf1-b5 Kg8-f6

4. 0-0 Kf6:e4

5. d2-d4 Kc:d4?

Shaxmat o'yinida o'rnnli-o'rinsiz "piyadaxo'rlik" qilish nihoyatda xavflidir. 5. ... Cf8-e7 yurilsa yaxshi bo'lar edi, aks holda qoralarning yurishidan keyin "e" yo'li ochiladi.

6.Kf3:d4 e5:d4

7. Jlf1-el Taslim.

Oqlar f2-f3 suradi va ochmasdan foydalanib, sipox yutadi.

№ 21

- 1.e2-e4 e7-e5
2.Kgl-f3 Kb8-c6
3.Cfl-c4 Kc6-d4

Bir donani ikki marta yurgandan ko'ra, boshqa donani o'yinga chiqazish kerak edi. Hozir oqlar otlarni urishtirib va rokirovka qilib, o'yinni avj oldirishda qoralardan ancha o'zib ketishi mumkin edi. Ammo qoralar, oqlarga bir piyada berib, ularni qo'lga tushirmoqchi bo'ladi.

4.Kf3:e5?? Φd8-g5!

Qoralar ikkiyoqlama (e5 va g2 xonalariga) hujum qiladi.

5. Ke5:f7 ...

Agarda 5.C:f7+ bersa, Kpe7 yurgandan keyin oqlarning ikkala sipoxi ham zarba ostida qoladi.

5. ... Φg5:g2

Qoralarning hujumi kuchliroq oqlar motdan qutulishi kerak.

6. Jlh1-f1 Φg2:e4+

7.Cc4-e2 Kd4-f3x

Bu o'yin, o'z vaqtida chora ko'rilmasa, raqibning yurishi yomon bo'lsa ham (3. ...Keb— d4?) yomon

oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.

№ 22

- 1.e2-e4 d7-d6
2.d3-d4 Kb8-d7

Qoralar passiv o'ynaydi. Bu ot o'z fili va farzinining ko'zini to'sib qo'ydi.

3. Cfl-c4 g7-g6

Qoralar donalarini juda sust ishga solmoqda; undan ko'ra 3. ... e7-e5 yaxshi edi. Tabiiy ko'ringan navbatdagi yurishdan keyin qoralar o'yinni qutqarib qola olmaydi.

4.Kg1-f3 Cf8-g7?

5.Cc4:f7+! Kpe8:f7

6.Kf3-g5+ Taslim.

Agar 6. ... Kpf7-e8 (yoki f8) yursa, 7.Ke6 va farzin ketadi; bordi-yu 6. ... Kpf7-f6 yursa, 7. Φd1-f3x bo'ladi.

№ 23

- 1.e2-e4 e7-e5
2.Kg1-f3 Kb8-c6
3.d2-d4 e5:d4
4.Kf3:d4 Kg8-e7?

Donalarning ko'zini bekitib qo'yadigan yomon yurish. 4. ... Cf8-c5 yoki 4. ...Kg8-16 yaxshi edi.

5. Kb1-c3 g7-g6?

Bu piyadani surgandan keyin f6 xonasi zaiflashib qoladi. Oqlar bu xonani egallab olishga kirishadi.

6.Cc1-g5 Cf8 - g7

7.Kc3-d5!

Oqlar, Kd4:c6 urib, keyin e7 dagi ochmas otni yutib olmoqchi.

7. ... Cg7 : d4

Agar 7. ... Kc6:d4 ursa, 8. Cg5:e7 uradi va qoralarning farzinini oladi.

8. Φd1:d4! Kc6:d4

9.Kd5-f6+ Kpe8-f8

10. Cg5-h6x

№ 24

1.e2-e4 e7-e5

2.Kg1-f3 Kb8-c6

3.d2-d4 e5:d4

4.Kf3:d4 Kg8-f6

5.Kd4:c6 b7:c6

6.Cf1-d3 d7-d5

7.e4-e5

Oqlar o'yinni 7. e4:d5 yurib davom etdirishi kerak edi, chunki uzoqqa surilgan piyada ko'pincha juda zaiflashib qoladi. Bu o'yin shuning isbotidir. Shuni ko'zda tutish kerakki, piyada surish juda mas'uliyatli yurishdir, chunki zarur bo'lganda orqaga qayta oladigan

sipoxlardan farqi bo'lgan piyada odatda pozitsiyani tuzatib bo'lmaydigan qilib o'zgartirib yuboradi.

7. ... Kf6-g4

8.0-0 Cf1-c5

Agar hozir oqlar 9. Ccl-f4 yursa, 9. ... g7-g5 10. Cf4-g3 h7-h5 11. h2-h3 h5-h4 surilib, oqlarning shox tomoniga hujum boshlanadi. Qopalar rokirovka ham qilmagan, shuning uchun ularning h8 dagi ruhi bu hujumda kup ish ko'rsata oladi.

9.h2-h3 Kg4:e5

10.Лa1-e1 Φd8-f6

11. Φd1-e2 0-0!

Ajoyib kombinatsiya!

12. Φe2:e5? ...

Bir piyadani yo'qotishga rozi bo'lish kerak edi.

12. ... Φf6:f2+

13.Kpg1-h1 Cc8:h3!!

Oqlarning farzini el dagi ruhni qo'riqlashga majbur, shuning uchun oqlar motdan qutulish uchun 14. Φh2 o'ynay olmaydi.

14.g2:h3 Φf2 -f3+!


15.Kph1- h2 Cc5-d6

Ana endi qoralarning niyati ochiq ma'lum bo'ldi—ular farzin

yutmoqchi! 16. Cc1-d2 Jla8-e8! 17.
 Φe5:d6 Φf3-f2+! 18. Kph2-h1
 Jle8:e1+ 19. Cd2:e1 Φf2:e1+. 20.
 Kph1-g2 c7: d6 dan keyin oqlar
 taslim bo'ladi.

BIR YURISHDA MOT QILING!

Quyidagi pozitsiyalarning hammasida yurishni oqlar boshlab, bir yurishda mot qiladi.




ENG ODDIY O'YIN OXIRLARI

Quyida kuchi ancha zo'r bo'lgan
 taraf raqib shohini mot qiladigan
 oddiy o'yin oxirlarini (endshipillarni)
 ko'rib o'tamiz.


Raqib shohini ko'pincha taxtaning bir
 chekkasida mot qilinadi, chunki
 bunday joylar shoh uchun torlik qiladi
 va uning chekinish yo'llarini to'sish

uchun donalar ham kamroq talab etiladi. Shu bilan birga mot pozitsiyalari shu qadar ko'p takrorlanadiki, ular "tipik" pozitsiyalar bo'lib qoladi.


47-vaziyat




48-vaziyat




49-vaziyat




50-vaziyat




51-vaziyat




52-vaziyat




53-vaziyat




54-vaziyat




55-vaziyat




56-vaziyat



57-vaziyat



58-vaziyat




47-58 vaziyatlarda bir qator tipik mot pozitsiyalari keltirilgan. Ularda har xil donalar bilan mot qilinadi.

Yuqorida keltirilgan tipik mot pozitsiyalari raqib shohini mot qilish uchun nimaga harakat qilish kerakligini aniq ko'rsatib turibdi. Dastavval, raqib shohini taxtaning bir chekkasiga, ba'zan esa (masalan, fil va ot bilan mot qilganda), uni albatta burchakka haydab borish zarur.

Bir fil yoki bir ot bilan mot qilib bo'lmasligini bilamiz (33-34 vaziyatlarga qaralsin). Endi ruh bilan mot qilishni ko'rib chiqaylik (hamma misollarni taxtada ko'rib chiqing).

59-vaziyat



Shohlar bir-biridan bir xona narida qarama-qarshi turibdi (bunday

vaziyatga “oppazitsiya” deyiladi). Oq shoh qora shohning 5-gorizantalga o'tish yo'lini to'sib qo'ygan, chunki d5, e5, f5 xonalari oq shohning zarba ostidadir. Oqlar qora shohni taxtaning chekkasiga haydash uchun 6-garizantaldan kisht beradi.

1. Jlb3-b6+ Kpe6-e7

Qora shoh bir qator orqaga chekinishga majbur bo'ladi. Endi b7 dan kisht berish foydasiz, chunki qora shoh ya'na qaytib 6-garizantalga keladi.

2. Kpe4-d5 ...

Oqlar, qora shoh d7 honasiga yursa, ya'ni oppazitsiya holatiga o'tsa, unga ya'na kisht berib, qora shohni taxtaning chekkasiga haydamoqchi.

2. Kpe7-f7

Qoralar oppazitsiya holatiga o'tishni hohlamaydi, lekin oqlar qora shohni quvib boraveradi.

3. Kpd5-e5 Kpf7-g7

4. Kpe5-f5 Kpg7-h7

5. Kpf5-g5 Kph7-g7

Yakunida, qoralar oppazitsiya holatiga o'tishga majbur bo'ladi. Endi oqlar kisht berib qora shohni taxtaning chekkasiga surib chiqaradi.

6. Jlb6-b7+ Kpg7-f8

7. Kpg5-f6

Natija yaqinlashmoqda. Endi qoralar 7. ... Kpf8-g8 yursa, oqlar

8. Jlb7-a7 yurib qora shohni oppazitsiyani egallashga majbur etadi, masalan,

8. ... Kpg8-h8 9. Kpf6-g6 Kph8-g8, va shundan keyin 10. Jla7-a8X qiladi.

7..... Kpf8-e8

Qoralar mag'lubiyatni orqaga surish niyatida shohini boshqa tamonga olib qochadi. Oqlar esa ya'na fursat poylaydigan yurish qiladi.

8. ... Kpe8-d8

9. Kpf6-e6 Kpd8-c8

10. Kpe6-d6 Kpc8-b8

11.Kpd6-c6 Kpb8-a8

12.Kpc6-b6 Kpa8-b8


13. Jlh7-h8X

Bu usul-mot qilishning eng oddiy usuli bo'lsa ham, lekin eng tez mot qilish emas, bu yerda rez mot qilishning ahamiyati ham yo'q, chunki o'yin qoidasiga muvofiqbu ahvolda qora shohni mot qilish uchun oqlarga 50 yurish beriladi.

Oqlar qanday qilib yanada tezroq mot qilishi mumkin? 4-yurishdan

keyin 60-vaziyatdagi ahvol sodir bo'lgan edi.

60-vaziyat



Albatta, bunda qoralarning oppazitsiyaga o'tishi uchun 5. Kpf5-g5 yursa ham bo'ladi. Ammo, ikkinchi tamondan, qora shohni albatta 8-gorizantalga haydashning hojati yo'q chunki u hozirning o'zidayoq taxtaning chekkasida turibdi, uni mot qilish uchun, taxtaning qaysi chekkasiga haydalsa ham baribir. Shuning uchun o'yinni quyidagicha davom qilidirish ham mumkin.

5. Jlb6-g6 ...

Endi qora shoh faqat h7 va h8 honalarida yura oladi. Oq shohni yaqinroq keltirilsa, masala hal bo'ladi.

5..... Kph7-h8

6.Kpf5-f6 Kph8-h7

7.Kpf6-f7 Kph7-h8

8. Jlg6-h6X

Nihoyat, shu 60-vaziyatdagi ahvolda o'yinni quyidagicha davom qildirish ham mumkin: 5. Jlb6-b7++

Kph7-h6 6. Jlb7-a7 (payt poylash)

Kph6-h5 7. Jla7-h7X


Yoki, 5. Jlb7+ Kph8 6. Kpg6

Kpg8 7. Jlb8X

Yoki, 5. Jlb7+ Kpg8 6. Kpf6

Kph8 7. Kpg6 Kpg8 8. Jlb8X.

61-vaziyat



Ruh bilan mot qilish yo'lini bilib olgandan keyin farzin bilan mot qilish qiyin emas. Farzin ancha zo'r bo'lganligi tufayli shohni taxtaning chekkasiga boshqa yo'llar bilan ham haydab boorish mumkin.

1. Φd2 Kpe5

2. Kpf7 Kpe4

3. Kpf6 Kpf3

4. Kpf5 Kpg3

5. Φe2 Kph3


Bunda oqlar juda hushyor bo'lishlari kerak: agar hozir ular

ehtiyotsizlik bilan 6.Φf2?? yursa, qoralar pat bo'ladi.

6. Kpf4 Kph4

7. Φg4X

62-vaziyat



Ikki ruh (yoki farzin bilan ruh) o'z shohidan yordam olmasdan ham mot qila oladi (62-vaziyatga qaralsin).

1. Jlg4+ Kpe5

2. Jlh5+ Kpf6

3. Jla4 Kpg6


4. Jlb5 Kpf6

5. Jla6+ Kpe7

6. Jlb7+ Kpd8

7. Jla8X

63-vaziyat



Ikki fil bilan mot qilish uchun raqib shohini taxyaning bir burchagiga haydab olib boorish zarur.

1. Cf3 ...

Bu yurishdan keyin, fillar a8-h1 va b8-h2 yo'llarini egallab olib, taxtani qiyasiga go'yo ikkiga bo'lib, qora shohning o'ng tomonga boradigan yo'lini kesib qo'yadilar.

1. . . . Kpd3

2. Ce5 Kpd2

3. Ce4 ...

Oqlar pozitsiyani tubdan o'zgartirib yubordilar. Endi fillar b1-h7 va a1-h8 diaganallarini ham egalladilar, demak qora shohning yuradigan joylari juda kamayib qoldi.

3..... Kpc1

Agarda oqlar 4. Kpe2?? Yursa, qoralar pat bo'lib, o'yinni durang qilmoqchi.

4. Kpe3 Kpd1

5. Cb2

Oqlar qora shohning c1 ga yurishiga to'sqinlik qiladi va uni asta-sekin h1 burchagiga hayday boshlaydi.

5..... Kpe1

6. Cc2 Kpf1

7. Kpf3 Kpg1

Qoralar 7. ... Kpe1 yursa, 8. Cc3+ beriladi. Endi oqlar qora shoh h2 va h3 orqali qochib ketmasligi uchun chora ko'radi.


8. Cf5 Kpf1
9. Cc3 Kpg1
10. Kpg3 Kpf1
11. Cd3+ Kpg1
12. Cd4+ Kph1
13. Ce4X

Fillarning keyingi yurishlari ikki ruh bilan mot qilish usulini eslatadi (63-vaziyatda); unda ruhlar gorizintal bo'yicha yurgan bo'lsalar, bunda fillar – diagonal bo'ylab harakat qiladilar.

Fil va ot bilan mot qilish ancha qiyin. Ot bilan fil o'z shoining yordamida, raqib shohini faqat bir burchakdagina mot qiladilar, shunda ham bu burchak fil hujum qila oladigan bo'lishi shart.

Odatdagicha bunda ham raqib shohini avvalo taxtaning bir chekkasiga haydab borish kerak. Donalarning siqig'i ostida raqib shohi mot bo'lmaydigan "xavf-xatarsiz" burchakka o'tib olish payidan bo'ladi.

64-vaziyat



Shunda birmuncha harakat qilganidan keyin 64-vaziyatda ko'rsatilgan pozitsiyaga erishish mumkin bo'ladi. Bunday yurish usuli uncha qiyin emas; shohni a8 burchagiga haydab borilsa bas.

1. Ch7 Kpe8

Qora shoh d7 xonasi orqali qochib ketmoqchi bo'ladi, lekin oqlar ot bilan yurib, bu yo'lni to'sadilar.

2. Ke5! Kpd8

Endi qora shoh c7-b6 xonalari orqali qochmoqchi bo'ladi. Agar qora shoh f8 ga qaytib kelganda edi, masala ancha osonroq hal bo'lar edi.

Dastavval ana shu yurishni tekshirib ko'raylik:

- 2.. ... Kpf8 3. Kd7+ Kpe8 4. Kpe6 Kpd8 5. Kpd6 Kpc8 (agar 5.. ... Kpe8 yursa, albatta 6.Cg6+ va 7.Cf7 yuriladi) 6. Kc5 Kpd8 7.Cg6 Kpc8 8.Cf7 (agar Kpd8 yursa, boyagiday Kb7+ qilinar edi) 8.. ... Kpb8 9.Ce6 Kpa8 10. Kpc7 Kpa7

Endi qora shoh faqat a7-a8 xonalarigagina yura oladi, demak oqlar mot qilishga tayyorlanadilar, masalan, 11. Cc4 Kpa7 12. Kb7 Kpa7 13.Kd6 Kpa8 14.Cd3 (payt poylash) 14.. ... Kpa7 15.Kc8+ Kpa8 16.Ce4X

3. Kpe6 Kpc7

Qora shoh xavfsiz a1 burchagiga qochmoqchi. Ammo oqlar ikki yurishda uning bu yo'lini butunlay to'sib qo'yadi. Bu endshiplning eng chigal payti!

4. Kd7! Kpc6

5. Cd3! . . .

Qoralar d5, c5, b5, b6 xonalariga yura olmaydi; qora shohning yo'li butunlay to'sildi.

5.. ... Kpb7

Agarda 5. ... Kpc7 yursa, u holda 6.Ce4 Kpc8 7.Kpd6 Kpd8 8. Cg6 Kpc8 9.Kc5 va hakazo – huddi boya aytilganday o'ynaladi.

7. Kpd6 Kpc8

8. Kc5 Kpb8

Qora shoh iskanjadan qutilib chiqa olmaydi. Agarda 7. ... Kpd8 yursa, 8.Cg6 yoki 8.Cb5ga yuriladi va 9.Cd7+ beriladi.

9. Kpd7 Kpa7

10. Kpc7 Kpa8

Hozir 2-yurishning izohida aytilgandek pozitsiya yuz berdi.

Endi mot qilishning boshqacha yo'lini ko'rsatamiz.

11. Kpb6 Kpb8

12. Ca6 Kpa8

13. Cb7+ Kpb8

14. Ka6X

Ot va fil bilan mot qilishning barcha yo'llarini yodlab olishning hozircha keragi yo'q, chunki bu usuldagi o'yin oxiri tajribada juda kam uchraydi.


DURANG HOLATLARI

Yuqorida aytib o'tilganidek, bir tarafning kuchli bo'lishiga qaramasdan, ba'zi sabablarga ko'ra, yutib bo'lmaydigan pozitsiyalar


uchraydi. Masalan, 65-66 vaziyat bunga misoldir, bu pozitsiyalarda kuchsiz tomon pat qilingan. Quyida

pat bo'lgan pozitsiyalarda ikkitasini keltiramiz.

65-vaziyat




66-vaziyat




Yurish qoralardan. Yurish qoralardan

Endi kuchsiz tamon pat bo'lmagan va hatto birmuncha erkinlikka ega bo'lgan, lekin raqib kuchli bo'lishiga qaramay, ba'zi bir sabablarga ko'ra o'yin baribir durang bo'ladigan ba'zi oddiy pozitsiyalarni ko'rib o'tamiz.

67-vaziyat



68-vaziyat



Yurish qoralardan. Yurish qoralardan.

Taxtada ikki ot va ikki shohdan boshqa dona bo'lmasa va yakka shoh o'zini to'g'ri himoya qilsa – ikki ot bilan umuman mot qilib bo'lmaydi.


67-vaziyatda oqlar ot bilan h6 dan kisht bergan. Agarda qoralar Kpg8-h8?? Yursa, Ke5-f7X bo'ladi

(Kpg8-f8!) o'ynaganda oqlar o'yinni yutolmaydi.


68- vaziyatda qora shohning yuradigan yo'li yo'q. Keying yurishda oqlar otni e5 ga yurgan edi. Agar qoralarning e7 piyodasi piyodasi bo'lmaganda edi, pat, ya'ni o'yin durang bo'lardi. Endi qoralar o'yinni yutqazadi, chunki ularda piyoda surish imkoniyati bor.

69-vaziyatdagi ahvol juda qiziq. Zo'r tarafning shohi pat bo'lgan, chunki u burchakdan chiqib keta olmaydi. Agar yurish qoralardan bo'lsa, ular

69-vaziyat



70-vaziyat



Yurish oqlardan. Yurish oqlardan.

Kpf7-f8 yuradi va oq shoh patligicha qolaveradi.


Shu pozitsiya oqlarning f5 xonasida oti bo'lganda ham (60-digramma) ular o'yinni baribir yuta olmaydi. Oqlar qanday o'ynamasin, qoralar Kpf7-f8 va Kpf8-f7 yuraveradi va oq shohni burchakdan chiqarmaydi. Oqlar Kf5-e7 yurganda

ham qoralar Kpf7-f8 o'ynay berishi kerak (lekin Kpf7:e7?? urish yaramaydi, chunki oqlar Kph8-g7 yuradi va farzinga ega bo'ladi-da, yutadi).


Ammo 70-vaziyatdagi pozitsiyada yurish qoralardan bo'lsa, ular o'yinni yutqazadi, chunki 1. ... Kpf7-f8 2. Kf5-h6 yurgandan keyin qora shoh f7 ga yurolmaydi. Endi biz shuni osongina bilib olamizki, agar qora shoh, masalan, e8 xonasida, oqlarning oti taxtaning narigi chekkasida turgan bo'lsa va qora shohni f7 yoki f8 yurish imkoniyati bo'lsa, qoralar shohni shu paytda ot turgan rangdagi xonaga yurishi zarur bo'ladi (buni kitobxonlar o'zlari qilib ko'rishlari mumkin!).

71-72- pozitsiyalarda ham ortiqcha sipohi bor tamon o'yinni yuta olmaydi.

71-vaziyat



72-vaziyat




O'yin durang

71-vaziyatda oq piyoda farzinga chiqadigan xonaning rangidagi file


mas, shuning uchun qora shohni burchakdan haydab chiqarib bo'lmaydi. Qoralarning shohini faqat pat qilish mumkin. 62-vaziyatdagi pozitsiyada ham o'yinni yutish mutlaqa mumkin emas.

Sipoh va piyoda yordami bilan o'yinni yutib bo'lmaydigan yani quyidagi misollarni keltiramiz.

73-vaziyat



74-vaziyat



73-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar Kph1-g2 Kpg2-h1 yuraveradi. Agarda qora shoh yaqinroqqa kelsa, oqlar pat bo'ladi, otni yursa-piyoda ketadi.

74-vaziyatdagi pozitsiyada ham oqlar o'zini huddi shunday qilib himoya qiladi. Qoralarning birdab-bir umidi –Ch2-g1 yurib filni qurbon qilish va oqlar Kph1:g1 urgandan keyin piyodani farzinga chiqarishdir. Ammo keyinchalik ko'ramizki, hech foyda chiqmaydi. Biz bunda juda muxim bo'lgan va amalda ko'p uchraydigan “shoh bilan piyoda

shohga qarshi” degan pozitsiyada (o‘yin ohirida) o‘tamiz.

STRATEGIYA VA TAKTIKA ASOSLARI


O‘ynovchilar o‘yinni yutishga yoki (ahvol mushkullashib qolsa) durang qilishga intilib, asta-sekin shu maqsadga erishmoq uchun xar bir yurishda har-xil manevr qilishadilar va o‘yin planlarini tuzib chiqadilar. Ana shu umumiy o‘yin planlari shaxmat strategiyasi deb, o‘sha mo‘ljallangan planni amalga oshirish usullari esa taktika deb ataladi. Strategiya nimalar qilish lozimligini, taktika esa bunga erishish uchun qanday ish qilish lozimligini aniqlab beradi. Quyidagi tarif yanada aniqroqdir: strategiya umumiy vazifa va taktika xususiy vazifadir.

Bir misolni ko‘rib chiqamiz. „Shox va ruhbilan mot qilish“ degan o‘yin oxirida (50-vaziyat) oqlar, qora shoxni taxta chekkasiga haydash kerak degan o‘yin planini amalga oshirdi.

Strategiya plani ham shundan iborat, bu — qora shoxni mot qilish uchun hal qilinishi zarur bo‘lgan umumiy vazifadir.

Qora shox taxta chekkasiga qanday qilib haydaladi? Oqlar shoxlarning oppozitsiyada turishlariga erishdi va shu paytda ruhlar bilan kisht berdi. Maqsadga erishmoq uchun tutilgan taktik yo‘l ana shunday edi, bu — umumiy vazifani bajarish imkoniyatini beradigan xususiy vazifadir.

75-vaziyat




Mana ikkinchi oson bir misol (75-vaziyatdagi pozitsiyaga qaralsin).

Yurish oqlardan, ular c6 dagi piyadani farzinga chiqargandagina yutishlari mumkin. Ravshanki, bu piyadani ot bilan qo'riqlash zarur. Ana shundan keyin ot piyadani qo'riqlash bilan band bo'ladi va a6 dagi qora piyadaning farzinga chiqib ketishiga to'sqinlik qila olmaydi: biroq buning havfi yo'q, chunki oq shox; bu piyadaning kvadrati ichida turipti. Shunday qilib, oqlarning strategik plani uch qismga bo'linadi: 1) c6 dagi piyadani ot bilan qo'riqlash, 2) qoralarning a6 dagi piyadasini shox bilan urib olish, 3) qoralarning shoxini haydash va c6 dagi piyadani farzinga chiqarish.

Bu plani qanday qilib amalga oshirish kerak?

1. Kc2-b4 yursa, katta taktik xato bo'ladi, chunki qoralar 1. ... a6 — a5 surgandan keyin o'yin durang bo'ladi. To'g'risi 1. Kc2 —d4 yurishdir, shundan keyin oqlar o' zo'yin planini bemalol amalga oshira oladi. Qopa shox d4 dagi otga, xatto hujum ham qila olmaydi, istaki c6 piyadasining kvadratidan chiqib ketadi.

76-vaziyat



Yurish qoralardan.

Bunda qoralarning strategik plani shundan iboratki, ular oqlarning e4 piyadasiga otni berib, o'yinni bizga ma'lum bo'lgan durang holatiga keltirishi kerak (71-vaziyatga qaralsin). Bu plani bajarishdagi taktik yo'l shunday bo'ladi: boshda qoralar e4 dagi piyadaning surilishiga halaqit beradi, so'ngra unga ot bilan hujum qiladi.


1. ... Ke5-d7 2. Kpf4-f5 (qoralar, 2. ... Kd7 — c5 yurib, 3. e4 — e5 surilgandan keyin Kc5 — d3 + berib, “e” dagi piyadani urmoqchi edi) 2. ... Kph8 —g7 3. Cf3 —e2 (agarda 3. Kpf5 — e6 yursa, Kd7 - c5+ va keyin Kc5: e4 uradi) 3. ... Kd7 - c5 4. e4 - e5 Kc5 - d7 5. e5 —e6 (oqlar piyadani surishga majburlar, aks holda qoralar uni ot bilan uradi) 5. ... Kd7-f8 6.e6-e7 Kpg7-f7 (oqlarning piyadasi farzinga chiqay deb turganda qoralar uni urib oladi) 7. e7:f8Φ+

Kpf7:f8. Endi oqlar qora shoxning h8 burchagiga kirib olishiga halaqit bera olmaydi, chunki 8. Kpf5 — f6 yursa, Kpf8—g8 yuradi, bordi-yu 8. Ce2 —c4 yursa, Kpf8 — g7 o'ynaladi va qoralar o'yinni durang qiladi.

Bundan murakkabroq bo'lgan quyidagi pozitsiyada (77-vaziyatda) oqlar o'z piyadalarining farzinga chiqishiga yo'l ochish uchun ruhini qoralarning fili bilan piyadasiga berish payidan bo'ladi.

1. Kpe4 —f5 Cb6-d8 2. Jlc1 - c8 Cd8 -e7 3. Jlc8 - e8 Ce7-f6 4. Jle8-d8+! Kpg7:g8 5. Kpf5:f6 Kpg8-f8 6.Kpf6:g5 Kpf8 - g7 7. Kpg5 - f5 Kp-8. Kpf5- f6. Ekdi oqlar g4 dagi piyadani suradi, uni qoralarning f7 dagi piyadasiga

77-vaziyat



urishtiradi va keyin g2 dagi piyadasiga yordamida o'yinni yutadi.

Oqlar 1.Kpe4 — f5 yurgandan keyin qoralar 1. ... Cb6— e3 ga yurib, o'zlarini himoya qilishlari ham mumkin edi. Qoralar shunday yurganda o'yin quyidagicha davom etardi: 2. Jlc1-h1 Ce3 - d2 3. Jlh1-h5 (g5 dagi piyadani urish uchun) 3. ...f7 — f6. Shundan keyin g5 punkti juda yaxshi qo'riqlandi. Endi oqlar f6 punktiga hujum qila boshlaydi. 4. Jlh5— h1 Cd2 — e3 5. Jlh1-b1 Ce3-d4 6. Jlb1-b7+ Kpg7 - f8 7.Kpf5- g6, endi qoralar oqlarning Jlb7 — f7 ga yurib, keyin Jlf7:f6 urishiga halaqit bera olmaydi va qoralarning hamma piyadasi yo'q qilinadi.

Bu misolda oqlarning strategik plani—ruhni qoralarning fili bilan piyadasiga urishtirish edi. Bunga erishish uchun esa, oqlar qopa shoxni f6 dan chetlashtirishdan iborat bo'lgan taktika yo'lini qo'llaydi.

Usta o'yinchilar hech vaqt bemani yurish qilmaydilar. Kimning strategik plani to'g'ri va uzoqni mo'ljallab tuzilgan bo'lsa, bu planning taktikasini puxta o'ylab va xatosiz tuzgan bo'lsa, o'sha tomon o'yinni yutadi. Pastroqda biz shaxmat o'yinida uchraydigan boshqa har-xil

strategik planlar va ba'zi bir tipik chiqamiz.
taktika usullari bilan tanishib

AYRIM DONALARNING HARAKATCHANLIGINI CHEKLASH

O'yinda donalarning taxtada hartomonga bemalol yura olishlarini ta'minlash juda muhimdir. Buning uchun avvalo ular harakatchan bo'lishi lozim. Agar donalarning yo'li berkitilgan bo'lsa yoki biron sababga ko'ra yuradigan yo'li oz bo'lsa, ma'lumki, ularning kuchidan to'la foydalanib bo'lmaydi.

Donalarning harakatchanligi bir qancha sabablarga, chunonchi: taxtadagi boshqa (oq va qora) donalarning qanday turishiga ham, o'z pozitsiyasining qulay yoki noqulayligiga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, dastlabki xolatda (1- vaziyatga qaralsin) fillar, farzin va ruhlarning yo'lini o'z piyadalari va donalari to'sib turibdi. Keyinchalik o'yin protsessida ham donalar bir birining yo'lini to'sib qo'yadi. Biz bilamizki, dona taxtaning chekkasida turganda ham uning harakatchanligi, ya'ni yuradigan xonalari kam bo'ladi.

Donalarning harakatchanligi cheklangan bo'lsa, ularning kuchi va o'yindagi ahamiyati ham kamayadi, shuning uchun ko'p hollarda raqib bunday harakatsiz yoki kam harakatli donalarga hujum qilishni o'ziga maqsad qilib oladi hamda bunday harakatsizlik o'yinning strategiya va taktikasiga ta'sir qiladi.

Donalarning harakatchanligi cheklanishini ko'rsatadigan bir necha misollarni taxlil qilib chiqaylik


a) Donalarning yo'lini bekitish

78-vaziyatdagi	pozitsiyada	va qora shoxning yo'lini butunlay
oqlarning o'yinnini yutish uchun		bekitish maqsadida 1. Cd4 — al!
birdan bir yo'li bor: u ham bo'lsa a2		yurishdir. Bu al dagi fil qora
dagi qora piyadaning yo'lini to'sish		piyadaning surilishiga to'siq bo'lib


qoldi. 1. ... Kpbl :al 2. Kpdl-c2!
Oqlarning shoxi cl xonasiga yurmasdan nima uchun c2 xonasiga yurgani keyinchalik ma'lum bo'ladi. Endi qoralarning shoxi burchakka qamalgan. qoralar "sutsvang"da qoldi, b7 dagi piyadani surishdan boshqa iloji yo'q 2. ...b7—b5 3.c5 — c6. Oqlar qora piyadani "yo'lda" urmaydi, albatta, chunki qoralar pat bo'ladi. 3. b5 — b4 4. c6-c7 b4-b3+ 5. Kpc2:b3 Kpal-b1 6. c7 — c8Φ a2 —a1 Φ 7. Φc8-c2X.

Agarda qoralar farzin qilmasdan 6. ... a2 — a1K + bersa, 7. Kpb3 — c3 va oqlar darrov o'yinni yutadi.

78-vaziyat



79-vaziyat




Oqlar yutadi. Oqlar yutadi.

79- vaziyatdagi pozitsiyada oqlar 1. a6 — a7 sursa, o'yinni yutqazib qo'yadi. Chunki 1. ... c2 -c1Φ+ 2. Jdl:c1 Jlb1:c1+ 3. Kp- Jlc1-c8 o'ynaydi. Lekin oqlar o'yinni ajoyib qilib yutadi: 1. Jd1-c1!! Shu bilan c2

62

dagi qora piyadani ishdan chiqaradi (oqlar c2 dagi piyadaning yo'lini to'sadi, uni "bloqirovka" qiladi). Hozir qoralar 1. ... Jlb1:c1 ursa yoki 1 b3-b2 sursa, a6 — a7 suriladi va so'ngra mot qilaman deb a7-a8Φ qilinadi.

80-vaziyat




Oqlar yutadi.

Bordi-yu qoralar 1. ... Kpa4—a3 yursa, oqlar dastlab 2. Kpc4—c3 o'ynaydi. Masalan: 2. ... Jlb1:c1 3. a6-a7 Kpa3-a2 4. a7 —a8Φ+ Kpa2 —b1 5. Φa8—a3. Endi oqlar b2 xonasida albatta mot qiladi.

80- vaziyatdagi pozitsiyada oqlar, 1. f2 — f3 surib, qora filni chekinish imkoniyatidan mahrum qilib, uning yo'lini bekitadi va keyin 2. Kpf1—gl yurib, filni urib oladi.


81-vaziyat



Oqlar yutadi.

81-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar qora ruhning yoʻlini juda ajoyib qilib bekitadi. 1. g5 — g6+ Kph7—h6 (agarda Kph7 — g8 yursa, oqlar 2. Jlg3 — h3 yuradi va qoralar oʻzini himoya qila olmaydi, masalan. 2. ... Kpg8—a8 3. Jlp3- h8+ Kpa8 - e7 4. g6 — g7 va pokazo) 2. g6 — g7 Jld8 —g8 (yoki Kph6 — h7 3. Jlg3 — h3 + va Jlh3— h8 yurib piyadaning farzinga chiqishini taʼminlaydi). 3.Ce5 — d6! Kph6 — h7 (Jlg8 : g7 ura olmaydi, chunki 4. Cd6 — f8 yurgandan keyin ruh ketadi) 4.Cd6 — f8. Endi qora ruh batamom qamalib qoldi va shu tufayli oʻyinga aralasha olmaydi. Oqlar esa, shoxini oʻyinga solib va toʻgʻri kelganda qora fil bilan e6 yoki b7 piyadasiga ruhini berib, oʻyinni yutadi. Buni taxtada oʻynab koʻrib, ishonch hosil qilish qiyin emas.

82-vaziyat




Oqlar yutadi.

Bunda oqlar farzinni qurbon qilib, qora shoxning birdan bir ochiq yoʻlini bekitadi va uni mot qiladi. 1.Φc6 — d5+ Kpg8 — h8 (agarda Kpg8 — f8 yursa, u holda darrov 2. Φd5—a7X boʻladi) 2. Kg5-f7+ Kph8-g8 3. Kf7 — h6++ (farzin va ot bilan ikkiyoqlama kisht!) 3. ... Kpg8 — h8 4. Φd5 —g8+!! JLe8:g8 (endi qora shoxning yoʻli butunlay bekitildi) 5. Kh6 —a7X. Ilgari koʻrganimizdek “yopiq” mot.

83-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar qoralarning g3 va h3 dagi farzinga chiqayotgan dahshatli piyadalariga qarshi ojizlik qiladi. Ammo

83-vaziyat



Oqlar durang qiladi.

ular oʻz shoxi atrofini bilan toʻsiq bilan oʻrab, ajoyib yoʻl topib qutuladi.

1. Cg5 - d2 h3 — h2 (yoki-) 2.Cd2-a5 h2-h1Φ (yoki-) 3. b2-b4! Oqlar oʻz-oʻzini pat qildi! Hozir

yurish qoralardan va ularning farzini bo'lsa ham, lekin o'yinni durang bilan

tugatishga majbur.

b) Yo'lni kesish


Donalarning harakatchanligini cheklashdagi bu usul raqib donasi yuradigan xonalarni zarba ostida tutishdan iboratdir.

Masalan, ko'rib o'tilgan 95-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar 1. ... b3—b2 surgandan keyin c8 dagi ruh yuradigan c1 va b8 xonalar kesilib qoladi, shuning uchun bu ruh piyadaning farzinga chiqishiga to'sqinlik qila olmaydi. Mana ikkinchi bir misol: (84-vaziyat).

Oq otnnng chekinadigan yo'li kesib qo'yilgan 1. ... Jla5 — d5 2.

Kd7-b8 JI d5-d8 keyin ot halok bo'ladi.

84-vaziyat



Bu yerda otni qamashda uning taxta chekkasida bo'lishi ham katta rolni o'ynaydi, chunki uning yuradigan yo'llari o'z-o'zidan cheklanadi.

d) Qo'riqlovchi dona

Bir dona boshqa bir donani yo bir necha donalarni yoki muhim bir xonani qo'riqlab turgan bo'lsa, ana shunda ham bu donaning harakatchanligi cheklangan bo'ladi.

Masalan, 77-vaziyatdagi pozitsiyada 1. Kpf5 Cd8 2. Jlc8 dan


keyin qoralarning fili faqat e7 yoki f6 xonalarigagina yura oladi, chunki g5 dagi piyadani qo'riqlashi kerak.

Ana shunday "qo'riqlovchi" donalar ko'pincha hujumga uchraydi; uni urib olish yoki boshqa joyga

haydash payidan bo‘linadi (85—87 vaziyatlarga qaralsin).

Qoralar ruhni c8 ga yurib, e7 dagi ruhni qo‘riqlab turgan filga hujum qildi. Filning harakatchanligi cheklangan. Agarda 1. Cc5—d6 yursa, qoralar 1. ... Jlc8—c6+ berib filni oladi; filning boshqa yuradigan yo‘li yo‘q chunki e7 dagi ruhni himoyasiz qoldirib bo‘lmaydi. Oqlarning 1. Kpa6—b6 yurishi ham foyda bermaydi,

85-vaziyat



chunki qoralar Jlc8:c5! uradi va shu bilan sipoh yutadi.


85-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar, qoralarning d8 dagi qo‘riqlovchi ruhini chetga chalg‘itib, qoralarning farzinini yutadi.

1. Jlc7-c8+ Jld8:c8

2. Φd2:d3.

86-vaziyat

87-vaziyat



Yurish oqlardan. Yurish oqlardan.


87-vaziyat “bir xil” fillarning kurashini ko‘rsatadi. 1. Kpab6-a7! Bu — qopa shoxni b8 xonasidan mahrum qqiladi; agar u, bu xonaga yursa, uni bundan siqib chiqarish mumkin bo‘lmaydi va o‘yin durang bo‘lib tugaydi. 1. ... Cc6-f3 2. Cd3-a6+ Kpc8-d8. Endi qoralarning shoxi b7 punktining himoyasidan uzoqlashtirildi. 3. Ca6—b7 Cf3 —g4. Albatta, qoralar uchun urishtirish zarardir. 4. Cb7— g2 Cg4-c8. Hozir b6—b7 surish havfi borligidan qoralar filni piyadaga qurbon qilmoqchi. Endi qoralarning fili b7 xonasini poylash bilan band bo‘ldi. Agarda uni boshqa tomonga jalb etilsa, piyada suriladi va qoralar o‘yinni yutqazadi. Shuning uchun oqlar bu qo‘riqlovchi donaga hujum qiladi: 5. Cg2—h3! yuradi. Endi oqlar bu filni chetga haydaydi yoki urishtirishga majbur qiladi, shundan keyin oqlar o‘yinni yutadi.

g) Ochmas


Ochmas qilish donaning harakatchanligini cheklashdagi juda muhim usuldir. Biz yuqorida, masalan, 32-vaziyatda, ochmas qilishni ko‘rib o‘tgan edik. 10-vaziyatdagi pozitsiyada ham, 1.Cc6:d5+ Kc7—e6 dan keyin qoralarning oti ochmas bo‘ladi. Shoxni to‘sib ochmas qilingan ot shu joyidan sira qimirlay olmaydi, shuning uchun oqlar, 2. Kpc5—d6 yurib, unga yana hujum qilishi va otni yutishi mumkin. 81-vaziyatdagi pozitsiyada ham oqlar o‘zining 3-yurishida ochmas qilish imkoniyatidan foydalanib, o‘zining hal qiluvchi manevrini—qora ruhni qamab qo‘yishni amalga oshiradi.

Kuchli taktik qurol bo‘lgan ochmas qilishni ko‘rsatuchi yana bir necha misol keltiramiz.


88-vaziyat 89-vaziyat



90-vaziyat



91-vaziyat



Bu misollarning (88 va 89) ikkovida ham g7 dagi piyada ochmas qilingan va shuning uchun bu piyada h6 xonasidagi donani ura olmaydi, binobarin, 88- vaziyatdagi pozitsiyada oqlar 1. Cf4:h6 urib piyadani yutadi, 108- vaziyatdagi pozitsiyada esa, 1. Kf5 —h6+ dan keyin qoralar farzindan ajraydi.

90- vaziyatdagi pozitsiyada oqlar f7 dagi piyadaning ochmasligidan foydalanib, 1. Φg4:g6 uradi va shu bilan bir sipoh yutadi.

91-vaziyatdagi pozitsiyada g7 dagi fil ochmas bo‘lgan. Oqlar h5— h6 suradi va harakatsiz turgan bu filni yurib oladi.

Donalarning harakatchanligini cheklash, yani donalarning yo‘lini bekitish, yo‘lini kesish, ochmas qilish va hokazolar har bir amaliy o‘yinda

uchraydi. Shaxmat qo'llanmalarida keltirilgan o'yinlarni o'ynab ko'rgan vaqtda ularni diqqat bilan o'rganish

va amaliy o'yinlarda ulardan foydalanish kerak.

JADAL YURISHLAR


O'yindagi ko'pgina yurishlar raqibga turlicha havf solish uchun qilinadi, chunonchi, kisht berish, qo'riqlanmagan donaga hujum qilish shular jumlasiga kiradi. Bular "jadal" yurishlar deb ataladi. Jadal yurishlarga javoban darrov chora ko'rish zarur bo'ladi. Shu bilan birga bunda havfdan qutulish uchun bir

necha va ba'zan esa, atigi birgina chora bo'lishi kabi hollar tez-tez uchraydi. Masalan, 88-vaziyatda 1. Cf4:h6 urgandan keyin Φ g4: g7 urib mot qilish havfi bor. Bundan qutulish uchun qoralarda birdan-bir chora bor: 1. ... g7—g6 surishdir. Shundan keyin oqlar, 2. Ch6:f8 urib, sifat yutadi.

a) Kisht

Yuqorida aytib o'tganimizdek kisht berish—jadal yurishlardan hisoblaadi. 89-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar 1. Kf5—h6+ bergandan keyin qoralar o'z-shoxini himoya qilishga majbur bo'ladi va farzinni qutqarib qolishga ulgura olmaydi.


92-vaziyat 93-vaziyat



92-vaziyatdagi pozitsiyada qoralarning f4 dagi oti ikkala ruhga bir yo'la hujum qilgan. Oqlar, bir ruhi bilan kisht (Jle2— e8+) beradi-da, keyin ikkinchi ruhini ham qutqarib olib ketadi. 93-vaziyatdagi

pozitsiyada oqlar ketma-ket kisht berib harakat qiladi va qoralarning kuchi zoʻr boʻlishiga (bir ruh ortiqligiga) qaramay ularga bu kuchlaridan foydalanishiga imkon bermaydi va oʻyinni yutadi: 1. Jlg3—h3+ Kph8—g8 2. Jlh3-h8+! Kpg8:h8 3. Φel-h4+ Kph8-g8 4. Φh4-h7X.

94-vaziyat




Oqlarning bir sipohi ortiq, lekin qoralar oq shoxga qatʼiy hujum qilib, oʻyinni yutadi:

1. ... Φd1—gl+ 2. Kpf2:gl f3-f2+ 3. Kpgl-fl Cc8-h3+ 4. Kpf1—e2 f2-f1Φ+ 5. Kpe2-e3 va qoralar f3 xonasidan farzin yoki ruh bilan mot qilmadi. Bu va bundan oldin koʻrib chiqilgan koʻpgina misollar, kishtdan toʻgʻri foydalanilsa, u juda kuchli taktik qurol ekanligini koʻrsatadi. Ammo yangi oʻrganuvchilar oʻyin planiga bogʻlamasdan va kishtning oqibatini tekshirib koʻrmasdan beʼmani,

foydasiz kisht bermasliklari kerak. Masalan, 10- vaziyatdagi pozitsiyada oqlar, bir piyada yutishga (va yoʻl-yoʻlakay kisht berishga) qiziqib, 1. Cc6 :d5+ bersa, oʻzining oʻyinni yutishini qiyinlashtiradi, holos, chunki buning natijasida qoralarga shoxni yaqinlashtirishga imkon beradi (Kpf7—e7), holbuki 1. Kpc5—b6 yursa, oʻyinni tezroq yutadi.

Oddiy kishtdan tashqari, ikki yoqlama kisht ham uchraydi. Bunday kishtga javob berish ancha qiyin boʻladi (shoxni yurish bilangina qutulish mumkin).

95-vaziyat



Bunda oqlar 1. Kd5:b6+ (yoki 1. Kd5—e7) ochib kisht bera oladi va keyin ruhni uradi, lekin hammasidan ham ikkiyoklama kisht berish yahshiroq: 1. Kd5-f6++! Kpg8-h8 2. Φe4 : h7 X.

b) Ikkiyoqlama zarba


“Baravariga hujum” ham jadal yurishga misoldir. Odatda raqibning ikki donasiga birdaniga hujum qilinadi, shuning uchun bunga “ikkiyoqlama” zarba deb nom berilgan.

Bunday ikkiyoqlama zarbalar 71, 82 va 84-vaziyatlardagi pozitsiyalarda uchragan edi.


101-vaziyatdagi singari, piyadaning bir yo‘la ikki donaga hujum qilishi “vilka” (yani ikkiga surish) deyiladi.

Diagonal va to‘g‘ri yo‘lda qavat turgan ikki donaga bir yo‘lda hujum qilinishi ham mumkin (102-104-vaziyatlar).


96-vaziyat 97-vaziyat



98-vaziyat 99-vaziyat




100-vaziyat 101-vaziyat




Ikkiyoqlama zarbani ko‘rsatadigan yana bir necha misol keltiramiz (96—101- vaziyatlar).

102 103 104



Hujumda qolgan donalarning biri shox bo‘lganda bu donalarni qo‘riqlash juda qiyin bo‘ladi. Agarda shox oldinda turgan bo‘lsa, bu donani butunlay qo‘riqlab bo‘lmaydi (105-vaziyatga qaralsin).


105-vaziyat




Oqlar (a7—a8Φ qilish havfini solib) 1. Jla8—h8! o‘ynaydi. Agarda qoralar 1. ... Jla6:a7 ursa, 2.Jlh8—h7+ dan keyin ruh yutqazadi. Ruhlar qolgan o‘yin ohirida bunday ahvol juda ko‘p uchraydi va uni esda tutish foydali bo‘ladi.

Ba’zan ochib kisht berganda (94-vaziyat) va kisht bermasdan “ochib hujum” qilganda ham ikki yoklama hujum bo‘ladi.

106-vaziyat




107-vaziyat



106-vaziyatda 1. g5: f6 dan keyin qoralarning ikki sipohiga bir yo‘la hujum qilinadi (ochib hujum qilish). 107- vaziyatda 1. f6— f7

surgandan keyin ochib kisht berish bilan birga, ruhga ham hujum qilinadi. Bazan qatorasiga bir necha marta ochib kisht beriladi va buning natijasida raqibning bir qancha donalari qirib tashlanadi.

108-vaziyat



“Tegirmon”

Oqlar quyidagicha o‘ynaydi: 1.Jle7-g7+ Kpg8-h8 2. Jlg7:d7+ Kph8-g8 3. Jld7-g7+ Kpg8—h8 4. Jlg7:c7 va hokazo.


Oqlar qoralarning farzin tomonidagi hamma piyadalarini qirib tashlaydi va pravardida b7 xonasiga kelib, b6 dagi qora otni ham urib oladi. Oq ruhning gorizontall yo‘lda bu xil takror harakatlari “tegirmon” deb ataladi, chunki qora donalarni ketma-ket “tegirmonga solib yanchiydi”.

v) Dona urish

Dona urish ham jadal yurishlar qatoriga kiradi. Raqibning donasini urgandan keyin raqib ham dona urishga harakat qiladi, aks holda uning donasi kamayadi. Shunday qilib, dona urish ko'p hollarda dona urishtirishga olib keladi.

Raqibning havf solib turgan donasi yoki biron maqsadni amalga oshirishga halaqit berayotgan donasi ana shunday urishtirish yo'li bilan yo'q qilinadi. Ammo ba'zan donalar boshqa maqsadda ham urishtiriladi. Misol uchun, quyidagi pozitsiyalarni olaylik (109— 111- vaziyatlar).


109-vaziyat 109a -vaziyat



Oqlar qora piyadalarning safini buzish, “yakkalash” va “zaiflashtirish” uchun f6 dagi otni filga urishtiradi, chunki piyadalar bir-birini “qo'riqlay olmagan” dan keyin zaif bo'lib qoladi. f7 va f6 dagi piyadalar “qavat” bo'ldi, demak ularning harakatchanligi ancha

cheklandi. Bundan tashqari, urishtirish natijasida qora shoxga farzin yoki ruhlar bilan hujum qilish uchun yo'l ochildi.

110-vaziyat 111-vaziyat



Bu misollarda dona urishtirishdan maqsad— vaqtdan foydalanish yoki yo'l ochishdir. 129-vaziyatdagi pozitsiyada g4 dagi piyada ikkita engil sipohga baravar hujum qilgan. Qoralar dona urishtirish yo'li bilan bu “vilka”dan qutuladi: 1. ... Cf5 :e4. Endi oqlar qaysi bir sipohni ursa ham qoralar ikkinchisini qutula oladi.

111-vaziyatdyagi pozitsiyada oqlar 1.Ce3:f4 uradi, bundan maqsad qoralar 1. ... e5 :f4 ursa (“e” yo'li ochiladi), 2. Ce4:h7+ berib, ikkiyoklama zarba berib farzinni yutishdir (J1el :e7).

Piyadani farzinga chiqarish ham juda keskin, jadal yurishlardan hisoblanadi.

Piyada farzinga chiqayotgani tufayli o‘yinning qizib ketganligini ko‘rsatadigan anchagina misollarni biz yuqorida keltirgan edik.

KOMBINATSIYA

Jadal yurishlar natijasida havf-xatarlar tug‘ilishini va ko‘pincha bu havf-xatarlardan birgina yo‘l bilangina qutulish mumkin ekanini ko‘rib chiqdik. Oqlar va qoralarning qatorasiga bir qancha jadal yurishlari “variant” deb ataladi. Jadal yurishlar qilinganda raqib “jadal” variailtlar qilib o‘ynashga majbur bo‘ladi. Agarda jadal variantda donalar qurbon qilinsa va o‘yinchilardan biri buning natijasida biron ustunlikka erishmoqchi bo‘lsa, bunday jadal variantlar “kombinatsiya” deb ataladi va bunda albatta qurbonlar beriladi,


natijada kombinatsiyali o‘yin qiluchining qo‘li baland bo‘ladi.

Kombinatsiya — alohida bir taktik manevr bo‘lib, undan maqsad donalarning raqib uchun noqulay turganliklaridan juda tezgina foydalanishdan iboratdir. Kombinatsiyaning asosi shundaki, ko‘p hollarda sira kutilmagan, boshda g‘alati ko‘ringan, lekin taxtadagi butun ahvolni to‘satdan “bir zarb bilan” butunlay o‘zgartirib yuboradigan yurishlar qilinadi.


Endi qiziq va chiroyli kombinatsiyalardan bir necha misollar keltiramiz.

112-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar 1. $\Phi f4:h6+!$ berib diagonal yo'lni ochadi va mot qiladi: 1 . . . g7:h6 2. Ce7-f6X.

113- vaziyatdagi pozitsiyada esa, oqlar qoralarning f7 ruhini chetga majburan chalg'itish uchun farzinni chiroyli



Ikki yurishda mot qilinadi. yurish bilan qurbon qiladi: 1. $\Phi h6-f8+!$ Jf7:f8 2. f6-f7X.




Oqlar yutadi.

114-115-vaziyatlardagi ozitsiyalarda kombinatsiya qilishdan maqsad — raqibning qo'riqchi donalarini chetlashtirish yoki yo'q qilishdir.

114-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar 1. $\text{Jb4}—b6+!$ Ja6:b6 2. a7— a8 Φ qiladi va o'yinni yutadi. 134-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar 1. $\text{Kd5}—b4+$ berib yutadi.


116-vaziyat



Oqlar yutadi.

Bu pozitsiyada oqlar h2 dagi qora piyadaning farzinga chiqishiga to'sqinlik qila olmaydi, ammo ular bu yangi farzinni ikkiyoqlama zarba beriladigan joyga jalb qiladi va uni yutib oladi: 1. $\text{Cb5}—e2!$ $\text{h2}—\text{h1}\Phi$ (aks holda oqlar 2. $\text{Ce2}—f3$ o'ynaydi) 2. $\text{Ce2}—h5+!$ $\Phi \text{h1:h5}$ 3. Ke6-g7+ va oqlar yutadi.


117-vaziyat



Oqlar yutadi.

117-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar 1. Kd6—f7+ berib ikkiyoqlama hujum qiladi va farzinni yutib oladi yoki, agar ruh otni urib 8-gorizontaldan ketib qolsa, mot qiladi (1. ... Jf8:f7 2. Φh6—d8+, va hokazo).

118-vaziyat



Oqlar yutadi.


Oqlar 1.Cf1—b5! yurish bilan ajoyib ravishda ikkiyoqlama hujum qiladi, qora farzinni b5 xonaga, yana ikki yoqlama hujum ostida qoladigan joyga olib keladi: 1. ... Φc6:b5 2. Kd5:c7+.

Har bir misolda kombinatsiya donalarning qanday turishiga asoslanganligini yaxshi tushunib oling.

Piyadani farzinga chiqarish uchun raqib donalarini noqulay ahvolga solishni ko'rsatadigan yana ikki misol keltiramiz (119—120- vaziyatlarga qaralsin).

1. Jd4-d8+ Jc8:d8 2.Jf5-f8+!! Kpe8:f8 3.c7:d8Φ+ va oqlar yutadi.
1.JJf5—f8+ Jla8:f8 yurgandan keyin oqlar o'yinni mana bunday


119-vaziyat



Oqlar yutadi.

davom etdiradilar: 2. Φh5:h7+!! Kpg8:h7 3. g7:f8K + .

120-vaziyat




Oqlar yutadi.

121 va 122- vaziyatlarda ko'rsatilgan pozitsiyalardagi kombinatsiyalar ochmasga asoslangan.


140-vaziyatdagi pozitsiyada quyidagicha o'ynalsa yutqqa olib keladi: 1. Jb4:b7! Jb8:b7 2.a5-a6.

122-pozitsiyada esa oqlar o'yinni juda g'alati yo'l bilan during qiladi: 1. Jd4-d8+ Jc7—c8 2. Jd8:c8+ Kpb8:c8

121-vaziyat 122-vaziyat




Yutuq.



Durang.

3.Cc4—a6!! Endi oqlar Ca6:b7 uradi, qoralar b7:a6 ursa ham, o'yin baribir durang bo'ladi, chunki qoralarning oq fili oqlarning shoxini piyada farzinga chiqadigan al burchagidan hayday olmaydi. Hozir b7 piyadasini surish ham mumkin emas, chunki u ochmas bo'lgan.

123-vaziyat




Yurish qoralardan.

Amaliy o'yindan olingan bu pozitsiyada qoralar 1. ... Le8-f8 o'ynadilar, oqlar esa, farzinni ochmasdan qutqazishga harakat qilib, 2. Jd6—d8 yurib ruhni ochmas qiladilar. Ammo hozir oqlarning farzini ham ochmasligicha turidbi. Qoralar bundan foydalanadilar va 2. ... Φg4— h4+! berib, kurashni o'z foydalariga hal qiladilar. Chunki oq shox chekinsa, qoralar 3. ... Φh4:f6 urib oladi.

124-vaziyatdagi pozitsiyada bir-biriga bg'langan ikki yoqlama hujumlar ketma-ket kelib turadi.

124-vaziyat




Oqlar yutadi.

1. $\Phi a5:b5!$ (oqlar farzinni sipoxga berish yo'li bilan qoralarning farzinini c7 dagi piyadaning farzinga chiqadigan xonasidan chetlashtiradi; shu bilan birga qora farzin $\Phi c6:h5$ urganidan keyin ko'p o'tmasdai ikki yoqlama zarba natijasida palok bo'ladigan xonaga kelib qoladi (ya'ni oqlar $Kd5-c7+$ beradi). 1. ... $\Phi c6:b5$ (majburiy yurish) 2. $c7-c8\Phi+$ $Kpe8-f7$ (agar $Keb-d8$ yursa, 3. $Kd5-c7+$ beriladi) 3. $\Phi c8:e6+!$ (bu yurish tezroq yutadi, chunki darhol 3. $\Phi b7+$ bersa, qoralar 3. ... $Kc7$ o'ynab javob beradi) 3. ... $Kpf7:e6$ (yoki 3. ... $Kpf7-f8$ 4. $\Phi e6-c8+$ keyin 5. $\Phi c8-b7+$) 4. $Kd5-c7+$ va oqlar yutadi.

M.I.Chigorinning o'yinlaridan birida yuz bergan ikki yoqlama zarba juda qiziq (125-vaziyat).


125-vaziyat



Oqlar yutadi.

1. $Jd6-d8+$ $Kpg8-g7$ 2. $f4-f5!$ $Cg4:f5$ 3. $\Phi c3-c5!$ Masalani hal qiladigan ikkiyoqlama zarba: yo $\Phi c5-f8X$.

126-vaziyat




Oqlar yutadi.

yoki $Kg3:f5+$ berish xavfi tug'ildi. Moskvaning 1949 yilgi chempionatida o'ynalgan bu o'yinda (126-vaziyat) oqlar, o'z fili qora otning qochish yo'lini to'sib qo'yganligidan foydalanib, dona urishtirish kombinatsiyasini qo'llaydi: $Kpg1-f2$ $e5-e4$ 2. $Kpf2-e3!$ $Kd2-f3$ (qoralar 2. . . . ed ursa ham yutqazadi, chunki oqlar 3. $Kp:d2$


uradi; qoralar hech bo'lmaganda oqlarning piyadalarini ajratib, zaiflashtirmoqchi bo'ladi), 3. g2:f3 e4:d3 4. h2-h4 h7-h6 5. f3—f4. Endi qoralarning piyadalari joyidan qimirlay olmaydi va oqlar farzinga chiqadigan “uzoqdagi” “a” piyadasi yordami bilan o'yinni yutadi. Bu piyadaning surilishi qora shohni farzin tomoniga chalg'itadi (masalan, Kpf6 6. a4), bundan foydalangan oq shoh esa, qoralarning hamma piyadalarini qirib tashlaydi.

127-vaziyat



Yutuq.

128-vaziyat




Yutuq.

127-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar juda ajoyib qilib piyoda bilan “yorib o'tadi”: 1.b5-b6!! a7:b6 2.c5-c6! b7:c6 3. a5—a6 va piyada farzinga chiqib ketadi. Yoki:(1.b5-b6 dan keyin) 1. ... c7:b6 2. a5-ab! va hakazo.

128-vaziyatdagi pozitsiyada agarda oqlar 1. Cc3:d4? urishtirsa,

qoralarning Kpd3:d4 urganidan keyin o'yinni yutqazadi. Oqlar 1.Cc3-a5!! dan keyin yorib o'tadi b6:a5 (aks holda oqlar Ca5:b6 uradi va hokazo) 2. b5-b6 a7:b6 3. a6-a7 va oqlar yutadi.

129-vaziyat




Oqlar yutadi.

129-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar, 1. ... Ke4-f6 yurib, oqlarning farziniga hujum qildi va ayni bir vaqtda e1 dan mot qilish xavfini tug'dirdi. Oqlar ikki yoqlama kishtga asoslangan kombinatsiya ishlatib, qutulish uyoqda tursin, hatto raqibni mot qilib ham qo'yadi. 1. Φd5:f7+ Kpf8:f7 2. Kc4-e5++ Kpf7—f8 3. Ke5-g6X.

Quyidagi ikki pozitsiyada oqlar, pat yoki doimiy kisht berish bilan durang kombinatsiyasini ishlatib, o'yinni yutqazishdan qutulib qoladi.


130-vaziyat



Oqlar durang qiladi.

Oqlar o'zining shoxi pat bo'ladigan qilib hamma donalarini qurbon qiladi: 1. Ch6-e3 Φ d4:e3 2. Φ h2-f2 Φ e3:f2 (agar 2. ... Φ e3-c5 yursa, oqlar 3. a4-a5+ qiladi va farzin yutadi) 3. a4-a5+ Kpb6:a5, pat.

131-vaziyat




Oqlar durang qiladi.

1. Φ b4-f8+ Kp8-a7 3. Φ f8—c5+ ! (agar qoralar 2. ... Φ g5:c5 ura pat bo'lishi uchun 2. ... b7-b6 3. Φ c5:c7+ Kpa7-a8 4. Φ c7-c8+. Endi xuddi 22-

vaziyatdagi singari doimiy kisht tufayli o'yin durang bo'ladi.

Nihoyat, o'ynalgan o'yinlardan olingan bir necha misollar keltiramiz.

132-vaziyat



Yurish qoralardan.


Bunda birinchi qarashda qoralarning ahvoli juda tangga o'xshaydi, chunki farzinni olib qochgandan keyin oqlar b7 xonasidan mot qiladi. Lekin qoralarda bundan qutulish chorasi topiladi.

1.... Jlp8— e8! 2. Φ e4-b7+ (oqlarda bundan yaxshiroq chora yo'q: agar 2. Jlb1:b4 ura, 2.... Jld8— dl+ beriladi va hokazo; bordi-yu 2. Φ e4—h7+ bersa, qoralar 2. ... Jle8-e7 o'ynab o'zini himoya qiladi, lekin 2. ... Φ b4—e7? yurish yaramaydi, chunki oqlar 3. Jlb1-b7+! beradi) 2. ... Φ b4:b7 3. Jlb1:b7+ Kpa7—a8. Endi oqlarning ixtiyorida ochib kisht berish singari kuchli qurol bor-u, lekin qoralarning ruhlari bir-birini

qo'riqlab turidbi, oqlarning 1-gorizontali esa ochilib qolganligi xavflidir, shuning uchun oqlar doimiy kisht qilib, durang bilan qanoatlanishi kerak. Jb7-b1+, Jb1-b7+

133-

vaziyat




Bu yerda oqlar quyidagicha urishtirish kombinatsiyasi yordami bilan yutadi 1. Ke2:d4 c5:d4 (1... Jb1+ Kpf2 yurgandan keyin ham ahvol o'zgarmaydi) 2. Φa7:b7+! Jb2:b7 3. Jla8:e8! Kpf7:e8 4.Cf3:c6+ Jb7-d7 5. Kpfl—e2 (oqlar temp yutadi, qoralarning ochmas ruhi baribir qochib keta olmaydi) 5. ... Kpe8—e7 6. Cc6:d7 Kpe7:d7 7.Kpe2-d3. Endi oqlar, 8. Kpd3:d4 urgandan keyin (xuddi 145- misoldagi singari) uzoqdagi chiquchi “a” piyadası borligi tufayli o'yinni yutadi.

134-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar, d4 dagi otning ochmasligidan foydalanib sifat yutmoqchi bo'ladi. 1.

Kd4-f5!! (bu yurish bilan h3 dagi filning yo'li to'siladi va mabodo qoralar 1. ... Jld8:d2 ursa, oqlar 2. Jlc1c8 yurib


134-vaziyat



Yurish oqlardan.

mot qiladi; bordi-yu qoralar 1. ... Kb3:d2 ursa, u holda oqlar 2. Kf5:g3 uradi va kuchayib ketadi) 1. ... Φg3—g5 2. Φd2 :d8 + !! (Endi oqlar qora shoxning hamma ximoyachilarini ketma-ket yo'qotadi yoki chetga chalg'itadi). 2. ... Φg5:d8 3. Jlc1-c8!! Φd8:c8 4.Cb2:g7+ Kph8-g8 5. Cg2-d5+ va oqlar navbatdagi yurishda mot qiladi.

135-vaziyat



Yurish oqlardan.

135-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar yo'llarni ochib hujum qilishga asoslangan chiroyli kombinatsiya yordami bilan qoralarning shoxini mot qiladi.

1. Ce4—h7! (o'zining farziniga yo'l ochadi; qoralar bu fil piyodani urolmaydi, chunki 1. ... K:h7 yqca, 2. Φg6X bo'ladi 1. ... c6-c5 (qoralarning shoxi mot "to'ri"ga ilingan va bo'lajak halokatni bartaraf qila olmaydi) 2. Φc2—g6+! Kf8:g6 3. h5:g6 + Cb7:hl 4. Jldl :hlX.

136-vaziyat



Yurish oqlardan.g7—g6 surilgandan keyin qoralarning rokirovka pozitsiyasi zaiflangan, bo'shashgan.

Bu piyada o'z joyida turganida f6 va h6 xonalarini raqib donalaridan qo'riqlab turar edi; endi bu xonalar zaiflashdi. Bundan tashqari, piyada g7 da turganida b2 dagi filning bostirib

kelishidan h8 xonasini bekitib turar edi. (Agarda qoralarning fili c7 da emas, balki g7 xonasida turganida edi, rokirovka pozitsiyalaridagi qora xonalar bunchalik zaif bo'lmas edi).

Oqlar qoralarning yuqorida aytilgan pozitsiyasidagi bu kamchiliklaridan foydalanib, 1. Kd4-f5! yuradi va chiroylik qilib o'yinni yutishi mumkin. Endi qoralar 1. ... Jld8:dl ura olmaydi, chunki 2. Kf5:e7X yoki 2. Kf5—h6X bo'ladi. Qoralar uchun 1. ... g6 : f5 urish ham yomon, chunki 2. Jlh4-g4+ va darrov mot. 1. ... Φe7:h4 urish juda yaxshiday ko'rinadi. Ammo bunga oqlar juda yaxshi javob beradi: 2. Φdl—h5!! Endi oqlar yo farzin yutib oladi yoki ot bilan mot qiladi. 1. ... Φe7—g5 yurib ko'rish qoladi, lekin bu holda oqlar quyidagicha o'ynaydi: Φd1-cl! f7-f6 (agar 2. ... Φg5:f5 yqca, oqlar Φc1-h6 ga keladi). Φc1:g5 f6:g5 4. Kf5-h6X.

DEBYUTDAGI VAZIFALAR

Shaxmatni yangi o'rganayotgan har bir havaskorning oldida: debyutda, yani o'yinning boshida o'yinni qanday boshlash kerak, nimaga intilish kerak, degan savol tug'iladi.

Ravshanki, eng avval donalarni chiqarish, ya'ni ularni o'yinga kiritish kerak.

O'yin boshida piyadalar donalarning yo'lini to'sib turadi va donalar o'z kuchini ko'rsata olmaydi, shuning uchun piyadalarni shunday joyga qo'yish kerakki, ular donalarga yo'l ochib bersin.

Buning uchun qaysi piyadalarni surish kerak? Ma'lumki, ko'proq donalarga yo'l ochadigan piyadalarni surish kerak. Shuning uchun ham eng ko'p qo'llaniladigan dastlabki yurishlar — 1. e2-e4 va 1. d2-d4.

Bunda: "e" piyadasining surilishi fl dagi filga va farzinga yo'l ochib beribdi, lekin 1. e2—e3 yurganda ham shunday bo'lar edi-ku, nima uchun piyada 4- gorizontalga surilishi kerak? — degan savol tug'ilishi mumkin.

Bu savolga javob berish uchun avvalo f1 dagi oq filning shu ikkala yurishda dam o'yinga qanday kiritilishini ko'rib o'tamiz.

Agar filni e2 xonasiga yursak u, f1 — a6 diagonaldan tashqari dl -d5 diagonal yo'lini ham zarba ostiga oladi, lekin bu xona bir qadar chetda bo'lib unda qoralarning hech narsasi yo'q, holbuki shaxmat o'yini — kurashdan iborat. Har-bir o'yinchi, g'alabaga intilib, raqibi uchun qiyinchiliklar tug'dirishi, uning o'z planlarini amalga oshirishiga halaqit berishi lozim. Hech qanday hujum xavfi solmagan fil raqibga nima ham zarar yetkaza olardi? Ana shuning uchun dam, e2 xonasidagi filning pozitsiyasini yetarli darajada aktiv deb bo'lmaydi.

Filning d3 xonasida turishi yomon emas, chunki u bu yerdan turib h7 xonasiga hujum qiladi; qoralar qisqa rokirovka qilgandan keyin bu xona juda nozik bo'lib qoladi. Ammo oqlar Cfl — d3 dan keyin cl dagi filni

ishga solish va al dagi ruhni o'yinga solish qiyin bo'lib qoladi.

Endi Cfl —c4 ga yurishni ko'rib chiqaylik. Fil bu xonada turib: 1) faqatgina qora shox tomonidan qo'riqlangan f7 punktiga hujum qiladi; 2) zarur bo'lib qolgan taqdirda chekinishi uchun qulay joy (b3 xonasi) bor; u, bu yerda turib, hujumini davom qildiraveradi. Agarda o'yin 1. e2—e3 e7—e5 2. Cf1—c4 tariqasida boshlangan bo'lsa edi, qoralar, 2. ... d7—d5 surib, oq filni orqaga haydar va uning diagonalini to'sib qo'yardi.

Shunday qilib, agarda e3 xonasiga surilgan piyada cl dagi qora filning yo'lini to'sib turganligini nazarga olsak 1. e2—e4 surishning ustunligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

Donalarning markazda turgani eng yaxshi axhvol deb hisoblanadi. Bu yerdagi donani zarur bo'lib qolganda taxtaning har qanday joyiga tezgina ko'chirish oson bo'ladi. Masalan, o'ynovchilardan biri zaruriyat bo'lmay turib o'z donalarini farzin tomoniga to'plagan deb faraz qiling. Demak uning shox tomoni yo butunlay qo'riqlanmagan yoki ozgina

donalar bilan qo'riqlangan va zaiflashib qolgan. Raqib bu vaziyatdan foydalanib, darrov unga zarba beradi.

Markazni egallash boshqa sabablarga ko'ra ham muximdir, donalarni hamma vaqt shunday joylashtirishga harakat qilish kerakki, ular imkoni boricha butun kuchini ishga sola olsun. Masalan, otning markazda (ya'ni e4, e5, d4, d5 xonalarida) turganida va uning taxtaning bir chekkasiga (masalan, a4 ga) kelib qolganida qanday kuchga ega bo'lishini taqoslab ko'ring. Agar birinchi vaziyatdagi ot tevarak atrofga xavf solsa va sakkizta xonani zarb ostida tutib turgan bo'lsa, ikkinchi vaziyatda uning harakatchailigi, zarb kuchi roppa-raso ikki baravar kamroq bo'ladi. Boshqa donalar ham xuddi shundaydir. Binobarin, donalarni markazdagi qulay xonalarga joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Ammo shaxmat o'yinida har-qanday planni amalga oshirishda hamma vaqt deyarlik dushmanning qarshilik ko'rsatishiga duch kelinadi. Faqat biz emas, balki; raqib tomon ham o'z

donalarini markazga joylashtirish payidan bo'ladi va raqibining markazga yaxshi joylashib olgan donalarini o'z piyada va donalari bilan haydashga harakat qiladi. Ana shuning uchun piyadalarni markazga joylashtirish va bu piyadalarni o'z donalari uchun qo'riqlaydigan hamda raqib donalarining harakatini cheklab qo'yadigan qilib joylashtirish nihoyatda muximdir. Shu sababdan markaziy xonalardan biri bo'lgan d5 xonasini darrov o'z kontroli ostiga oladigan 1. e2-e4 yurish, 1. e2 — e3 kabi bo'sh yurishga nisbatan ko'p daraja yaxshiroqdir.

Endigina o'ynay boshlagan yangi o'rganuchilar bir-ikki donasini o'yinga chiqaradi-da, ha-deb shu donalarini yuraveradi, ularning yordami bilan biron dona yutib olishga va xattoki mot qilishga urinib ko'radi, ularda bunday holni tez-tez uchratish mumkin. Albatta, bunday, sodda o'yinni raqib juda osonlik bilan rad qilib tashlaydi. Bir-ikki dona bilan o'ynayverilsa, boshqa donalar o'zlarining dastlabki joylarida qolib, ishga solinmaydi. Ma'lumki, ko'pchilik hollarda donalarni ishga

solishda dushmandan o'zib ketilgan va hujum qilinadigan joyda raqibnikiga qaraganda ko'proq donani to'plagan taqdirdagina har qanday hujum muvaffaqiyat qozonadi. Aks holda raqib hujumni osonlik bilan qaytaradi va hujum qilayotgan kam kuchlarni orqaga haydab yuboradi.

Shunday qilib, debyutda o'z oldimizga qo'yilgan asosiy vazifalar — markazni ishgol etish va raqib donalarining o'yinga chiqishi uchun to'sqinliklar yuzaga keltirish maqsadida donalarni tez o'yinga chiqarib, qulay joylarga o'rnatishdan iboratdir.

Biroq taxtada vujudga kelgan avolning aniq xususiyatlarini tushunib olmasdan turib, donalarni o'ylamay ishga solish yaramaydi.

Xech bir debyutda shablon, asossiz variantlarni qo'llanmaslik shu bilan birga, albatta eng yaxshi bo'lmasa ham, har-holda tuzuk natijalarga erishmoq lozim degan M.I.Chigorinning ko'rsatmalarini doim esda tutish kerak.

Biz 14 ta qisqa o'yinlarni ko'rib chivdiq har bir yangi o'rganadigan shaxmatchi o'ynovchilardan biri

passiv yoki yengiltaklik bilan o'ynagani tufayli ikkinchi taraf o'z o'yin planlarini qanday amalga oshirganini bu misollardan amalda ko'rishi mumkin. Debyutni qanday rivojlantirish kerakligini ko'rsatadigan umumiy prinsiplarni puxtaroq tushunib olish uchun yana bir qancha misollar keltiramiz. Taraflardan biri debyutda donalarni

o'yinga chiqarishdagi asosiy prinsiplarni qo'pol ravishda buzganligini ko'rsatadigan o'yinlar, yangi o'rganayotganlarga ayniqsa na'munalidir. Qoidalar qo'pol ravishda buzilgan bunday hollarda shu xatodan darrov foydalanib qolish imkoniyati tug'iladi.

ASOSIY DEBYUT VARIANTLARI

O'yinda bexisob ko'p debyutlar bo'lib, shaxmat adabiyotida bo'larning ma'lum nomlari bor.

Debyutlarning ba'zilari dastlab qaysi mamlakatda qo'llanilgan yoki taxlil qilingan bo'lsa, o'sha mamlakatning nomi bilan, boshqa birlari o'yinga kirishib o'yin harakatini belgilaydigan donaning nomi bilan yoki yangi debyut sistemasini ishlab chiqish bilan shug'ullangan shaxmatchining nomi bilan yuritiladi. Ba'zi bir debyutlar "gambit" deb ataladi (gambit —aksari hollarda debyutda o'z pozitsiyasini

yaxshilash uchun piyada qurbon qilishdir).

Shuni ham aytish kerakki ba'zi bir debyutlar yuz yillar davomida notug'ri nomlar bilan atalgani ma'lum bo'ldi. Ular tuzatishga muxtojdir.

Hozirgi zamon nazariyasi barcha debyutlarni uch gruppaga ajratadi: 1) ochiq debyutlar, 2) yarim ochiq debyutlar, 3) yopiq debyutlar. Ana shularni qisqacha ko'rib chiqamiz.

1. OCHIQ DEBYUTLAR

Oqlarning 1. e2-e4 surishiga qoralarning 1. ... e7—e5 javobi bilan boshlangan hamma o‘yinlar ochiq debyutlar deb ataladi,

Bunday yurishlar bilan boshlangan debyutlarda donalar tez

o‘yinga aralashadi, demak tez orada taxtaning markazida va so‘ngra shoh tomonida kurash boshlanadi.

Ruscha o‘yin

1. e2-e4 e7-e5
2. Kgl-f3 Kg8-f6

o‘z donalarini tez o‘yinga chiqara oladilar.

6. Cf1-d3 ...


Oqlar e5 piyadasiga hujum qilsa, qoralar e4 piyadasiga hujum qiladi.

3. Kf3:e5 d7-d6

Oldin shunday yurib qo‘yish zarurdir. Agar 3. ... K:e4 ursa, oqlar 4. Φ e2 bilan javob qaytarar edi va e4 dagi ot chekingandan keyin qoralar farzin yutqazadi (4. ... Kf6?? 5. Ke6+). Oqlar 4. Φ e2 yurgandan keyin qoralar, ochmasdan foydalanib, 4. Φ e7 5. Φ :e4 d6 yurishga majbur bo‘lardi, ammo 6. d4 f6 7. Kc3 de 8. Kd5 Φ d6 9. de fe 10. Cf4 Kd7 11. 0-0 dan keyin oqlar zo‘r pozitsiyaga ega bo‘lar edi.

4. Ke5-f3 Kf6:e4
5. d2-d4 d6-d5

Endi qoralarning niyati ayon bo‘ldi: otni yaxshi pozitsiyaga joylab,



A

6. ... Cf8-e7
7. 0-0 0-0
8. Jlf1-e1 ...

Endi qoralar o‘z otini 8. ... f5 surib yoki 8. ... Cf5 yurib qo‘riqlashi mumkin. Biroq bulardan qaysi biri surilsa ham, oqlarning 9. c4 surishi juda kuchli o‘yin ekanligini tajriba ko‘rsatadi; oqlar qoralarning 9. ... c6 10. cd cd 11. Φ b3 yurishidan keyin oq

farzin aktiv pozitsiyani egallab “b” yo‘lidan ham, a2-a8 diagonalidan xavf solib turadi.

Shuning uchun qoralarning quyidagicha o‘ynashi hammadan yaxshiroqdir:

- 8. ... Ke4-f6
- 9. Cc1- g5 Cc8-g4
- 10. Kbl-d2 Kb8-d7

Endi qoralarniig pozitsiyasi bir qadar tangroq bo‘lsa ham, lekin ancha mustahkamdir.

B

- 6. ... Kb8-c6
- 7.0-0 Cf8-e7

Qoralar “e” yo‘lini berkitishi kerak, aks holda oqlar Jle1 yurib ochmas qiladi.

- 8. c2-c4 ...

Bunday pozitsiyalarda ko‘p qo‘llaniladigan yurish. Qoralarning d5 piyadasini e4 dagi otni qo‘riqlab turadi, shuning uchun, oqlar bu holni bartaraf qilsa, qoralarning butun markazini xavf ostida qoldiradi.

- 8. ... Cc8-g4
- 9.c4:d5 ...

Agarda oqlar 9. Jle1 yurganda edi, ikkala taraf uchun ham juda chigal, xavf-xatarli o‘yin yuz berardi.

Bu holda oralar uchun eng yaxshisi —9. ... Kf6 dir.

- 9. ... Φd8:d5
- 10.Kb1-c3 Ke4:c3
- 11.d2:c3 0-0

Endi o‘yin taxminan baravar. Oqlar o‘z piyadalarini markazga mustahkam joylashtirib qo‘ydi, lekin qoralar o‘z donalarini o‘yinga chiqarib bo‘ldi va oqlarning f3 dagi otini ochmas qilib turibdi.

Agar oqlar 1. e4 e5 2. Kf3 Kf6 dan keyin e5 piyadasini darrov urmasa, ularning ixtiyorida yana bir necha yo‘llari ham bor, masalan:

- 3. d2-d4 ...

Oq donalarga yo‘llar ochib beradigan bu yurishga javoban qoralar juda extiyot bo‘lib o‘ynashi lozim.

- 3. ... e4:d5
- 4. e4-e5 Kf6-e4

Ammo 4. ... Kg4? yurish bush, chunki 5. h3 surilgapdan keyin otning chekinadigan yaxshi joyi yo‘q. Agar 4. ... Kd5 yursa, 5. Φ:d4 uradi va

sqoralar otni qochish uchun yana temp yo'qotadi.

5. Φ d1:d4 d7-d5

Albatta shunday surish kerak. Endi qoralar ham o'z fillari uchun diagonal ochdi.

6. e5:d6 ...

6. ... Cc5 yurish xavfi bor edi, farzin chekingandan keyin f2 dagi piyada qo'riqsiz qoladi.

6. ... Ke4: d6

7. Cc1-g5 Kb8-c6

Qoralar o'z farziniga bo'lgan hujumga qarshi hujum qilib, yo'l-yo'lakay donani ham o'yinga chiqaradi. 8.C:d8 K:d4 o'ynash quruq urishtirish bo'ladi.

8. Φ d4-e3+ Cf8-e7

Qoralarining o'yini ham yomon emas.

Umuman olganda qoralar ruscha o'yinni bemalol qo'llashi mumkin, lekin shunda ham ehtiyot bo'lib o'ynash kerak.

Italyancha o'yin

1.e2-e4 e7-e5

2. Kgl-f3 Kb8-c6

3.Ca1-c4

Oqlarning bu yurishdan maqsadi faqatgina shox tomonidan qo'riqlangan f7 punktiga ko'z tikishdir.

3. ... Cf8-c5

4. c2-c3

Oqlarr, d2 — d4 surib butun markazni o'z ixtiyoriga olishga intiladi. Ammo 4. d3 surgan taqdirda o'yin ohista davom qiladi, masalan, 4. ... Kf6 5. Kc3 d6 6. Ce3 Cb6 va hokazo.

4. ... Kg8-b6

Aktiv va maqsadga muvofiq o'yin. Qorlar, e4 dagi piyadaga hujum qilish bilan birga, rokirovkani ham tayyorlamoqda.

5. d2-d4 e5:d4

5. ... Cb6 yurilsa, xato bo'lar edi, chunki 6. de K:e4 7. Φ d5 xorib, birvarakayiga f7 va e4 ga hujum qilardi.

6.c3:d4 Cc5-b4+

Agarda 6. ... Cb6 yursa, 7. d5 Ke7 (7. ... Ka5 8. Cd3 va b2-b4 surilish xavfi tug'iladi) 8. e5 Kg4 dan keyin oqlar, . 9. d6! surib, qattiq hujumga kirisha olardi.Bu holda 9. ... K:f2 yoki 9. . . . C:f2+ urish qoralar

uchun yaxshi emas va oqlar buni darrov rad qila olardi.


7. Kb1-c3 ...

Oqlar o'z donalarini tez o'yinga chiqarish uchun markazdagi piyadasini qurbon qiladi.

Agar 7. Cd2 C:d2+ 8. Kb:d2 tariqasida o'ynalsa, qoralar, piyadalardan birini urishtirib, oqlarining markazini zaiflashtirishga ulgiradi, chunki donalari qulay pozitsiyalarga joylasha oladi.

7. ... Kf6:e4

8. 0-0 ...



A

8. ... Ke4:c3

9. b2:c3 Cb4:c3

10. Φd1-b3 d7-d6

Oqlar ikki yoqlama (f7 va c3 punktlariga) hujum qilgani tufayli qoralar o'yinni keskinlashtirishga majbur.

O'ynovchini qiziqtiradigan 10. ... C:a1 urish yaxshi emas, chunki 11.C

:f7+ Kpf8 12.Cg5 Ke7 (12. ... K:d4 ursa, 13. Φa3+ va qoralarning farzini ketadi) 13. Ke5 C:d4 14. Cg6 d5 15. Φf3+ Cf5 16. C:f5 C:e5 17. Ce6+ va qoralar tor-mor qilinadi.

11.Cc4:d5 0-0

10. ... d5 yurishdan maqsad ham shu edi. Endi c3 dagi fil d5 ga hujum qilish bilan himoya qilingan desa bo'ladi.

12.Cd5:f7+ Kpg8-h8

12. ... Jf:f7 ursa, oqlar uchun 13. Kg5 yurish yaxshidir.

13. Φb3:c3 Jf8:f7

14. Φc3-b3

Oqlarning pozitsiyasi aktivlashdi.

B

8. ... Cb4:c3

Bu yurish 8. ... K:c3 dan ko'ra yaxshiroqdir.

9. d4-d5 ...

Analizlar shuni ko'rsatadiki, qora donalardan biriga qilingan bu yangi hujum — o'yinni eng kuchli davom etdirishdir.

9. ... Cc3-f6

Agar 9. ... Ke5 yursa, oqlar, 10. bc K:c4 11. Φd4 yurib birdaniga ikkala otga va g7 punktiga hujum qiladi.

Qoralar uchun hammadan ko'ra 11. ... f5 yurish tuzukroq va 12. $\Phi:c4$ d6 13. Kd4 dan keyin oqlarning o'yini yaxshi bo'ladi. Qoralarning ortiq bir sipoxni saqlab qolaman deb o'ynashi—juda xatarli bo'lar edi (11. ... Kcd6 12. $\Phi:g7$ $\Phi f6$ 13. $\Phi:f6$ K:f6 14. $\text{Jle}1+$ (bu variantni o'zingiz taxlil qilib chiqing).

10. $\text{Jlf}1-e1$ Kc6-e7
 11. $\text{Jle}1:e4$ d7-d6
 12. $\text{Cc}1-g5$ Cf6:g5
 13. $\text{Kf}3:g5$ 0-0
 14. $\text{Kg}5-h7$...

Qoralar planli ravishda himoya qilish natijasida asosiy xavf-xatarlarni bartaraf qildi va Cf5 yurib, aktiv pozitsiyaga ega bo'lishga intilmoqda. Otni qurbon qilish durangdan boshqa natija bermaydi.

14. ... Kpg8:h7
 15. $\Phi d1-h5+$ Kph7-g8
 16. $\text{Jle}4-h4$ f7-f5
 17. $\Phi h5-h7+$ Kpg8-f7
 18. $\text{Jlh}8$ $\text{Jlg}8$ 19. $\text{Jle}1$ $\Phi f8$
 20. $\text{Cb}5$ $\text{Jlh}8$ 21. $\Phi:h8$ gh 22. $\Phi h7+$ Kpf6 23. $\text{Jl:e}7$ $\Phi:e7$ 24. $\Phi:h6$ + va oqlar doimiy kisht beraveradi.

Evans gambiti

1. $e2-e4$ e7-e5
 2. $\text{Kgl-f}3$ Kb8-c6
 3. $\text{Cfl-c}4$ Cf8-c5
 4. $b2-b4$...

Oqlar bu yurish bilan “gambit” taklif etadi, ya'ni donalarni o'yinga solish uchun piyada qurbon qiladi.

O'yin nazariyasiga muvofiq, gambitga qarshi eng yaxshi himoya ! qilish usuli—qurbon qilingan piyadani olib turib, keyinchalik payti kelganda bu piyadani qaytib berish bilan o'z donalarini ko'proq ishga solishga erishishdir.

Evans gambitini M.I.Chigorin juda yaxshi o'ynar edi. U, mana shu keskinlashgan o'yinda bir necha marta ajoyib g'alabalar qozongan edi.

4. ... Cc5:b4
 5. $c2-c3$ Cb4-a5

Agar 5. ... Cc5 yursa, oqlar 5. d4 suradi va "markazni egallab oladi. Qoralarning 5. ... Ce7 yurishi o'zi uchun yaxshi emas, chunki 6. $\Phi b3$ Kh6 7. d4 dan keyin h6 dagi otga hujum qilinadi.

6. 0-0 ...

Bunda 6. d4 d6 7. 0—0 Cb6 ham o'ynash mumkin va o'sha 6. 0-0 qilishdagi singari variantlar yuz beradi.

6. ... d7-d6
7. d2-d4 Ca5-b6

Yaxshi yurish. Endi oqlar: 8. de de 9. Φ :d8+ K:d8 10. K:e5 urib, qurbon berilgan piyadani qaytib olishi mumkin, lekin 10. ... Ce6 dan keyin qoralarning pozitsiyasi mustaxkam bo'ladi.

Ikki ot himoyasi


1.e2-e4 e7-e5
2.Kgl-f3 Kb8-c6
3.Cfl-c4 Kg8-f6

Bu himoyada qoralar bir piyada qurbon qilishga manjbur bo'ladi, lekin buning evaziga hujum qiladigan aktiv o'yinga ega bo'ladi.

4.Kf3-g5 d7-d5

Qoralar f7 punktini boshqacha qo'riqlay olmaydi.

5. e4: d5 ...



5. ... Kc6-a5

O'yingning muhim payti. Agar qoralar buning o'rniga 5. ... K:d5 ursa, oqlar 6.K:f7 Kp:f7 7. Φ f3+ Kpe6 (boshqacha chekinganda

oqlar d5 dagi otni uradi va shu bilan bir piyada yutgan bo'ladi).

8.Kc3 Kce7 (8. ... Kcb4 yaxshi emas, chunki oqlar 9. Φ e4 o'ynagandan keyin 10. a3 surib b4 dagi otni haydaydi) 9. Φ e4 c6 10. d4 Φ d6 11. f4. Oqlarda bir sipoh kam, lekin ular qattiq hujum qilayapti.

6.Cc4-b5+ c7-c6

7. d5:c6 b7:c6

8. Cb5-e2 h7-h6

9.Kg5-f3 e5-e4

Qoralar oq donalarga hujum qilish yo'li bilan o'z donalarini ishga soladi. Bu variantni M.I.Chigorin juda usta o'ynar edi.

10. Kf3-e5 Φ b8-c5

11. f2-f4 Cf8-d6

12. d2-d4 e4:d3

13.Ke5:d3 c6-c5

Bu juda muhim yurish, chunki qoralar, c5-c4 surib, yana hujum qilmoqchi.

14. 0-0 0-0

Qoralarining ruhi ochiq yo'lni egalladi va endi oqlar b2 punktini qo'riqlash kerakligini unutmasligi lozim. Keyin qoralar Jlf8 o'ynaydi, so'ngra c5-c4 suradi va qattiq xavf soladi. Qoralarining pozitsiyasi yaxshi va turnirlar tajribasi qoralarda umid zo'rligini tasdiqlaydi.


1. e4 e5 2. Kf3 Kc6 3. Cc4 Kf6 day keyin o'yin quyidagicha davom etishi ham mumkin.

4. d2-d4 ...

Oqlar, piyada berib bo'lsa ham, hech narsaga qaramay, tezroq donalarni o'yinga chiqarib, o'yinni ochib yuborish payidan bo'ladi.

4.. ... e5:d4

5. 0-0 ...



A

5. ... Kf6:e4

6. Jlf1-e1 d7-d5

Birinchi qarashda qoralar markazda mahkam joylashib olib, piyada ham yutganga o'xshab ko'rinadi.

Ammo oqlarning ixtiyorida quyidagicha qiziq manevr bor:

7.Cc4:d5 Φd8:d5

8.Kb1-c3 ...

Oqlar, "e" bilan "d" yo'llaridagi ochmasdan foydalanib, piyadani qaytib olish bilan birga, yana bir qancha xavf ham tug'diradi.

8. ... Φd5-a5

9. Kc3:e4 Cc8-e6

Oqlarning ochib kisht berishining oldini olish zarur.

10. Ke4-g5 ...

Yana "e" yo'lida ochmas qilindi, ammo qoralar vaqtni qo'ldan bermasdan, darrov rokirovka qiladi va oqlarning hujumini qaytaradi.

10. ... 0-0-0

11.Kg5:e6 f7:e6

12.Jle1:e6 Φa5-d5

13.Φd1-e2 h7-h6

Taraflarning o'yini taxminan baravar.

B

5. ... Cf8-c5

d4 dagi piyadani saqlab qolish niyatida bu sistema bo'yicha o'ynalganda qoralar uzoq va kuchli hujum ostida qoladi.

6. e4-e5 d7-d5

6. ... Kg4 7. Cf4 d6 8. ed C:d6 9. Jle1+ Kpf8 dan keyin qoralar rokirovkadan mahrum bo'ladi va ahvoli ham og'irligicha qolaveradi.

6. ... Ke4 yursa, undan ham battar, chunki oqlar 7. Fe2 o'ynaydi.

7.e5:f6 d5:c4

8.Jlf1-e1+ Cc8-e6

9.Kf3-g5 Fd8-d5

1.e2-e4 e7-e5

2.Kgl-f3 Kb8-c8

3.Cfl-b5 ...

Bu eng ko'p qo'llaniladigan debyut bo'lib, uning yaxshi natijalar berishi isbot qilingan. Oqlar darrov markazdagi e5 piyadasiga hujum qila boshlaydi.

3. ... d7—d6

Bunga Steynits himoyasi deb aytiladi.

4. 0-0 Kg8-f6

5.d2-d4 Cc8-d7

Agar qoralar d4 piyadsini ursa, demak ular markazni boy berib

Agar 9. ... Ff6 ursa, 10. K:e6 fe yuriladi va 11. Fp5+ tufayli qoralar sipoh yutqazadi.

10. Kb1-c3 Fd5-f5

11. Kc3-e4 0-0-0

12. Kg5:e6 f7:e6

13.g2-g4 Ff5-e5

14.f6:g7 Jlh7-g8

15.Cc1-h6 d4-d3


16.c2-c3

Turnirlar tajribasi oqlarning qo'li baland ekanligini isbotlaydi, chunki ularning g7 dagi piyadasi juda kuchlidir.

Ispancha o'yin

qo'ygan bo'ladi: 5. ... ed 6. K:d4 Cd7 7. C:c6 be 8. Fb3 dan keyin oqlar yaxshi o'yinga ega bo'lar edi. Bordi-yu, 8. ... Ce7 yursa, oqlar 9. e5 de 10. K:c6 uradi va katta xavf soladi, mabodo qoralar 8. ... c5 sursa, oqlar 9. Kf5 yurib javob beradi va agar 9. ... Cc6 yursa, Kc3 yurib, oqlar yana yaxshi pozitsiyaga ega bo'ladi.

6. Kb1-c3 Cf8-e7



7. Jf1-e1 ...

Bu yurish qoralarni markazdan voz kechishga majbur qiladi, chunki hozir oqlar e5 dagi piyadani olish xavfini solmoqda masalan, agar 7. ... 0—0? qilsa, u holda 8. C:c6 C:c6 9. De de 10. Φ:d8 Jla:d8 (Jlf:d8 dan ham foyda yuq) 11. K:e5 C:e4 12. K:e4 K:e4 13. Kd3 f5 14. f3 Cc5+ 15. K:c5 (agar 10. ... Jlf:d8 urganda edi, oqlar, 15. Kpfl yurib, o'yinni yutardi) 15. ... K:c5 16. Cg5 Jld5 17. Ce7 Jle8 18. c4 va oqlar sifat yutadi.

7. ... e5:d4

8. Kf3:d4 0-0

Oqlarning o'yini erkin, markazda mustahkam tayanch punktlari ham bor. Ammo qoralarning mushkulini oson qiladigan hol shuki, uning pozitsiyasida ham xech qanday zaif, bo'shashgan joyi yo'q.

Bu debyutda 1. e4 e5 2. Kf3 Kc6

3. Cb5 yurishlaridan keyin kup vaqtda quyidagicha ham o'ynaladi:

3. ... a7-a6


Bu yurishdan maqsad shundan iboratki, b5 dagi filni orqaga xaydab, o'z donalarini qulay qilib joylashtirish va farzin tomonida aktivlik ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'linadi.

4.Cb5-a4 ...

c4 xonasiga chekishsh italyancha o'yinga olib keladi va qoralar bir temp oldinda bo'ladi. dc dan keyin c6 da urishtirish natijasida piyada yutilmaydi, chunki, 5. K:e5 dan keyin qoralar 5. ... Φd4 o'ynab, bir yo'la otga va e4 dagi piyadaga hujum qiladi.

4. ... Kg8-f6

5. 0-0 ...



A

4. ... Cf8—17

5. Agar 5. ... Cc5 yursa, oqlar, 16. c3 surgandan keyin d2-d4 surib, butun markazni egallash xavfini tug'diradi.

6. Jla1-e1 ...

Hozirdanoq 6. d2—d4? surish yaramaydi, chunki 6. ... ed 7. K:d4? K:d4 8. Φ:d4 b5! 9. Cb3 c5! va oq farzin chekingandan keyin qoralar, c5-c4 surib, oqlarning b3 dagi filini qamab, yutib oladi.

6. ... b7-b5

Piyadaning bu surilishi qoralarning butup debyut sistemasining tarkibiy sismi bo'lib, e5 dagi piyadaga qilin-gan hujumni rad etadi.

7. Ca4-b3 d7—d6

8. c2-c3 ...

Eng kuchli o'yin shu bo'lib, bu hujum uchun zarur bo'lgan oq filni saqlab qolishi bilan birga d2-d4 dan keyin piyadalarining markazni egallashini ham tayyorlaydi.

8. Kc6-a5

9. Cb3-c2 c7-c5

Mudofaaning eng yaxshi sistemasi hisobilangan bu o'yin usulini M.I.Chigorin ishlab chiqqan edi.

10. d2-d4 ...

Agar hozir qoralar d4 xonasidagi piyadani urib olsa, oqlar markazda ustun bo'lib oladi va hamma donalarini tez o'yinga chiqara oladi.

Ammo bu chigorincha himoyaning mohiyati shundaki, qoralar, o'z donalarini qulay joylashtirib, shu keskin xolatda markazni tutib tura oladi.

10. ... Φd8-c7

Yuz bergan bu vaziyat turnir o'yinlarda sonu sanoqsiz marta uchraydi. Tajriba qoralarning o'yini mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Ular 0—0, Cc8-g4, keyin Jla8 va JIf8 o'ynash yo'li bilan donalarini ishga sola oladi. Oqlarning bu mustahkam qal'ani yorib o'tishi oson emas. Ular shox tomonidagi hujumini kuchaytiradi, b1 dagi otni d2 ga yuradi, so'ngra f1 ga yuradi va h2-h3, g2-g4 dan keyin otni f5 xonasiga suradi. Har ikki tarafga ham yutish imkonini beradigan maroqli o'yin boshlanib ketadi.

B

5. ... Kf6:e4

6. d2-d4 ...

Bunday pozitsiyalarga xos bo'lgan yurishdir. Qoralar rokirovka

qilmaguncha “e” yo‘lini ochishda ehtiyot bo‘lishlari kerak chunki donalarning ochmas bo‘lib qolishi ehtimol. Masalan, 6. ... ed ura, 7. Jle1 yuradi va d5 8. K:d4 dan keyin oqlar 9. K:c6 urib yoki 9. f3 surib xavf solishi mumkin.

6. ... b7-b5

7. Ca4-b3 d7-d5

Qoralar, g’animat vaqtdan foydalanib, donalarini o‘yinga chiqarib bo‘ladi va e4 dagi otni mustahkam qilib qo‘riqlab qo‘yadi.

8. d4:e5 Cc8-e6

9. c2-c3 ...

Bu, foydali yurish bo‘lib, undan maqsad b3 dagi filni urishtirishdan saqlab qolishdir. Bundan tashqari, ko‘pgina variantlarda markazdagi d4 xonasini kontrol ostiga olish muhimdir.

9. ... Cf8-c5

10. Kb1-d2 0-0

Qoralar o‘z donalarini xatto oqlardan oldinroq o‘yinga solib yubordilar. Ammo 11. Cc2 yurgandan keyin e4 dagi otni markazda saqlab qolish qiyin bo‘ladi va 11. ... f5 13. ef K:f6 13. Kb3 dan keyin o‘yin ikki tomon uchun ham keskin tus oladi.

Ispancha o‘yinda boshqa himoya qilish usullari ham bor. Ammo bularning hammasida ham qoralar boshda birmuncha qiyinchilikka uchraydi. Shunga ko‘ra ispancha o‘yin oqlarning uzoq vaqtgacha tayziq ko‘rsatishiga imkon berganligi tufayli bu debyut amalda juda keng qo‘llaniladi.

Boshqa xil ochiq debyutlar

Quyidagi o‘yinlar ham ochiq debyutlar qatoriga kiradi:

Markaziy debyut

1. e4 e5 2. d4. Odatda 2. ... ed 3. Φ :d4 o‘ynaladi. Bu debyutning

kamchiligi shundan iboratki, oqlar farzinni juda bevaqt o‘yinga soladi.

O'yinni 3. ... Ke6 4. Φ e3 (lekin 4. Φ c3? yurish aslo yaramaydi, chunki 4. ... Cb4 yuriladi) 4. ... Kf6 variantida davom qildirib, bunda qoralar tuzuk pozitsiyaga ega bo'ladi. Ular qisqa

rokirovka qiladi va shundan keyin, payti kelganda d7 —d5 suradi, shu bilan donalariga yo'l ochadi va markazda qulay pozitsiyani egallaydi.

Shotlandcha o'yin

1. e4 e5 2. Kf3 Kc6 3. d4 ed 4. K:d4. Agar oqlar 4. Cc4 yursa yoki donalarini tezroq o'yinga chiqarish uchun 4. c3 surib bir piyada bersa, shotlandcha gambit xosil bo'ladi. 4.K:d4 dan keyin qoralar o'yinni quyidagicha davom ettiradi: 4. ... Kf6

(endi 4. ... K:d4 yaxshi emas, chunki 5. Φ d4 dan keyin oq farzinni markazdan haydash qoralar uchun qiyin bo'ladi) va 5. Kc3 yurilsa, Cb4 yurib, rokirovka qilgandan keyin d7-d5 surish payidan bo'ladi.

Shox gambiti

1. e4 e5 2. f4. Hozir 2. ... ef 3. Kf3 yurilsa, ot gambiti bo'ladi. 3. Cc4 dan keyin esa, fil gambiti hosil bo'ladi. Agar qoralar f4 dagi piyadani urmasa, bu o'yin rad qilingai shox gambiti deyiladi.

Shox gambitidan maqsad—piyada ketishiga qaramay, darrov yo'llarni ochib, donalarni o'yinga kiritishdan iboratdir. Qoralar uchun eng yaxshi himoya usuli: oldin f4 dagi piyadani urib, keyin, payti, kelganda piyadani qaytib berish va donalarni qulay joylarga o'rnashtirishdir. Endi

bemalol chiqaraveradi, oqlar esa qurbon berilgan piyadadni qaytib olish ancha ovora bo'lishi kerak. Yoki 4.Kc3 d5! 5.ed K:d5 6.K:d5 Φ :d5 va qoralar erkin o'yinga ega bo'ladi. Fil gambitida farzin bilan h4 dan kisht berish (3. ... Φ h4+) qiziqtiradigan yurishdir. Bunda oqlar rakirovkandan mahrum bo'ladi, lekin 4.Kpf1 urib, keyin Kf3 yurish bilan qora farzinni haydaydi va qoralar harakterli hujum qila boshlaydi. Oqlar 3. Cc4 yurgandan keyin qoralar uchun eng yahshisi, 3. ... d5 4.C:d5 (4.ed ursa,

Cd6 o'ynaydi) 4. ... Kf6 o'ynashdir, endi ular donlarini osonlik bilan

o'yinga chiqarib oladilar, bunda 3. ... Kf6 4. E5 d5 o'ynash ham mumkin.

Vencha o'yin

1.e4 e5 2.Kc3. bu debyutda oqlar odatda keyinroq f2-f4 suradi, shundan keyin shoh gambitidagiga o'xshash variantlar xosil bo'ladi. Qoralar o'z donalarini qulay joylashtirishga erishmog'i lozim. Taxminiy variantlar quyidagicha: 2. ... Kf6 3. f4 d5! (3. .. ef yahshi emas, chunki 4.e5 Φ e7 5. Φ e2 o'ynaladi va qora otning

chekinishi uchun qulay joy yo'q) 4.fe K:e4. Oqlar, ochiq, "f" yo'lidan foydalanib, shoh tamoniga hujum qila boshlashi mumkin, shuning uchun qoralar ehtiyot bilan o'ynashi va o'z o'yiniga xalaqit berayotgan e5 piyadasini e6 ga surib urishtirish lozim.

Filidor himoyasi.

1.e4 e5 2.Kf3 d6. Donalarni ishga solishfagi bu qadimgi o'yin usulining kamchiligi shundan iboratki, f8 dagi qora filning yo'li shu

indayoq to'siladi. Odatda qoralarning pozitsiyasi mustahkam, lekin biroz cheklangan bo'ladi.

To'rt ot debyuti

1.e4 e5 2.Kf3 Kc6 3.Kc3 Kf6. Bu debyutda odatda o'yin tinch davom etadi. Ikkala taraf ham o'z donalarini bemalol o'yinga chiqaradi. Ammo qoralar doimo oqlarga taqlid qilib yurabermasligi lozim, chunki oqlar oldin yurgani uchun qoralarning ahvoli mushkullashuvi mumkin. Agar qoralar 3. ... Kf6 o'rniga 3. ... Cb4

yoki 3. ... Cc5 o'ynasa, uch ot debyuti hosil bo'ladi. Bu debyut qoralar uchun unchalik yahshi emas, chunki fil b4 xonasida turganda oqlar 4.Kd5 yurib hujum qilishi mumkin, fil c5 xonasida turganda esa, bunday pozitsiyada bo'ladigan oddiy kombinatsiya qo'llaniladi: 4.K:e5 K:e5 5.d4. Qoralar hatto 4. ... C:f2+

5.Kp:f2 o'ynaganda ham, 6.d4 surilgandan keyin oqlarning piyadalari kuchli markazga ega bo'ladi va qoralar oq shohning noqulay turishidan foydalana olmaydi. Agarda, qoralar 6. ... Φ f6+

7.Kpg1 Kg4 o'ynab, kombinatsiya ishlatsa, oqlar Φ d2! Yurib rad etadi va keyin h2-h3 yoki Kd5 yurib, o'yinga chiqarilgan qora donalarga hujum boshlaydi.

Inglizcha o'yin.

1.e4 e5 2.Kf3 Kc6 3. c3. Oqlar markaziy piyadalarga ega bo'lmoqchi, lekin buning natijasida donalari o'yinga chiqazilmay qoladi va b1 dagi otni c3 xonasidan mahrum qiladi.

Qoralar 3. ... d5 surgandan keyin yaxshi o'yinga ega bo'ladi. Ular 3. ... Kf6 yurganda ham o'yinni baravarlashga muvaffaq bo'ladi.

Fil debyuti

1. e4 e5 2. Cc4. Bu debyutda qoralar yaxshi yurishlar tanlash uchun ko'p imkoniyatlarga ega. Bulardan 2.

... Kf6 yoki 2. ... Kc6 eng yaxshi yurishlardan hisoblanadi.

Vengercha o'yin

1.e4 e5 2. Kf3 Kc6 3. Cc4 Ce7. e7 dagi fil yaxshi o'yin

ko'rsataolmay-i. Qoralarining o'yini juda cheklangan.

Latishcha gambit

1. e4 e5 2. Kf3 f5. Qoralar o'yinning eng boshidanoq markazni egallash va hujum qilish uchun yo'llar ochish payidan bo'ladi, ammo bunday hollarda bu — ko'proq donalari o'yinga chiqqan taraf uchun foydalidir. 3. K:e5 Φ f6 (yo'qsa Φ h5 + beradi) 4. d4 d6 5. Kc4 fe 6. Kc3 dan keyin donalarni o'yinga chiqarishda oqlar ustunlik qiladi.

YARIM OCHIQ DEBYUTLAR

Qoralar, oqlarning 1. e2-e4 surishiga javoban e7-e5 surmasdan

boshqacha o'yin qilganda bunday o'yinlarga yarim ochiq debyutlar

deyiladi. Yarim ochiq debyutlarda qoralar, markaz uchun kurashdan voz kechmaydi, albatta, lekin o'z o'yinini bopqacharoq rivojlantiradi. Dastlab

qoralar oqlarning piyadalar surib markazni egallashiga yo'l qo'yadi va keyin unga hujum qiladi.

Fransuzcha o'yin

1. e2-e4 e7-e6

Qoralar e7-e5 surishdan voz kechib d5 xonasini egallashga harakat qiladi va markazda mustaxkam pozitsiyaga ega bo'ladi. Bu debyutning organik kamchiligi shundan iboratki, c8 dagi filning yo'li bekutilgan.

2. d2-d4 d7-d5

3. Kb1-c3 ...

Ravshanchi, 3. ed urish qoralarning ahvolini qiyinlashtira olmaydi, chunki bu — c8 dagi filga yo'l ochib beradi.

3. ... Kg8-f6

Quyidagicha o'ynalganda oqlarning pozitsiyasi aktivlashadi va shox tamonida hujumga o'tadi: 3. ... de 4. K:e4 Kd7 5. Kf3 Kg8 f6 6. K:f6+ K:f6 7. Cd3.

4. Ccl-g5 Cf8-e7

5 e4-e5 Kf6-d7

Bunda 5. ... Ke4 yaxshi emas,

chunki 6. C:e7 Φ :e7 7. K:e4 Φ e2 o'ynaladi.

6. Cg5:e7 Φ d8:e7

7. Kc3-b5 Kd7-b6

8. c2-c3 a7-a6

9. Kb5-a3 c7-c5

10. f2-f4 Kb8-c6

Qoralarning vaziyati qoniqarli.

11. Kf3 yurgandan keyin ular, 11. ... cd 12 cd Φ b4+ 13. Φ d2 Ka4 va hokazo o'ynab, tuzuk pozitsiyaga ega bo'ladi.

1. e4 e6

2. d4 d5

3. e4 e5

Markazga piyadalarni mahkam joylashtirish uchun qo'llaniladigan bu qadimgi usulga qoralar qattiq qarshilik ko'rsatadi.

3. ... c7-c5

4. c2-c3 Kb8-s6

5. f2-f4? c5:d4

6. c3:d4 Φ d8-b6

7. Kgl-f3 Kg8-h6

Qoralar, Kf5 yurib, d4 dagi piyadaga hujumni kuchaytirmoqchi.

Oqlar hozirdanoq qiyinchilikka uchramoqda.

8. Cfl-d3 ...

Oqlar shundan foydalanayaptiki, qoralar d4 xonasidagi piyadani ikkinchi marta urolmaydi, chunki Cb5+ beriladi. Ammo qoralar bunga kuchli javob qaytaradi.

8. ... Cc8-d7

Endi qoralar K:d4 urmoqchi, oqlarning piyadani qo'riqlashi qiyin bo'lib qoldi. Har-holda qoralarining pozitsiyasi juda yaxshi.

Hozirgi vaqtda bu variantni qo'llanib, odatda 4. c3 va 5. f4 surmaydilar, balki 4. dc C:c5 5. Φ g4 o'ynaydilar. Bu bilan oqlar, aftidan, yetarli tayyorgarligi bo'lmay turib shox tomoniga hujum qilishga harakat etadi yoki donani o'yinga chiqarish uchun 4. Kf3 yuradi.


1. e4 e6 2. d4 d5 3. Kc3 yurishlaridan keyin, masterlar tomonidan ishlab chiqilgan quydagicha o'ynash usuli yaxshidir:

3. ... Cf8-b4

4. e4-e5 c7-c5

5. a2-a3 Cb4:c3+

6. b2:c3 ...



Bu — juda keskin pozitsiya bo'lib, unda oqlar shox tomoniga va qoralar esa, bunga qarshi farzin tomoniga hujum qilmoqchilar.

Bu pozitsiya uchun quyidagi bir necha variantlar harakterlidir:

A

6. ... Kg8-e7

7. Φ d1-g4 Ke7-f5

Agar 7. ... Kg6 yursa, oqlar 8. h4 surib hujum boshlashi mumkin. Albatta, 7. ... g6 surish yaxshi emas, chunki bundan keyin cl dagi fil qattiq xavf soladi; uning qora xonalardagi siquviga qarshi qo'yiladigan xech narsa yo'q.

8 Cfl-d3 h7-h5

9. Φ g4-h3 c5:d4

10. c3:d4 Φ d8-h4

11. Φ h3:h4

Agar 11. C:f5 ursa, qoralar Φ :d4 uradi.

11. Kf5:h4

Taraflarning o'yni taxminan baravar.

B

6. ... Φ d8-c7

7.Kg1-f3 Kb8-c6

8.Cf1-d3 c5-c4

9.Cd3-e2 Cc8-d7

10.0-0 0-0-0

11.a3-a4 ...

Oqlar a3 xonasini c1 dagi fil uchun bo'shatadi va keyinchalik qoralarning Ca4 yurib, farzin tamonini berkitib qo'yishiga qarshi chora ham ko'radi; c1 dagi filni joylashtiradigan yahshi joy bo'lmay qoladi va c2 dagi piyadani esa doim qo'riqlab turishga to'g'ri keladi.

Ammo 11.a4 surishning kamchiligini ham nazarda tutish kerak; a4 dagi

piyada zaif va vaqti kelganda qoralar uni yutib olishi mumkin.

11. ... f7-f6

Endi oqlar o'z ortiqqligini isbot qilishi oson emas.

C

6. ... c5:d4

7.c3:d4 Φ d8-c7

8.Kg1-f3 Cc8-d7

9.Cf1-d3 ...

Bunda ham 9. a4 surish kerak, aks holda qoralar yahshi pazitsiyaga ega bo'ladi.

9. ... Cd7-a4

10.0-0 Kb8-d7

11.Cc1-d2 Jla8-c8

Qoralar "c" yo'lidan qattiq hujum qila boshlaydi.

Sitsiliancha o'yin

1. e2-e4 c7-c5

Qoralar markaziy d4 punktini zarba ostiga oladi. Agar endi oqlar d2-d4 sursa, u holda c5:d4 urib, qoralar o'zi uchun "c" yo'lini ochib oladi.

2. Kgl-f3 ...

A

2. ... d7-d6

3.d2-d4 c5: d4

4.Kf3 : d4 Kg8-f6

5.Kb1-c3 g7-g6

“Drakon” deb atalgan variantdir. Qoralar filni g7 ga chiqarish bilan d4 punktini zarba ostiga oladi.

6.Cf1-e2 Cf8-g7

7.0-0 0-0

8. Cc1-e3 Kb8-c6

Qoralar debyutdagi o‘z oldida turgan vazifani qoniqarli qilib bajardi. Agar hozir oqlar c8 dagi filning yo‘lini cheklab qo‘yish maqsadida 9. h3 sursa, qoralar 9... d5 surib markazda aktiv o‘yin qila boshlashi mumkin. Bordi-yu oqlar 9. Kb3 yursa, qoralar, 9. ... Ce6 surib, sipoxlarini o‘yinga chiqarib bo‘ladi yoki 9. ... a5 surib o‘yinni davom etdiradi.

B

2. ... e7-e6


3.d2-d4 c5:d4

4.Kf3:d4 Kg8-f6

Muhim yurish. Endi oqlar 5. Kc3 yurishi kerak va bundan keyin c2-c4 surib, qoralarning d7—d5 surishiga to‘sqinlik qilish niyatida c2-c4 yurish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Agar (5. Kc3 o‘rniga) 5. Cd3 o‘ynasa, qoralarning Kc6 yurishi bunga yaxshi javob bo‘ladi, bordi-yu oqlar 5. e5 sursa, qoralar, Φ a5+ berib, bu piyadani oladi. Ammo 5. Kc3

yurilgandan keyin qoralar e4-e5 surish xavfini ko‘zda tutish lozim.

5. Kb1-c3



Bunda qoralar uchun 5. ... b4 yurish maqul ko‘rinadi, lekin bu yurish oqlarga birmuncha ustunlik beradi, masalan, 6. e5 Kd5 (qoralarning e5 va c3 xonalariga bir yo‘la hujum qilish uchun 6. ... Φ c7 yurishi mumkin emas, chunki 7. ef C:cZ + 8. be Φ :c3 + 9. Φ d2! Φ :a1 10. fg Jlg8 11. c3 Φ b1 12. Cd3 Φ b6 13. Φ h6 dan keyin qoralar og‘ir ahvolda qoladi) 7. Cd2 K:c3 8. be Ce7. Endi oqlar, bunday pozitsiyalar uchun xarakterli bo‘lgan 9. Φ g4 dan keyin aktiv o‘yinga ega bo‘ladi.

5. ... Kc6 yurgan takdirda qiziq variantlar yuz beradi. c6 dagi otni urish qoralarning markazini mustaxkamlaydi. Masalan, 6. K:c6 bc 7. e5 Kd5.

Agar 6. Ce2 yursa, qoralar bemalol 6. ... Cb4 yurishi mumkin.

Ko'pincha 6. ... d7-d6 ham o'ynashadi va keyin Ce7, a7-a6, Φc7 o'ynaladi; bu holda qoralarning o'yini birmuncha siqiroq bo'lsa ham, lekin mustahkam pozitsiyaga ega bo'ladi (41-o'yiga qaralsin).

6. Kdb5 yurgan taqdirda o'yin juda keskinlashib ketadi, masalan: 6.

... Cb4 7. Kd6++ Kpe7! (7. ... C:d6 urish yaxshi emas, chunki 8. Φ:d6 urgandan keyin qoralarning donalarni o'yinga chiqarishi qiyin bo'ladi). Hozir oqlar K:c8 ursa, qoralar uchun yaxshi bo'ladi. Bordi-yu 8. Cf4 yursa, bunga 8. ... e5 surib javob beriladi.

Boshqa xil yarim ochiq debyutlar

Quyidagilar ham yarim ochiq debyutlar qatoriga kiradi:

Karo-Kann himoyasi.

1. e4 c6. O'yin odatda 2. d4 d5 surib davom etdiriladi. Bunda ko'pincha 3. Kc3 o'ynaladi (3. e5 sursa, qoralar, fransuzcha o'yindagi singari, c6-c5 surib, oqlarning markaziy piyadasiga hujum qiladi; durust, ularning piyadasi c5 ga ikki yurishda-yoq borib yetadi, lekin buning evaziga c8 dagi filning yo'li ochiq bo'ladi va uni f5 xonasiga yura oladi, masalan:

3. e5 Cf5 4. Cd3 C:d3 5. Φ:d3 e6 va keyin c6-c5 suriladi) 3. ... de 4. K:e4 Kf6 5. K:f6+ ef va o'yin taxminan baravar.

Quyidagicha o'ynalganda ham qoralarning pozitsiyasi qoniqarli bo'ladi: 3. ed cd 4. Cd3 (agar 4. c4 sursa, 4. ... e6 5. Kc3 Kf6 o'ynaydi) 4. ... Kc6 5. c3 Kf6 6. Cf4 Cg4.

Skandinaviyacha o'yin.

1.e4 d5. Agar 2. ed dan keyin 2. ... Φ:d5 ursa, oqlar 3. Kc3 yuradi va farzinga hujum qilish bilan bir temp yutadi. Bordi-yu 2. ... Kf6 yursa, u holda eng yaxshisi 3. d4 surishdir,

endi qoralar d5 dagi piyadani nima bilan urmasin, baribir oqlar raqib donasiga hujum qiladi va donalarini o'yinga chiqarishda temp yutadi.

Alyoxin himoyasi.

1. e4 Kf6. Bu — o‘ziga xos juda murakkab himoyadir. Qoralar oqlarning markaziga hujum qilish maqsadida ularga piyadalarini markazga surish imkoniyatini beradi. Ammo bu planni amalga oshirish oson ish emas. Misol uchun xarakterli

variantlardan birini keltiramiz: 2. e5 Kd5 3. c4 Kb6 4. d4 d6 5. f4 de 6. fe Kc6 7. Ce3 (7. Kf3 yurish kuchsizroqdir, chunki qoralar Cg4 o‘ynaydi) 7. ... Cf5 8. Kc3 e6 9. Ce2 Ce7 10. Kf3 va oqlarning pozitsiyasi aktiv pozitsiyadir.

YOPIQ DEBYUTLAR

Boshda oqlar 1.e2-e4 surmay, boshqacha yurgan o‘yinlar yopiq debyutlar deb ataladi, masalan: 1. d2-d4, 1. c2-c4, 1. Kgl-f3, 1. f2-f4 (boshqa yurishlar markazga ta’sir qilmaydi).

Bunday debyutlarda o‘yin ochiq debyutlardagiga nisbatan, birmuncha sekinroq rivojlanadi, ammo markaz uchun kurash masalasi bunda ham keskin masaladir.

Farzin gambiti

1. d2-d4 d7-d5
2. c2-c4 ...

Endi 2. ... dc ursa, bunga “qabul qilingan” farzin gambiti deyiladi va agar qoralar c4 piyadasini urmasdan d5 dagi o‘z piyadasini qo‘riqlasa, bu o‘yinga “rad qilingan” farzin gambiti deyiladi.

Qoralar d5 piyadasini qo‘riqlash uchun 2. ... Kf6 o‘ynasa qoniqarsiz yurish bo‘ladi, chunki 3. cd K:d5 4.

e4 suradi, yoki 3. ... Φ:d5 ursa, 4. Kc3 yurib temp yutadi va markazni egallaydi. Shuning uchun odatda d5 piyadasini donalar bilan emas, balki 2. ... e6 yoki 2. ... c6 surib, piyada bilan qo‘riqlanadi.

Farzin gambitining ana shu ko‘rsatilgan xillari odatda mustaqil gambitlar deb hisoblanadi (bu debyutlarning har biri o‘z nomi bilan ataladi).

Qabul qilingan farzin gambiti

1. d2-d4 d7-d5

2. c2-c4 d5:c4

3. Kgl-f3

Oqlar, hech shoshilmasdan, bu otni bemalol yura oladi.

Agar 3. e3 sursa, qoralar 3. ... e5 suradi va keyin 4. de Φ :d1+ 5. Kp:d1 Ce6 o'ynash payidan bo'ladi. Qoralar gambitda olgan piyadani qo'riqlashga harakat qilsa, o'zi uchun oqibati yomon bo'ladi, masalan: 3. e3 b5? 4. a4 c6 5. ab cb 6. Φ f3 va hokazo.

3. ... Kg8-f6

4. e2-e3 e7-e6

Bunda ham 4. ... b5 surish yaxshi emas, chunki 5. a4 c6 6. ab cb 7. b3. Endi qoralarning piyadalar qatori buziladi.

5. Cf1:c4 c7-c5

6. 0-0 a7-a6

Bundan keyin qoralar: Ce7, 0—0, Kc6 va hokazo o'ynab, tuzuk pozitsiyaga ega bo'ladi.

Ortodoksal himoya


1. d2-d4 d7-d5

2. c2-c4 e7-e6

Bu bilan qoralarning pozitsiyasi mustahkam bo'ladi. 2. ... e6 yurishiing kamchiligi shundaki, c8 dagi fil ancha vaqtgacha o'yinga chiqqa olmay qoladi. Odatda o'yin quyidagicha davom qiladi:

3. Kbl-c3 Kg8-f6

4. Ccl-g5 ...



A

4. ... Cf8-e7

5. e2-e3 0-0

6. Kgl-f3 Kb8-d7

7. Λ a1-c1 ...

Endi qoralar c8 dagi filni o'yinga kiritish masalasini hal qilishi kerak. Buning uchun qoralar b7-b6 surishi mumkin, lekin, bu holda ularning

lagerida jiddiy kuchsiz punktlar paydo bo'ladi (masalan, a6, e6).

Filni o'yinga chiqarish uchun eng yaxshi yo'l quyida keltiriladi.

7. ... c7-c6

8. Cfl-d3 d5:c4

9. Cd3:c4 Kf5-d5

Bunday himoya qilish sistemasidan tashqari, 9. ... b5 10. Cd3 a6 11. 0-0 c5 12. Φe2 Cn7 variantida ham o'ynash mumkin va shunda c8 dagi fil o'yinga chiqa oladi.

10. Cg5:e7 Φd8:e7

11. 0-0 Kd5:c3

12. Jlc1:c3 e6-e5

Ana shundan keyin c8 dagi filning yo'li ochiladi. O'yin baravar.

B

4. ... Kb8-d7

5. e2-e3

5. cd ed 6. K:d5? urilsa xato bo'lar edi, chunki 6. ... K:d5 7. C:d8

Slavyancha himoya

1. d2-d4 d7-d5

2. c2-s4 c7-c6

Qoralar c8 dagi filning yo'lini ochiq qoldiradi, lekin b8 dagi otning yurishi uchun yaxshi joy bo'lgan c6 xonasi band qilinadi.

3.Kg1-f3 Kg8-f6

Cb4 + bergandan keyin qoralar bir sipox yutadi.

5. ... c7-c6

6. Kgl-f3 Φd8-a5

Hozir qoralar Ke4 va Cb4 yurmoqchi, shuning uchun oqlar ehtiyot bo'lib o'ynashi kerak (masalan, agar 7. Cd3 Ke4 8. C:e4? ursa, 8. ... de urilgandan keyin f3 dagi ot yoki g5 dagi fil ketadi).

7. Kf3-d2 Cf8-b4

8. Φdl-c2 ...

8.Φb3 yurish yaramaydi, chunki qoralar 8. ... dc uradi va bir sipoh yutadi.

8. ... d5:c4

9. Cg5:f6 Kd7:f6

10.Kd2:c4 Φa5-c7

11. a2-a3 Cb4-e7

Taraflarning o'yini taxminan baravar desa bo'ladi.

4.Kb1-c3 d5:c4



A

5. e2-e3 b7-b5

6. a2-a4 b5-b4

Albatta, 6. ... a6 xato.

7. Kc3-a2 e7-e6

Bunda 7. ... b3 yaxshi emas, chunki c4 piyadasi ketgandan keyin (buni qoralarning saqlab qolishi qiyin) b3 dagi piyada ham ketib qoladi.

8. Cfl:c4 Kb8-d7

9. 0-0 Cc8-b7

Keyin qoralar, c6-c5 surib, b7 dagi filning yo'lini ochadi va qoniqarli o'yinga ega bo'ladi.

B

5. a2-a4 ...

Shunday qilib oqlar, bundan oldingi variantda aytilgan c4 dagi

piyadani vaqtincha qo'riqlashning oldini oladi. Biroq hozir qoralar c8 dagi filni bimalol o'yinga chiqara oladi.

5. ... Cc8-f5

6. e2-e3 e7-e6

7. Cfl:c4 Cf8-b4

Agar oqlar e3-e4 surib piyadalar markazini egallay olsa, ularning pozitsiyasi juda yaxshi bo'lar edi. Shuning uchun qoralar e4 punktiga kontrollik qiladi.

8. 0-0 0-0

9. Φd1-e2 Kf6-e4

Endi qoralarning pozitsiyasi qoniqarlidir.

Farzin gambitining quyidagi variantlari dam ko'p uchraydi. Bu variantlarda qoralar oqlarning d4 piyadasiga o'zi hujum qiladi.

Tarrash himoyasi

1. d4 d5 2. c4 e6 3. Kc3 c5.

Oqlarning markazga darrov hujum boshlashi natijasida juda murakkab o'yin yuzaga keladi.

Bu o'yin sistemasining kamchiligi shundan iboratki, qoralarda "ajralgan" (ya'ni boshka

piyadalar tomonidan qo'riqlanmagan) piyada paydo bo'ladi.

Oqlar, 4. cd ed 5. Kf3 Kc6 6. g3 yurib o'yinni davom etdiradi va filni g2

xonasiga chiqarib, qoralarning d5 piyadasiga hujum qila boshlaydi.

Albin qarshi gambiti

1. d4 d5 2. c4 e5. Qoralar o'z donalarini darrov o'yinga kiritish maqsadini ko'zlab, bir piyada qurbon qiladi.

Oqlar esa, oddiy usulda o'ynab, debyutda ustunlikka ega bo'ladi: 3. de d4 4. Kf3 Kc6 5. Kbd2 (Kb3 yurib, d4

dagi piyadani urmoqchi) 5. ... Cb4 6. b3 C:d2+ 7. C:d2. Endi qurbon bergan piyada o'rniga e5 piyadasini yutib olish qoralar uchun yengil ish emas. Bundan tashqari, oqlarda uzoqdan uradigan ikki fil bo'lib, bular tezda yaxshi ish ko'rsatadi.

Boshqa xil yopiq debyutlar

Agarda oqlar, 1. d4 d5 dan keyin 2. c4 surmay, boshqacha, masalan, 2. Kf3 yursa, bu, gambit emas, balki farzin piyadalari debyuti bo'ladi. Bu debyutning qoralar uchun u qadar qiyinchiliklar tug'dirmaydigan ko'p xil variantlari bor.

Turnirlar tajribasida qoralar oqlarning 1. d4 surishiga 1. ... Kf6 javobini bergan o'yinlar ko'p

uchraydi ("xindcha" himoya debyutlari); bu—murakkab sistema bo'lib, unda qoralar, vatqincha markazni piyadalar bilan egallamasdan, markaziy xonalarga donalar bilan hujum qiladi.

Eski hind himoyasi.

1. d4 Kf6 2. c4 d6 3. KcZ g6 4. e4 Cg7. Oqlar, kuchli piyadalar markazini egallab oldi. Qoralar esa bu markazni yemirishga harakat qiladi. O'yin quyidagicha davom qildirilishi mumkin: 5. f3 0-0 6. Ce3 e5 7. Ke2 Kc6 (turnirlarda bundan ham keskinroq o'yinlar uchraydi 7. ... ed 8.

K:b4 c6 va keyin qoralar, d7-d5 surib, yorib o'tishga harakat qiladi) 8. d5 Ke7 9. Φd2 Ke8 (oqlarning markaziga hujum qilish uchun qoralar o'zining f7 piyadasiga yo'l ochadi) 10. g3 f5 11.Cg2. Oqlar rokirovka qilib, donalarini ishga solishni tugallaydi.

Gryunfeld himoyasi.

1. d4 Kf6 2. c4 g6 3. Kf3 d5. Bunday o'yin sistemasida ham qoralar oqlarning markazni piyadalar bilan egallashiga yo'l qo'uyadi va keyin unga hujum qiladi. 4. cd K:d5 5. e4

K:c3 6. bc c5. Keyinchalik qoralar, filni g7 va otni c6 xonasiga joylashtirib, d4 piyadasiga hujum qiladi.

Yangi hind himoyasi.

1. d4 Kf6 2. c4 e6 3. Kf3 b6. Qoralar, oq filni b7 xonasiga chiqarib e4 xonasiga kontrollik qiladi va oqlarning markazini kuchaytirishiga imkon bermaydi. O'yin odatda

quyidagicha davom qildiriladi: 4. g3 Cb7 5. Cg2 Ce7 6. 0-0 0-0 7. Kc3 Ke4. Qoralar qoniqarli pozitsiyani egalladi.

Nimsovich himoyasi.

1.d4 Kf6 2. c4 e6 3. Kc3 Cb4. Qoralar e4 xonasini o'z donalarining zarbasi ostiga oladi. Oqlar esa keyinchalik, baribir e2-e4 surib,markazni egallashga harakat

qiladi. 4. Φc2 d5 (eng oddiy javob shu. Agar 4. ... Kc6 o'ynasa, o'yin ancha keskinlashadi, lekin bunda ham qoralar tuzuk o'yinga ega bo'ladi, masalan: 5.Kf3 d6 6.Cd2 e5 7.d5 C:c3

8.C:c3 Ke7 9.e4 Kd7 va qoralar
mustahkam pozitsiyaga ega bo'ldi) 5.
cd ed 6.Cg5 h6 7. Ch4 c5! Endi

qoralar o'z o'yinini rivojlantirishda
qiyinchilikka uchramaydi.

Turnirlarda quyidagi yopiq turnirlar ham uchraydi:

Gollandcha o'yin.

1.d4 e6 2. c4 f5 yoki birdaniga 1.d4 f5 suriladi.

Inglizcha boshlash.

1.c4. keyin o'yin quyidagicha davom ettirilishi mumkin: 1. ... Kf6 2. Kc3 e5
3. Kf3 Kc6.

Reti debyuti: 1.Kf3 d5 va o'yin odatda 2. c4 c6 surib davom qildiriladi.
Keyin oqlar, g2-g3 surib, filni g2 xonasiga chiqaradi va shu bilan d5 xonasiga
hujumni kuchaytiradi.

Berd debyuti. 1.f4. Oqlar, keyin Kf3, b2-b3 va Cb2 o'ynab, e5 xonasiga
hujumni kuchaytiradi.

Budapesht gambit. 1.d4 Kf6 2.c4 e5. Qoralar taktik hujum qilish maqsadida
bir piyada beradi. Oqlar esa, quyidagicha o'ynab, ustunlikka ega bo'ladi. 3.de Kg4
4.e4 K:e5 5.f4 Kc6 6.Ce3.

PIYODALI ENDSHPILLAR


Ko'pchilik donalar
almashtirilgandan keyin har ikkala
tomonda ham shoh va bir nechtadan
piyoda qoladi. Bunday o'yin
ohirlarida nihoyatda aniq o'ynashni
talab qiladi. Taxtadagi donalar soni
ozaygan sari, tamonlardagi
imkoniyatlar ham kamayib boradi,
binobarin qilingan xatoni tuzatish
juda qiyinlashadi.

Uzoq davom etgan
kurashlardan keyin, o'yin o'rtalarida
tomonlardan biri bir piyoda yutib
oladi, deb faraz qilaylik. Bu ustunlik
o'yinni yutish uchun yetarli? Agar
yetarli bo'lsa, qay hollarda? Donalarni
almashtirishga va piyodali o'yin
ohiriga o'tishga intilish kerakmi? Bu
savollarga to'g'ri javob berish uchun
piyodali o'yin oxirlari haqida aniq

tasavvurga ega bo'lish lozim. Piyodali o'yin oxirlarini o'rganish, o'z navbatida, ko'p yurishli hisoblarni to'g'ri yuritishga o'rgatadi, binobarin, shaxmatchining o'yin mahoratini oshiradi. “O'yin oxirida yahshi o'ynay bilish, umuman shaxmatni o'ynay bilish demakdir” – degan edi birinchi rus shaxmat ustasi A.D.Petrov.

Bir piyoda bilan mot qilib bo'lmaydi. Demak piyodani farzinga chiqarmay (yoki rux qilmay) turib, g'alabaga erishish mumkin emas. Piyoda shohning yordamisiz va shohning yordami bilan farzinga chiqishi mumkin.

137 – vaziyat



137 – vaziyatda ko'rsatilgan pozitsiyada yurish navbati oqlardan


bo'lsa, ular yutadi, chunki qora shoh piyodaga yeta olmaydi:

1.a4-a5 Kpf6-e6 2.a5-a6 Kpe6-d6 3.a6-a7 Kpd6-c7 4.a7-a8Φ. Agar yurish navbati qoralardan bo'lsa, qora shoh piyodaga yetib, uni urib oladi. Shohning piyodaga yetib olish – olmasligini tez aniqlash uchun kvadrat qoidasidan foydalaniladi.

88 – vaziyatdagi oq piyodaning kvadrati a4-a8-e8-e4 xonalaridan iborat to'rtburchakni tashkil etadi. Kvadratni tasavvur qilish uchun avvalo uning piyoda farzinga chiqadigan tomonini, masalan, 88 – vaziyatda a4-a8 masofasini asos qilib olish kerak. Shundan keyin kvadratning chegaralarini aniqlash qiyin bo'lmaydi.

Agar raqib shohi o'zining yurishi bilan piyoda kvadratiga tusholsa, u o'sha piyodaga yetib oladi. Aks holda, piyoda farzinga chiqib ketadi.

138 – vaziyat



138-vaziyatdagi pozitsiyaga birinchi qarashda a2 dagi piyoda kvadratning burchaklari a2, a8, g8, g2 xonalaridan iborat, dekan xulosaga kelish mumkin. Shunday ekan, kvadratda turgan qora shoh, yurish navbati kimdan bo'lishidan qat'iy nazar, piyodaga yetib oladi. Ammo bunday xulosaga kelish notog'ridir. Chunki a2 da turgan piyoda birdaniga ikki xona oldinga – a4 ga yurishi


mumkin. Shuning uchun boshlang'ich xonada (ikkinchi va yettinchi gorizantallarda) turgan piyoda kvadratini aniqlash uchun uni uchinchi (qoralar uchun oltinchi) gorizantalda turgan, deb faraz qilish kerak.

a2 piyodasining haqiqiy kvadrati 137 – vaziyatda punkitlar bilan ko'rsatilgan. Demak, yurish oqlardan bo'lsa, qora shoh piyodaga yeta olmaydi – oqlar yutadi. Agar yurish qoralardan bo'lsa, qora shoh piyodaga yetib oladi – o'yin durang bo'ladi. Qora shoh piyodaga yetib olish uchun turlicha marshrut tanlashi mumkin.

TOMONLARDA BITTADAN PIYODA QOLGANDA

Ikkala tomonning faqat bittadan piyodasi va ular bir vertikalda tursa, o'yin ko'pincha durang bo'ladi. Agar piyodalardan biriga hujum qilib, uni urib olinsa, piyodasini berib qo'ygan tomon o'z shohi bilan durang qila oladigan pozitsiyalarni egallashga harakat qilishi kerak.

139-vaziyat



139-vaziyatdagi pozitsiyada qora shoh e6 dagi piyodasini saqlab qola olmaydi, shunday ekan, qoralar yutqazmaslik uchun nima qilishi


kerak? Agar oq shoh f6 xonasidan e6 piyodasiga hujum qilsa va uni o'sha xonada urib olsa oqlar yutadi.

Agar qora piyoda e5 turganda edi, natija oppazitsiyani kim egallashiga bog'liq bo'lib qolar edi. Demak, qoralar o'z piyodasini surib, shohi bilan oppazitsiyani egallashga harakat qilishi lozim.

1.... e6-e5! Endi o'yin quyidagicha davom etishi mumkin:
2.Kph6-g6 Kpg8-f8 3.Kpg6-f6 Kpg8-f8 4.Kpf6:e5 Kpf8-e7 va o'yin durang bo'ladi.

Agar yurish oqlardan bo'lsa, 1.e4-e5! yordamida oqlar yutadi. Oqlar 1.Kph6-g6 yordamida ham yutuqqa erishishi mumkin, chunki bu holda qoralar oppazitsiyani egallashga ulgurmaydi: 1. ... Kph8-g8 2.Kpg6-f6 e6-e5 3.Kpf6:e5 Kpg8-f7 (3. ... Kpf8 bo'lsa, 4.Kpf6! yoki 4.Kpe6! yoki 4.Kpd6) 4.Kpe5-d6 va yutuq.

140-vaziyat




140-vaziyatda ko'rsatilgan pozitsiyada piyodalar bir-birini to'sib turibdi; shohlar piyodalarning yon tomoniga joylashgan. Bunga o'xshash pozitsiyalar amalda tez-tez vujudga kelib turadi. Bunday pozitsiyalarda shohning o'z piyodasi joylashgan gorizantalga chiqib lishi va iloji boricha oppozitsiyani egallashi muhim ahamiyatga egadir. Shunga erishgan tomon shohi bilan flangdan foydalanib o'tib, raqib piyodasiga yaqinlashish va uni urib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

140-vaziyatdagi pozitsiyada yurish qoralardan bo'lsa, ular 1. ... Kp-c5-c4! yordamida maqsadga erishadi, ya'ni shohini piyodasi joylashgan to'rtinchi gorizantalga chiqarib oladi va oppazitsiyani egallaydi. Shundan keyin o'yin quyidagicha davom etishi mumkin:
2.Kpc2-d2 Kpc4-d4 3.Kpd2-e2 (bo'lmasa 3. ... Kpe3!) 3. ... Kpd4-c3! (qoralar shoh flangidan aylanib o'tishga yurishdi) 4.Kpe2-f2 Kpc3-d2 5.Kpf2-d2 Kpd2-e2 6.Kpg2-g1 Kpe2:f3 3.Kpg1-f1. Endi yurish kimdan bo'lishidan qat'iy nazar, qoralar yutadi

140-vaziyatdagi pozitsiyada yurish oqlardan bo'lsa, ular 1.Kpc2-c3 yordamida o'z shohini piyodasi joylashgan gorizantalga o'tib olish imkoniyatiga ega bo'ladi va oppozitsiyani egallaydi. Bu hol oqlarga o'z shohi bilan flangdan aylanib o'tib, qoralar piyodasiga hyjum qilish, so'ngra uni urib olish imkoniyatini beradi: 1. ... Kpc5-d5 2.Kpc3-d3 Kpd5-e5 3.Kpd3-c4! Kpe5-f5 4.Kpc4-d5 Kpf5-g5 5.Kpd5-e5 Kpg5-g6! (o'yinni durangga olib keluvchi birdan-bir yurish) 6.Kpe5:f4 Kpg5-f6! Va o'yin durang bo'ladi.


141-vaziyat



141-vaziyatdagi pozitsiyada piyodalar bir-biriga maksimal darajada yaqinlashgan (amalda ko'p uchraydigan hol). Lekin shohlarning joylashuvida farq katta: qora shoh burchakka qisilib qolgan. Oq shoh esa hohlagancha manevr qila oladi. Mana shu ustunlik oqlarda o'yinni yutish imkoniyatini beradi: 1.Kpf7-f8!


(yurish qoralardan bo'lsa, 1. ... h5 2.g6! va yutuq. Endu qoralarning javob yurishi majburiy) 1. ... h7-h5 2.g5-g6 h5-h4 3.g6-g7+ va oqlar yutadi.

142-vaziyat



141 va 142-vaziyatdagi pozitsiyalar bir-biriga o'xshash bo'lsa ham ularning o'rtasidagi farq kattadir: 104-vaziyatdagi pozitsiyada qora shoh burchakka butunlay qisilib qolgan emas. Bu hol qoralarga o'yinni durnang qilish imkonini beradi: 1.Kpf6-f7 (yurish qoralardan bo'lsa, 1. ... h5! 2.g5 Kpg8! 3.Kpf5! Kpg7 4.g6 h4 5.Kpg4 dan keyin o'yin durang bo'ladi) 1. ... Kph7-h8! (1. ... h5? bo'lsa, 2.g5! dan keyin avval ko'rib chiqqanimizdek oqlar yutadi) 2.Kpf7-g6 h6-h5! (2. ... Kpg8? bo'lsa, 3.Kp:h6 Kph8 4.g5 Kpg8! 5.Kpg6 va oqlar yutadi) 3.Kpg6:h5 Kpg8-h7! 5.Kph5-g5 Kph7-g7 va durang.

143-vaziyat



143-vaziyatdagi pozitsiyada oq shoh qulay joylashgan. Oqlar shu ustunlikdan foydalanmoqchi, ya'ni qora piyodaga yaqinlashib, uni urib olmoqchi. Haqiqatdan ham yurish oqlardan bo'lsa, ular g'alaba qozonar edi. Biroq yurish qoralardan. Shunday bo'lsa ham qoralar o'z piyodasini saqlab qola olmaydi, lekin uni tezlik

bilan qurbon qilib, durang pozitsiyaga erishadi. 1. ... f4-f3! (... Kpd6? bo'lsa, 2.Kpe4 f3 3.Kp:f3! va oqlar yutadi) 2.g2:f3 Kpc6-d6 3.Kpd4-e4 Kpd6-e6 va durang.

Agar piyodalar bir-birining yo'lini to'smasa, ya'ni har ikkala piyodaning ham oldi ochiq bo'lsa, tomonlarning maqsadi o'z piyodasini tezroq farzinga chiqarishga va raqibi piyodasini yo'lini to'sishga qaratilgan bo'ladi. Ba'zan piyodalar bilan ularning farzinga chiqadigan xonalari o'rtasidagi masofa teng bo'ladi, biroq ulardan biri farzin bo'lishi bilanoq kisht berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

SHOH BILAN IKKI PIYODA SHOHGA QARSHI


Tomonlardan birida ikki piyoda oshib ketgan hollarda o'yin kamdankam durang bo'ladi. Raqib shohi ikkala piyodani ham olishga ulgurgan yoki bir piyodani urib olgan paytda kuchli tomon o'z shohi va ikkinchi piyodasi bilan yutuq pozitsiyaga erisha olmagan hollardagina o'yin durang bo'ladi.

Agar piyodalar bir-biridan uzoqda joylashgan bo'lsa, g'alabaga

erishish uchun kuchli tomon shohining yordamga kelishi shart emas. Chunki kuchsiz tomonning shohi piyodalardan birining yo'lini to'sishga borsa, ikkinchi piyodaning kvadratidan chiqib ketadi. Yutish uchun shuning o'zi kifoya. Agar qo'sh piyodalar (qo'shni vertikalarda joylashgan piyodalar qo'sh piyodalar deb ataladi)ning biri ikkinchisini himoyalay olsa, qo'sh piyodali tomon

osongina g'alaba qozonadi (lekin shohning yordami bilan).


144-vaziyat



144-vaziyatdagi pozitsiyada c5 dagi piyoda qo'riqlanmasa, qoralar uni urib oladi. Birdan-bir chora b3 dagi piyodani surishdir. Endi qoralar b4 dagi piyodani ura olmaydi, chunki u holda c5 dagi piyodaning kvadratidan chiqib ketadi va bu piyoda farzin bo'ladi.

Piyodalar (a va h dan boshqa vartikallarda) qavat bo'lganda ham g'olib bo'lish qiyin emas.

145-vaziyat




145-vaziyatdagi pozitsiyada, yurish kimdan bo'lishidan qat'iy nazar, oqlar yutadi:

1) 1.Kpc5 Kpb7 2.Kpb5 Kpb8 3.Kpa6 Kpa8 4.b7+ Kpb8 5.b5! Kpc7 6.Kpa7 va yutuq. Yoki 3.Kpc6 Kpc8 (yoki 3. ... Kpa8) 4.b7+ Kpb8 5.b5 Kpa7 6.b8Φ (Kpc7? - pot) 6. ... Kp:b8 7.Kpb6 va yutuq.

2) 1. ... Kpb7 2.Kpc5 Kpa6 (2. ... Kpb8 bo'lsa, 3.Kpc6!) 3.b7! (3.Kpc6? bo'lsa-pot) 3. ... Kp:b7 4.Kpb5 va yutuq.

Piyodalar qavatligida kuchsiz tomon oppozitsiyani egallay olmasa, kuchli tomon o'zining ikkinchi piyodasini surib, yurish navbatini berish imkoniyatidan foydalaniladi. Shuning uchun orqadagi piyodani zarur paytlardagina surish kerak.

146-vaziyat



146-vaziyatdagi pozitsiyada piyodalar bir-birini qo'riqlay olmaydi. Bunday piyodalar yakkaalangan

piyodalar deb ataladi. oqlarning shohi uzoqda bo'lgani uchun o'z piyodalarini himoyalashga yetib kela olmaydi.

Yurish qoralardan bo'lsa, 1. ... Kpe5 2.g4 Kp:e4 dan keyin qora shoh ikkinchi piyodani ham oladi. Agar yurish oqlardan bo'lsa, 1.g4! Kpe5 2.g5! dan keyin piyodalar o'z-o'zini himoyalab qoladi. Endi 2. ... Kp:e4 bo'lsa, shoh g5 piyodasining kvadratidan chiqib ketadi. Yoki qora shoh e6-f7-g6 marshruti bo'yicha g5


dagi piyodaga hujum qilsa, shu paytda ikkinchi piyoda e6 ga surilib qoladi: 2. ... Kpe6 3.Kpb6 Kpf7 4.e5! Kpg6 5.e6 (yoki 4. ... Kpe6 bo'lsa, 5.g6!) yana piyodani olib bo'lmaydi. 5.e6! ning o'rniga, oqlar 5.Kpe6! yordamida ham o'yinni yutishi mumkin.

Demak, agar yakkaalangan piyodalarni bir vertikalgina ajratib turgan bo'lsa, ularning biri chetdan turib ikkinchisini himoyalay oladi.

SHOH BILAN IKKI PIYODA SHOH BILAN BIR PIYODAGA QARSHI

Bunday hollarda ham natija piyodalarning qay holda joylashganligiga va shohlarning aktivligiga bog'liqdir. Bunday ustunlik ko'pincha g'alaba qozonishga sababchi bo'lishiga qaramasdan, ba'zi pozitsiyalar bundan mustasnodir.

147-vaziyat




147-vaziyatdagi pozitsiyada kuchli tomonning piyodalari qo'sh va ular kuchsiz tomonning piyodasini farzinga chiqarmaydigan holat ko'rsatilgan. Bu pozitsiyada yurish qoralardan bo'lsa, 1. ... c6-c5! yordamida ular durangga erishishi mumkin. Masalan: 2. ... bc Kpc6; yoki 2.b5 c4! 3.Kpd2 Kpb6 4.Kpe3 Kp:b5 5.Kpd4 Kpb6! 6.Kp:c4 Kpc6; yoki 2.Kpb3 cb; yoki 2.Kpb3 Kpc6! (2. ... Kpb6 yaramaydi, chunki 3.Kpc4 cb 4.Kp:b4 dan keyin oqlar yutadi) 3.Kpc4 cb va hakazo.

Agar yurish oqlardan bo'lsa, 1.c3-c4! c6-c5 2.b4-b5 yordamida ular qo'riqlangan oldi ochiq piyodaga (b5) ga ega bo'ladi. Bunday hollarda deyarli hamma vaqt g'alaba qozoniladi.

148-vaziyatdagi pozitsiyani mukammal o'rganib chiqish kerak, chunki bunday pozitsiyalar amaliy partiyalarda tez-tez vujudga kelib turadi.

148-vaziyat




Bu pozitsiyada yurish qoralardan bo'lsa, ular 1. ... c5+ 2.dc Kpc6 yo'li bilan o'yinni durang qilishga erishadi. Agar yurish oqlardan bo'lsa, ular raqibiga c6-c5+ imkoniyatini bermaydi. Buning uchun oqlar 1.c4-c5+ yurishi zarurdek tuyulmoqda. Biroq aslida bu yurish durangga olib keladi, xolos: 1.c5+ Kpb7! 2.Kpa5 Kpa7; yoki 1.c5+ Kpb7 2.Kpc4 Kpc7 3.d5 cd+ 4.Kp:d5 Kpd7; 1.c5+ Kpb7 2.Kpc4 Kpc7 3.Kpd3 Kpd7 4.Kpe4 Kpe6 (4.Kpe3

bo'lganda, 4. ... Kpe7! yordamida qoralar uzoq oppozitsiyani egallar edi) 5.Kpf4 Kpf6. Qora piyodaga chap tamondan aylanib o'ta olmagan oq shoh o'ng tomondan ham aylanib o'ta olmayapti. Demak, 1.c4-c5 eng kerak paytda yurish kerak edi. Mana: 1.Kpb4-c3! Kpb6-c7 (qoralar 1. ... Kpa5 yo'li bilan oq piyodalarga hujum qila olmaydi, chunki 2.Kpd3 Kpb4 3.c5! Kpb5 4.Kpe4 Kpc4 5.Kpe5 dan keyin oqlar osongina yutadi.


148-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar g'alaba qozonish uchun o'z shohini oldinflangdan aylanib o'tadigan tomon (o'ng tomon)ga olib o'tdi. So'ngra o'z piyodasini surib, oppazitsiyani egalladi va bir piyodasini urishtirib, yutuq ahvolga erishish (yoki shohi bilan flangdan aylanib o'tish) imkoniyatiga ega bo'ldi.

149-vaziyat




149-vaziyatdagi pozitsiya 148-vaziyatdagi pozitsiyaga o'xshasa hambu o'yin durang bo'ldi: 1.Kpd4 Kpd6 2.f5 Kpc6 3.g5 fg 4.Kpe5 Kpd7 yoki 1.Kpf3 Kpf7 2.Kpg3 Kpg7 3.Kph4 Kph6 4.f5 Kpg7 5.Kph5 Kph7 yordamida flangdan aylanib o'tib bo'lmaydi chunki bunga taxtaning chekkasi halal beradi. Agar 114-vaziyatdagi barcha donlarni bir xona chapga surilsa, o'yin 113-vaziyatdagi singari yutuq bilan yakunlanar edi. Demak, piyodalar markazga qanchalik yaqin bo'lsa, kuchli tomon uchun shunchalik yahshi ekan, chunki bu holda kuchli tomon shohi bilan flangdan aylanib o'tish yoki piyodalaridan birini almashtirish uchun surib, yutuq ahvolga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

150-vaziyat



150-vaziyatdagi pozitsiyada yurish qoralardan bo'lsa: 1. ... b4-b3 2.a2:b3 a4:b3 3.Kpa1 va o'yin durang bo'ladi. Agar yurish oqlardan bo'lsa, 1.Kpb1-a1 b4-b3 2.a2:b3 (2.Kpb1 bo'lsa, 2. ... b2!) 2. ... a4:b3 3.Kpa1-b1 b3-b2 va qoralar yutadi. Demak, oq shoh a1 xonasida turganda piyodaning b3 ga surilishi yutuqqa (shoh b1 da turganda esa, durangga) olib kelar ekan.

151-vaziyat




151-vaziyatdagi pozitsiyada yurish kimdan bo'lishidan qat'iy nazar, qoralar yutadi. Bunda qoralar shunday hisob yuritishi kerakki, b7 dagi piyoda b4 ga surilib kelganda oq shoh a1 xonasida tursin. Yurish oqlardan bo'lsa: 1.Kpb1-a1 b7-b5! 2.Kpa1-b1 b5-b4 3.Kpb1-a1 b4-b3 va

yutuq. Yurish qoralardan bo'lsa, 1. ... b7-b6! (birdaniga ikki xonaga surila oladigan piyodalar yurish navbatini o'tkazish paytida katta ahamiyatga ega bo'lishini doimo esda tutish kerak) 2.Kpb1-a1 b6-b5 3.Kpa1-b1 b5-b4 4.Kpb1-a1 b4-b3 va yutuq.

TOMONLARDA IKKITADAN VA UNDAN ORTIQ PIYODA QOLGANDA

152-vaziyat



Amalda ko'p uchraydigan 152-vaziyatdagi pozitsiyaga birinchi qarashda qoralarning ahvoli juda yahshidek ko'rinadi, chunki ularning shohi markazda aktiv joylashgan. Biroq shunga qaramay, qoralar

yutqizadi. Bunga sabab a3 xonasidagi piyodaning asosiy jang maydonidan uzoqda turganligidir. Ana o'sha piyodaning olg'a surilishi qora shohni o'z tamoniga kelishga majbur etadi, shu paytda oq shoh c4 dagi piyodani urib, f5 piyodasiga yaqinlashadi hamda uni ham olib, yutuq pozitsiyaga erishadi. Masalan, yurish qoralardan bo'lsa, o'yin quyidagicha davom etishi mumkin:

1.... Kpd4-c5 yoki 1. ... c3+ bo'lsa, 2.Kpc2 Kpc4 3.a4 Kpb5 4.a5

Kp:a5 5.Kp:c3 Kpb5 6.Kpd4 Kpc6
7.Kpe5 Kpd7 8.Kp:f5 va oqlar yutadi
yoki 1. ... Kpe4 va 2. ...Kp:f4 bo'lsa,
a3 xonasidagi piyoda farzinga
chiqadi.

2.Kpd2-c3 Kpc5-b5

3.a3-a4+ Kpb5-c5

4.a4-a5 Kpc5-b5

5.a5-a6 Kpb5:a6

6.Kpc3:c4 Kpa6-b6


7.Kpc4-d5 Kpb6-c7

8.Kpd5-e5 Kpc7-d7

9.Kpe5:f5 Kpd7-e7

10.Kpf5-g6 va oqlar yutadi.

153-vaziyat




153-vaziyatda ko'rsatilgan
pozitsiyada oqlarning h5 dagi
piyodasi uzoqda bo'lgani bilan
g'alaba qozonib bo'lmaydi. Masalan:
1.Kpf4-e4 Kpf6-g5 2.Kpe4-d5 c5-c4
b3:c4! (oqlar piyodani sursa
yutqizadi) 3. ... b5:c4 (3. ... b4?
bo'lsa, 4.Kpd4! dan keyin oq

piyodalardan biri farzinga chiqadi) va
o'yin durang bo'ladi.

Agar yurish qoralardan bo'lsa 1.
... c4! 2.Kpe3 (2.bc bo'lsa, qora
piyoda uch yurishda farzinga chiqadi)
2. ... c3! dan keyin qoralar
qo'riqlangan oldi ochiq piyodaga (c3)
ega bo'ladi va g'olib chiqadi.

Qo'riqlangan oldi ochiq
piyodalar juda kuchli bo'ladi, ba'zan
ular bir piyoda yetishmasligini ham
sezdirmaydi.

154-vaziyat



154-vaziyatdagi pozitsiyada
oqlar oldi ochiq piyodaga ega-yu,
lekin ular o'z shohining yordamisiz
farzinga chiqa olmaydi. Masalan:
1.h4-h5 Kpe5-f6 2.Kpe3-f4 Kpf6-e6
(ikkala shoh ham hali piyodalar
kvadratidan chiqqani yo'q) 3.g4-g5
Kpe6-f7 4.h5-h6 Kpf7-g6 5.Kpf4-e4
Kpg6-h7 va o'yin durang bo'ladi.
Endi oqlarning shoh yordamida g va
h xonalaridagi piyodalardan birini


farzinga chiqarish niyati ham mo'ljaldagi natijaga olib kelmaydi, chunki bu holda oqlarning shohi c4 dagi qora piyodani kvadratidan chiqib ketadi. Masalan: 6.Kpe4-f5 c4-c3 7.Kpf5-f6 c3-c2 8.g5-g6+ Kph7:h6 9.g6-g7 c2-c1Φ (9. ... Kph7 yaramaydi, chunki 10.Kpf7 c2-c1Φ 11.g7-g8Φ+ va keying yurishda qoralar mot bo'ladi) 10.g7-g8Φ va oqlar durangdan ortiq natijaga erisha olmaydi.

Yuqorida biz oldi ochiq hamda qo'riqlangan va asosiy jang maydonidan yiroqda turgan piyodalarning qanchalik kuchli bo'lishini ko'rib chiqdik.

Endi qavat piyodalarning ayrim kamchiliklari bilan tanishamiz.

Ispancha partiya deb ataladigan o'yin boshining bir variant (1.e4 e5 2.Kf3 Kc6 3.Cb5 a6 4.C:c6 dc) da hamma sipohlar almashtirilgandan so'ng shunday pozitsiya vujudga kelishi mumkin.


155-vaziyat



155-vaziyatdagi pozitsiyada kuchlar teng bo'lishiga qaramay qoralar yutqizadi. Oqlar shoh flangida ikkita piyodani almashtirib, bitta oldi ochiq piyodaga ega bo'lishi mumkin. Lekin qoralar bunday qila olmaydi. Masalan: 1.h4:g5 h6:g5 2.f3-f4+ g5:f4 (2. ... Kpf5 bo'lsa, 3.fg Kp:g5 3.Kpf3) 3.g3:f4+ Kpe5-f5 4.Kpe3-f3 b5-b4 5.a3-a4 (yoki Kpe3 yo'li bilan oqlar qora piyodani qavatdan chiqarmaydi – hamma gap mana shunda) 5. ... b4-b3 6.Kpf3-e3 Kpf5-f6 7.Kpe3-e4 Kpf6-e6 8.f4-f5+ Kpe6-d6 9.f5-f6 (yoki 9.Kpf4!) 9. ... Kpd6-e6 10.f6-f7 Kpe6:f7 11.Kpe4-d5 va oqlar yutadi.

Piyodali o'yin oxirlariga oid yana bir murakkabroq misolni ko'rib chiqamiz.

156-vaziyat



156-vaziyatdagi pozitsiyada farzin flangidagi piyodalar simmetrik holda joylashgan, yurish qoralardan. Ular farzin flangidagi piyodalarni juda ehtiyotlik va aniq xisob bilan surishi kerak. Aks holda, f4 dagi piyoda boy beriladi va qoralar mag'lub bo'ladi.

1.... a7-a6

Boshqa yurishlarni ham ko'rib chiqaylik, masalan: a) 1. ... b6 bo'lsa, 2.a4 a6 (2. ... c5? bo'lsa, 3.dc! bc 4.b4! d4! 5.bc! dc 6.Kpe2! Kpf6 7.Kpd3 Kpe6 8.Kp:c3 Kpd5 9.Kpb4 va oqlar yutadi yoki 2. ... a5 3.b4 va yutuq) 3.b3! (3.b4 yaramaydi, chunki 3. ... a5! Dan keyin oqlar yutqizadi) 3. ... a5 (3. ... c5 bo'lsa, 4.dc bc 5.b4 d4 6.bc dc 7.Kpe2 va yutuq) 4.b4 va yutuq.

FARZINNING PIYODAGA QARSHI KURASHI

Bir tomonda farzin, ikkinchi tomonda piyoda qolgan pozitsiyalar, odatada, farzinli tomonning yutug'I bilan yakunlanadi. Albatta, piyoda

Agar 1. ... b5? bo'lsa, 2.b4 a6 3.a3 dan keyin oqlar yutadi.

b) 1. ... a6 bo'lsa, 2.a3! (2.a4? yaramaydi, chunki 2. ... a5 3.b4 b6! yoki 3.b3 b5 dan keyin oqlar yutqazadi) 2. ... b6 3.a4! a5 (3. ... c5 bo'lsa, 4.a5!) 4.b4! va yutuq.

2.a2-a4

2.b3 ham o'yinni yutqqa olib keladi-yu, lekin bu anchagina qiyin yo'l: 2.b3 b6 (2. ... b5 bo'lsa, 3.a4!) 3.c4 a4! 4.c5! (4.cd ab 5.ab cd 6.b4 b5 dan keyin oqlar yutqazadi) 4. ... ab 5.ab bc (5. ... b5 6.b4!) 6.dc d4 7.b4 d3 8.b5! Kpf6 9.b6!-yutuq.

2. ... b7-b5


2. ... b6 3.b4! dan keyin ham oqlar yutadi.

3.b2-b3! va bir necha yurishlardan keyin qoralar taslim bo'ladi.

156-vaziyatdagi pozitsiyada yurish oqlardan bo'lganda, o'yinning natijasi aksincha bo'lar edi, albatta.

o'z shohidan uzoqlashmagan (raqib shohi esa undan uzoqda) bo'lishi kerak.

157-vaziyat



157-vaziyatdagi pozitsiyada yurish qoralardan (oqlardan bo'lsa, 1.e8 Φ va o'yin durang bo'lardi). Ular ketma-ket bir necha marta kisht berib, farzinini piyodaga yaqinlashtiradi va oq shoni o'z piyodasining oldiga (farzinga chiqadigan xonasiga) o'tishga majbur qiladi. 1. ... Φ f2+ 2.Kpg7 Φ e3 3.Kpf7 Φ f4+ 4.Kpg7 (4.Kpe6 bo'lsa, 4. ... Φ e4+ 5.Kpd7 Φ d5+ va hakazo) 4. ... Φ e5+ 5.Kpf7 Φ f5+ 6.Kpg7 Φ e6! 7.Kpf8 Φ f6+ 8.Kpe8. Bitta farzinning o'zi bilan bu yerda hech narsa qilib bo'lmaydi. Endi piyodaning yura olmasligidan foydalanib, qoralar shohini sekin-asta piyodaga yaqinlashtirishga kirishadi. 8. ... Kpb3 9.Kpd7 Φ f7 (qoralar oq shohni yana piyodasining oldiga – e8 ga o'tishga majbur qiladi) 10.Kpd8


Φ d5+ 11.Kpc7 Φ e6! 12.Kpd8 Φ d6+ 13.Kpe8 Kpc4! 14.Kpf7 Φ d7 15.Kpf8 Φ f5+ 16.Kpg7 Φ e6! 17.Kpf8 Φ f6+ 18.Kpe8 Kpd5 19.Kpd7 Φ d6+ 20.Kpe8 Kpe6 dan keyin qoralar piyodani urib oladi va g'alaba qozonadi.

Agar 157-vaziyatdagi pozitsiyada qora shoh f2 yoki f3, yohud f4 (faqat shu uchta xonadan biri!)da turgan bo'lsa, farzin “zinapoya” shaklida oq shohga yaqinlasha olmas va o'yin durang bo'lar edi.

Odatda bunday pozitsiyalarda yutuqqa erishish uchun o'yin kisht berish yohud piyodani ochmas qilish bilan boshlanadi, binobarin, shunday imkoniyat bo'lmasa, o'yin durang bo'ladi.

157-vaziyatda ko'rib chiqilgan yutish usuli faqat d,e (markaziy) b, va g piyodalariga xosdir.

158-vaziyat




158-vaziyatdagi pozitsiyada ham qoralar farzini bilan “zinapoya” shaklida oq piyodaga yaqinlasha oladi-yu, lekin g'alabaga erisha olmaydi: 1. ... $\Phi e2+$ 2.Kpf8 (yoki 2.Kpf6 bo'lsa, 2. ... $\Phi b2+$ 3.Kpe7 $\Phi e5+$ 4.Kpd7 $\Phi f6$ 5.Kpe8 $\Phi e6+$ 6.Kpf8 Kpg4 va hakazo. Yoki 2.Kpf6 $\Phi b2+$ dan keyin 2. ... Kpe6? bo'lsa, 3. $\Phi b4!$ va qoralar yutqazadi) Kpg3 3.Kpg7 $\Phi g4+$ 4.Kph7 $\Phi f5+$ 5.Kpg7 $\Phi g5+$ 6.Kph7 $\Phi f6$ 7.Kpg8 $\Phi g6+$ 8.Kph8!

Endi qoralar piyodani olsa, o'yin pot bo'ladi, olmasa piyoda farzinga chiqadi. Chunki shoh o'z piyodasining oldiga o'tmagandan keyin, farzinli tomon o'z shohini piyodaga yaqinlashtira olmaydi.


Agar qoralarning shohi piyodaga yaqinroq, masalan, h4 da turganda ular yutar edi. Bu holda: 1. ... $\Phi e2+$ 2.Kpf8 (2.Kpf6 bo'lsa, 2. ... $\Phi b2+$ va hakazo). 2. ... Kpg5 (yoki Kph5) 3.Kpg7 $\Phi e5+$ 4.Kpg8 Kpg6! Endi oqlar o'z piyodasini farzinga chiqarish bilan mot bo'ladi: 5.f8 Φ $\Phi e6+$ ($\Phi d5$) 6.Kph8 $\Phi h3$ (h1)+ 7.Kpg8 $\Phi h7X$.

159-vaziyat



159-vaziyatdagi pozitsiyada ham farzin “zinapoya” orqali piyodaga yaqinlasha oladi: 1. $\Phi g2+$ 2.Kpf7 (yoki f8) $\Phi h3$ 3.Kpg8 $\Phi g4+$ 4.Kpf7 $\Phi h5+$ 5.Kpg7 $\Phi g5+$ 6.Kpf7 $\Phi h6$ 7.Kpg8 $\Phi g6+$ 8.Kph8! – qoralar oq shohni piyodasining oldiga – farzinga chiqadigan xonaga o'tkazadi-yu, lekin buning foydasi yo'q, chunki endi o'z shohini yordamga olib kelmoqchi bo'lsa, pot bo'ladi.

160-vaziyat



160-vaziyatdagi pozitsiya bundan oldingi pozitsiyadan qora shohning oq piyodaga yaqinroq joylashganligi bilan farq qiladi. Bunday holatda qoralar yutadi. 1. ...

$\Phi g2+$ 2.Kpf7 $\Phi h3$ 3.Kpg7 $\Phi g4+$
 4.Kpf7 $\Phi d7+$ 5.Kpg8 $\Phi e8+$ 6.Kpg7
 $\Phi e7+$ 7.Kpg8 (7.Kpg6? bo'lsa, ...
 $\Phi f8!$ va yutuq) 7. ... Kpg5! (endi
 oqlar farzinga chiqishi bilan mot
 bo'ladi) 8.h8 Φ Kpg6 9. $\Phi f6+$
 (farzinni boshqa joyga yursa, oqlar
 motbo'ladi. Shuning uchun ular
 raqibga "tuzoq" qo'ymoqda) 9. ...
 $Kp:f6$ (oqlarning xom hayoli – $\Phi:f6?$
 dan keyin pot bo'lish imkoniyati
 puchga chiqdi) va keying yurishda
 mot bo'ladi.


Bundan oldingi pozitsiyada 1.
 ... $\Phi g2+$ dan keyin 2.Kpf7 (yoki f8)
 yo'li bilan oqlar durangga erishar edi.
 Agar buning o'rniga 2.Kph8? bo'lsa,
 2. ... Kpg3! 3.Kpg7 Kpf4+ (yoki
 Kph4) yordamida qoralar yutuqqa
 erishar edi.

Agar piyoda oltinchi (qora
 piyoda esa uchinchi) gorizantalda
 tursa, farzinli tomon deyarli hech
 qiyinchiliklarsiz g'alabaga erishadi,
 chunki bu holatda pot bo'lish xavfi
 yo'q.

Lekin shuni aytish kerakki,
 shaxmat nazariyasida farzin piyodaga
 (oltinchi yoki uchinchi gorizantalda
 turgan piyodaga) qarshi o'yinda

g'alaba qozona olmaydigan bir
 nechtagina pozitsiya ma'lum.
 Shulardan birini keltiramiz.

161-vaziyat



161-vaziyatdagi pozitsiyada 1.
 ... $\Phi a8+$ (bo'lmasa, piyoda suriladi
 va o'yin durang bo'ladigan
 pozitsiyaga keladi) 2.Kpg7 dan keyin
 piyodaning yettinchi gorizantalg
 surilishiga to'sqinlik qilib bo'lmaydi,
 chunki kuchli tomonning shohi
 noqulay turibdi, ya'ni u farzinning
 kerakli manevr qilishi uchun xalaqit
 bermoqda. Agar qora shoh b2 da
 emas, balki c2 da turganda edi,
 qoralar 2. ... $\Phi a1!$ yordamida oqlarni
 osongina yutadi, masalan: 3.Kpg6
 $Kpd3!$ 4.f7 $\Phi h8!$ yoki 3.Kpf7 $Kpd3$
 4.Kpe7 $\Phi a7+$ 5.Kpe8 $\Phi b8+$ 6.Kpe7
 $\Phi e5+$ 7.Kpf7 Kpe4 8.Kpg6 Kpf4

9.Kpg7 (9.f7 bo'lsa, 9. ... Φ h8) 9. ... Kpg5.

RUHNING PIYODAGA QARSHI KURASHI

Bir tomonda ruh ikkinchi tomonda bitta piyoda qolgan hollarda ko'pincha ruhli tomon yutadi. Ba'zan shunday hollar ham uchrab turadi: piyodaga qarshi kurashishda kuchli tomonning shohi o'z ruhiga yordam bera olmasligi natijasida o'yin durang bo'ladi.


Agar kuchli tomonning shohi piyodaning old tomonida yoki piyoda surilsa boshlaganda unga yetib oladigan joyda bo'lsa, yutish oson.

1. ... g4 2.Kpb7 g3 3.Jlb3! g2 4. Jlg3 va piyoda yutqiziladi.

Agar qoralar piyodasini shohining yordamida sura boshlasa, u holda, oqlarning shohi o'z ruhiga yordamga yetib kaladi: 1. ... Kpg6 2.Kpb7 Kph5 3.Kpc6 Kph4 4.Kpd5 g4 5.Kpe4 g3 6.Kpf3 va oqlar yutadi.


Ushbu qoidani bilib qo'yish foydali: agar kuchsiz tomonning shohi piyodasining orqasida turgan bo'lsa, o'yinni yutish uchun ruh bilan shohni beshinchi gorizantal (kuchsiz tomon oqlar bo'lsa, to'rtinchi gorizantal) bo'yicha kesib qo'yish lozim.

162-vaziyat



162-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar o'z shohining yordamisiz piyodani sura olmaydi, chunki u holda, piyoda boy beriladi. Masalan:

163-vaziyat




163-vaziyatdagi pozitsiyada o'yinning natijasi piyoda c7 ga borganda, qora shohning d7 ga yetib kela olish-olmasligiga bog'liqdir.

Agar yurish oqlardan bo'lsa, qora shoh d7 ga yetib kela olmaydi va o'yin durang bo'ladi: 1.c6 Kpf5 2.c7 Kpe6 3.c8Φ va hokazo.

Agar yurish qoralardan bo'lsa, ular shohini o'z vaqtida d7 xonasiga keltirishga ulguradi: 1. ... Kpf5 2.c6 Kpe6 3.c7 Kpd7 dan keyin qoralar avval piyodani urib oladi, so'ngra g'alaba qozonadi.

164-vaziyat




164-vaziyatdagi pozitsiya murakkabroq bo'lishiga qaramasdan, g'alabaga erishish usuli (yurish oqlardan bo'lsa) avvalgi pozitsiyadagidek bo'ladi.

Yurish oqlardan bo'lsa, oq shoh e2 xonasiga o'z vaqtida yetib keladi: 1.Kpf6 d3 2.Kpe5 d2 3.Kpe4 Kpc3 4.Kpe3 Kpc2 5.Kpe2 va oqlar yutadi.

Yurish qoralardan bo'lsa: 1. ... d3 2.Kpf6 d2 3.Kpe5 Kpd3 4.Kpf4 Kpc2 dan keyin o'yin durang bo'ladi. Kuchli tomonning shohi piyodaga

yaqinlashishi uchun raqib shohi xalqit bermaydigan yo'lni tanlashi kerak.

165-vaziyat



165-vaziyatdagi pozitsiyada piyodaning yo'lini to'sish uchun qoralar shoshilinch chora ko'rishi kerak.

1.... Kpe2-f3

2.c4-c5 ...

Agar buning orniga oqlar qora shohning yo'lini to'sish maqsadida: 2.Kpe5 o'ynasa, 2. ... Jlc2 3.Kpd5 Kpf4 (yana yo'l ochildi) 4.c5 Kpf5 5.Kpd6 Kpf6 6.c6 Jld2+! 7.Kpc7 Kpe7 8.Kpb7 Jlc2 9.c7 Kpd7.

2.... Kpf3-f4

3.Kpd4-d5 Kpf4-f5

4.Kpd5-d6 Kpf5-f6

5.c5-c6 Jf2-d2+

6.Kpd6-c7 Kpf6-e7 va qoralar yutadi.

FIL YOKI OTNING PIYODAGA QARSHI KURASHI


Bir tomonda fil yoki ot, ikkinchi tomonda esa piyoda qolgan hollarda, odatda, o'yin durang bilan yakunlanadi. Piyodaga qarshi kurashda, fil yoki otdan tashqari, shoh ham qatnasha oladigan hollarda o'yinning durang bo'lib tugashi o'z-o'zidan ma'lum. Shuning uchun ham bizni asosan yakka fil yoki yakka otning piyoda bilan olishuvini ko'rsatuvchi pozitsiyalar qiziqtiradi.

Fil yoki otning piyoda bilan olishuvini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Fil uzoqdan turib ham piyodaning suriladigan yo'lidagi xonalardan birini nazorat ostiga olishi binobarin, piyodani farzinga chiqarmasligi mumkin. Lekin ba'zan shunday pozitsiyalar ham uchraydiki, bunda raqib shohnigina emas, balki o'z shohining ham xalaqit berishi natijasida fil piyoda bilan muvaffaqiyatli ravishda kurasha olmaydi. Xuddi shunday

pozitsiyalardan biri 166- vaziyatda ko'rsatilgan.

166-vaziyat



166-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar o'yinni durang qilish uchun filini b1-h7 diagonallaridagi birorta xonaga joylashtira olsa, bas. Biroq yurish oqlardan.

1.Kpe5-d4! Cb5-a4

Qoralar filini d3 ga yura olmaganidan keyin, c2 ga kelishning payida bo'lmoqda. Lekin ular bu maqsadga ham erisha olmaydi.

2.Kpd4-c3

Bu yurishdan keyin qoralar piyodaning farzinga chiqishini to'xtata olmaydi, binobarin yutqazadi.


Agar qoralarning shohi filning harakatini cheklab turuvchi c6 xonasida emas, balki b6 yoki d6 da turganda, 1.Kpd4 dan keyin 1. ... Ce8 2.h6 Cg6 yo'li bilan o'yin durang bo'lardi.

Bunday pozitsiyalar juda ham kam uchraydi. Amaliy jixatdan olganda, agar piyoda farzin bo'lishga juda yaqinlashib qolmagan bo'lsa, fil uning harakatini to'xtatishga qodir.

Yakka ot piyodaga qarshi kurashda yakka fildan ko'ra o'z o'ziga qiziq qiladi. Buning sababi otning fil kabi uzoqdan turib ham piyodaning yo'liga g'ov bo'la olmasligidir.

Agar piyoda ikkinchi (oq piyoda bo'lsa, yettinchi) gorizontalga borib qolgan bo'lsa ham (a yoki h vertikalidan tashqari) ot o'z shohining yordamisiz (piyodaning oldiga o'tib olib) uni farzinga chiqarmaydi.

167-vaziyat




167-vaziyatdagi pozitsiyada o'yin shunday davom etishi mumkin: 1. ... Kpe3 2.Kg1 Kpf2 3.Kh3+ Kpg3 4.Kg1 Kph2 5.Kf3+ (yoki 5.Ke2) va hakazo. Ma'lum bo'ldiki, shoh bilan otni piyodaning farzinga chiqadigan xonasini nazorat qila olmaydigan xonaga haydab bo'lmas ekan.

Bu hol b, c, d,f va g vertikalidagi piyodalarga xos ekanligini taxtada tegishli pozitsiyalar tuzib, o'zingiz tekshirib ko'ring.

Agar piyoda ikkinchi (oq bo'lsa, yettinchi) gorizontalda, shuning bilan birga a yoki h vertikalida bo'lsa, o'yinni durang qilib bo'lmaydi: qochish uchun otga yo'l qolmaydi va u tutiladi.


168-vaziyat



168-vaziyatdagi pozitsiyada 1. ... Kpf3 2.Kh1 Kpg2 dan keyin qoralar otni urib oladi va g'alaba qozonadi. Lekin a yoki h vertikalidagi piyoda uchinchi (oq bo'lsa, oltinchi)

gorizantalda turgan bo'lsa, ot uni farzinga chiqarmaydi.

169-vaziyat




169-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar qanday o'yin qilmasin, baribir, otni piyodadan nariga hayday olmaydi. Masalan: 1. ... Kpf4 2.Kh2 Kpg3 3.Kf1+ Kpg2 4.Ke3+ Kpf2 5.Kg4+ Kpg3 6.Ke3! go'yo ot piyodadan uzoqlashgan ko'rinsa-da, piyodani surib bo'lmaydi, chunki 6. ... h2 7.Kf1+ va durang bo'ladi.

Ana shu kisht tufayli qoralar yutqazmaydi. Ot raqibi piyodasining olg'a surilishiga imkon bermaydi.

Otning tez-tez ikkidan biriga tusha olish xususiyati bunday pozitsiyalarda muxim taktikaviy vositadir.

170-vaziyat



170-vaziyatdagi pozitsiyada ot piyodadan ancha uzoqda. Ot piyodani farzinga chiqarmaslik uchun g2 xonasiga yoki piyoda g2 ga surilgan bo'lsa, g1 xonasiga yetib kelishi lozim. Chap tomondan (d3 orqali) aylanib kelay desa, e3 xonasida shoh bor. Demak, o'ng tomondan kelishga harakat qiladi:

1.Kc5-e6 g4-g3

Agar 1. ... Kpe4 bo'lsa, 2.Kpc6 Kpe5 3.Kc5! (3.Kg5? Kpf5 4.Kf7 g3 5.Kh6+ Kpf4 va yutuq) 3. ... g3 4.Kd3+ Kpe4 5.Ke1 va durang.

2.Ke6-g5 g3-g2

3.Kg5-h3


Endi o'yinning durang bo'lishi o'z-o'zidan tushunarli.

Ba'zan ot raqib piyodasidan juda uzoqda bo'lsa va unga yetib ololmaydigandek bo'lib tuyulgan paytlarda, unga raqib shohi "odil"lik qilishi, ya'ni yordamlashishi mumkin.

OTLI ENDSHPILLAR

Piyodalar ko'p qolgan otli endshpillarda bir piyoda ortiq tomonning g'alabaga erishishi piyodali endshpillardagidan unchalik qiyin emas: kuchli tomon o'z donalari pozitsiyasini yaxshilagandan (markazlashtirgandan) so'ng taxtaning biror joyidagi piyodaning oldini ochadi va uni farzinga chiqarishga intiladi. O'yinning qolgan qismi raqibning qanday himoyalaniishiga bog'liq: agar raqib oldi ochiq piyodaning yo'lini faqat ot bilan to'sishga kirishsa, kuchli tomon o'z piyodasiga yo'l ochish uchun shohi va oti bilan raqib otini chetlashtiradi; bordi-yu kuchsiz tomonning shohi o'z otiga yordam berish uchun o'sha tomonga yo'l olsa, kuchli tomon raqib kuchlarining bu tomondaligidan foydalanib, oti yoki shohi bilan narigi tomondagi piyodalarga hujum boshlaydi va donalarning hal qiluvchi ustunligiga erishadi.

171-vaziyat



171-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar birinchi galda o'z shohi pozitsiyasini yaxshilashga kirishadi. Oq shoh keyinchalik oldi ochiq piyodaga ega bo'lish uchun farzin flangiga qarab yo'l oladi.

1.Kpf1 Kpe7 2.Kpe2 Kpd6 3.Kpd3 Kpc5. Qoralar o'z shohining oq shohga qaraganda aktivroq joylashganligidan foydalanib, raqibning oldi ochiq piyoda barpo qilishiga xalaqit bermoqchi. 4.Kc2 Kd5 5.g3. qoralar 5. ... Kf4+ yordamida g2 dagi piyodani urib olmoqchi edi.

5. ... a5 6.b3 f5 7.a3 g6 8.b4+!

Qoralar raqibiga oldi ochiq piyoda barpo qilishiga yo'l qo'ymaydi-yu, biroq oxirgu yurish ularning umidini puchga chiqaradi. Oqlar o'zi uchun qulay (shohi aktivroq) piyodali endshpilga o'tish

maqsadida piyodasini qurbon qilmoqda.

8.... ab 9.ab+ Kpd6

Qoralar “inom qilingan” piyodani olsa, tezda yutqazar edi. Masalan: 9. ... K:b4+ 10.K:b4 11.Kpd4 Kpb3 12.f4 Kpc2 13.Kpe5 Kpd3 14.Kpf6 Kpe3 15.Kpg7 Kpf3 16.Kp:h7 Kpg2 17.Kp:g6 va hokoza. Endi kurash oldi ochiq piyodaning surilishiga qaratiladi.

10.Kpd4 Kc7 11.f4 Kb5+ 12.Kpc4 Kc7 (12. ... Kpc6 bo'lsa, 13.Kd4+!) 13.Ke3.

Eng yahshisi shu. Oqlar donalarining pozitsiyasini yaxshilamoqda. 13.b5 dan keyin ham oqlar yutuqqa erishadi-yu, lekin bu yo'l uzoqni ko'rishni talab etadi, chunki bu holda qoralar otini piyodaga qurbon qilib, o'yinni chigallashtirish imkoniyatiga ega. Masalan: 13.b5 K:b5 14.Kp:b5 Kpd5 15.Ke1! Kpe4 16.Kpc5 Kpe3 17.Kpd5 Kpf2 18.Kpe5! (oqlar otini qurbon qilib vaqtni tejamoqda) 18. ...Kp:e1 (qoralar otni olmay, 18. ... Kpg1 o'ynasa, 19.Kf3+ Kpg2 20.Kpf6! Kp:f3 21.Kpg7 va oqlar asosiy variantdagi yutuqqa erishadi)

19.Kpf6 Kpf2 20.Kpg7 Kpg2 21.Kp:h7 Kp:h2 22.Kp:g6 Kp:g3 23.Kp:f5 va oqlar yutadi.

Asosiy variantga qaytamiz. 13. ... Kpc6 14.Kpd4 Kpd6 15.Kc4+ Kpc6.

Agar qoralar oq shoni o'z flangidagi piyodalarga yaqinlashtirmaslik uchun 15. ... Kpe6 o'ynasa, u vaqtda, b4 dagi piyoda xavfli bo'lib qoladi, masalan: 15. ... Kpe6 16.Ke5 Kpd6 17.Kf7+ Kpe7 18.Kg5 h6 19.Kf3 Kpf6 (bo'lmasa, 20.Kh4) 20.Kpc5 Ke6+ 21.Kpd6 g5 22.b5 Kd8 23.Kd4 Kb7+ 24.Kpc7 Kc5 25.b6 Kpg6 26.Kpc6 va oqlar g'alaba qozonadi.

16.Kpe5 Kpb5 17.Ke3 Ka6 (17. ... Kp:b4 bo'lsa, eng yahshisi – 18.Kd5+ va oqlar osongina yutadi. Buni o'zingiz tekshirib ko'ring) 18.Kd5 Kpc4 19.Kf6 h5 20.Kd5 Kb8 21.Ke7-yutuq.


Otli enshpillarda oldi ochiq piyoda barpo qilib bo'lmasa yoki uni qo'llab-quvvatlab bo'lmasa, yohud kuchli tomon shohi bilan raqib piyodalariga yaqinlashib bo'lmasa, ortiq piyodadan foydalanish va

natijada g'alaba qozonish mumkin emas.

Kuchlar teng bo'lganda, uzoqda joylashgan oldi ochiq piyoda yoki uni barpo qila olish imkoniyati – muhim pozitsiyaviy ustunlikdir.

Otning har ikki flangda bo'ladigan janglarda qatnashishi qiyin: bir flangdan ikkinchi falngga kelguncha, ancha vaqt o'tadi. Ana shuning uchun ancha surilib qolgan oldi ochiq piyodani harakatdan to'xtatishga kelgan ot ko'p vaqt o'sha piyodaga “bog'lanib” qoladi.

172-vaziyat




172-vaziyatdagi pozitsiyada (Chigorin – Marshall, Karlsbad, 1907 yil) oqlar uzoqda joylashgan oldi ochiq piyodaga ega. Ular qoralarning boshqa flangdagi oldi ochiq piyoda barpo qilishiga yo'l qo'ymasligi mumkin.

Bu hol oqlarga osongina yutish imkonini beradi.

